O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

TASHMATOVA GULZODA NE’MATULLAEVNA

Ta’lim islohotlarini amalga oshirishda kasb motivatsiyasini barvaqt aniqlashning ijtimoiy-psixologik mezonlari (kichik maktab yosh o‘quvchilari misolida)

M O N O G R A F I YA

“Ziyo nashr-matbaa”XK
Guliston-2022 yil

KBK:88.4
UDK:37.015
T-29

Gulzoda Tashmatova. Ta’lim islohotlarini amalga oshirishda kasb motivatsiyasini barvaqt aniqlashning ijtimoiy-psixologik mezonlari /Monografiya/ - Guliston: “Ziyo nashr-matbaa”XK. 2022-yil. 132 bet.

Annotatsiya: Ta’lim islohotlarini yanada chuqurroq va kengroq o‘rganishda pedagogika va psixologiya fanlarining o‘rni benihoya. Ta’lim- tarbiya jarayonida kasb tushunchasining o‘quvchilar ongiga singdirilishi, kasblarga bo‘lgan qiziqishlarini kichik maktab yoshidan boshlab aniqlash va to‘g‘ri yo‘naltirish, albatta, ota-onalarga hamda pedagogik jamoaga bog‘liqdir. Ushbu monografiya ham aynan, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar bilan ularning kasblarga bo‘lgan qiziqishlarini aniqlashga oid turli savolnomalar va infografik tahlillar bilan boyitilgan.

Annotatsiya: Neotsenima rol pedagogiki i psixologii v bolee glubokom i shirokom izuchenii reformы obrazovaniya. V protsesse obucheniya vnedrenie v soznanie uchaщixsya ponyatiya professii, vыyavlenie i napravlennost interesa k professii s rannego vozrasta, bezuslovno, zavisit kak ot roditeley, tak i ot pedagogicheskogo kollektiva. Dannaya monografiya takje obogaщena razlichnыmi anketami i infograficheskimi analizami dlya vыyavleniya interesov uchaщixsya nachalnыx klassov v ix professiyax.

Annotation: The role of pedagogy and psychology is invaluable in a deeper and broader study of the education reform. In the learning process, the introduction of the concept of a profession into the minds of students, the identification and direction of interest in the profession from an early age, of course, depends on both parents and the teaching staff. This monograph is also enriched with various questionnaires and infographic analyzes to identify the interests of primary school students in their professions.

Taqrizchilar:

MXakimova - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Innovasion ta’lim" kafedrasi mudiri pedogogika fanlari doktori, professor.

D.E.Toshtemirov - Guliston davlat universiteti, Pedagogika kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dosent.

ISBN – 978-9943-7338-0-0

Mazkur “Ta’lim islohotlarini amalga oshirishda kasb motivatsiyasini barvaqt aniqlashning ijtimoiy-psixologik mezonlari (kichik maktab yosh o‘quvchilari misolida)” nomli monografiya Guliston davlat universiteti Kengashining 2022-yil 31-maydagi №10-sonli yig‘ilishi bayonnomasi qarori bilan chop etishga tavsiya etilgan.

© “Ziyo nashr-matbaa” XK
© Gulzoda Tashmatova

M U N D A R I J A

Kirish.....4

I-BOB

TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA KASBGA YO'NALTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

1.1.Ta'lim islohotlarini rivojlantirishda pedagogika va psixologiya fanlari mutaxassislarining o'rni.....7

1.2.Ta'lim- tarbiya jarayonida kasb tushunchasiga ta'rif. Qomusiy allomalar va zamonaviy ilm-fan tushunchalari tahlili.....12

1.3.Kasblarni tizimlashtirish muammolari va kasb tipologiyasi haqidagi ilmiy qarashlar. Kasblar tasviri.....20

II-BOB

KASB TANLASHDA PEDAGOGIK MAHORATNING O'RNI VA SHAXSGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

2.1.Kasbiy motivatsiya va kasbiy qiziqishlar shkalasi. Xorijiy mamlakatlarda kasbga yo'naltirish tamoyillari.....28

2.2.Kasb tanlash jarayonida o'quvchining individual xususiyatlari. Kasbga yo'llash va kasbiy maslahat tushunchalari.....53

2.3.Kichik maktab yoshi davridagi o'quvchilar bilan shug'ullanishda kasbiy shakllanish bosqichlari. Kasbiy ustanovkalar.....64

III-BOB

O'QUVCHILARNI KASB-HUNARNI MUSTAQIL TANLASHGA TAYYORLASHNING NAZARIY METODOLOGIK YONDASHUVLARI VA AMALIY TAHLIL NATIJALARI

3.1.Kasbiy qiziqishlar xaritasini tuzish. Natijalar tahlili va taqqoslash.....70

3.2.Kasbiy so'rovnomalar va infografik tahlillar.....91

Xulosa.....119

Glossariy.....122

Foydalanilgan adabiyotlar.....129

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.12.2020 dagi 4939-sonli qaroriga muvofiq “Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” Mamlakatimizda inson kapitalini to‘laqonli rivojlantirish, oliy va professional ta’limning sifatini oshirish, mehnat bozorining rivojlanishi tendensiyalarini inobatga olgan holda, aholining keng qatlamlarini talab yuqori bo‘lgan kasblarga o‘qitish hamda malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish uchun shart-sharoitlarni yaratish maqsadida, shuningdek, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq:

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Savdo-sanoat palatasi, «O‘zstandart» agentligi, yirik korxonalar va uyushmalarning quyidagilarni nazarda tutuvchi Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatorini (keyingi o‘rinlarda — Klassifikator) takomillashtirish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin:

- ta’limning eng past darajasiga qo‘yiladigan talablarni bekor qilgan holda har bir lavozim va kasb bo‘yicha malaka doirasiga muvofiq malaka darajasiga talablar kiritilishi
- lavozim va kasblarni Mashg‘ulotlarning Xalqaro Standart Klassifikatori (MXSK — 2008) bilan muvofiqlashtirishi

ishchi kasblar uchun tarif razryadlarining oralig‘ini belgilash[1] va qator vazifalarni o‘z ichiga olgan qaror ijrosini quyi bo‘g‘inlardan, xususan, ta’lim tizimidan boshlash va kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ham kasbga oid qiziqishlarini o‘rganishga qaratilgan harakatlar majmui ushbu monografiyada bir muncha yorqin misollar bilan keltirilgan. Shuningdek, **“**O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim to‘g‘risida”gi nizomga ko‘ra, Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’limni tashkil etish va amalga oshirish tartibini belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasida professional ta’lim «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasida professional ta’lim — iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari va ustuvor vazifalarini,

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. МИРЗИЁЕВ Тошкент ш., 2020 йил 31 декабрь, ПҚ-4939-сон

zamonaviy texnika va texnologik tendensiyalarni hisobga olib, mehnat bozoridagi kadrlarga bo‘lgan real ehtiyoj, ish beruvchilarning takliflari hamda «Hayot davomida ta’lim olish» prinsipi asosida shaxslarning ta’lim olishiga mo‘ljallangan. Professional ta’limni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek, ushbu Nizomga amal qilinadi. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

boshlang‘ich professional ta’lim — YUNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan Ta’limning xalqaro standart tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda Xalqaro tasniflagich deb ataladi) 3-darajasiga mos keluvchi ta’lim dasturlari;

kasb — maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma’lum bir sohada mehnat faoliyatni amalga oshirish uchun lozim bo‘lgan nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikma va malakalar majmuasini egallagan, jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va huquqlari ta’minlangan mehnat faoliyati (mashg‘uloti)ning turidir;

kasbiy kompetensiya — bilim, ko‘nikma va amaliy tajriba asosida kasbiy faoliyatga tegishli vazifalarni bajarishda faoliyat yuritish qobiliyati;[2] shu va shunga o‘xshash bir qancha ta’rifi keltirilgan ta’lim sohasi rivojiga ustun bo‘luvchi tushunchalar mohiyatini kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar misolida tahlil etamiz.

Ushbu monografiyaning **maqsad va vazifalari** bisyor bo‘lib, sarasiga:

- ✓ Ta’lim islohotlarini rivojlantirishda pedagogika va psixologiya fanlarining ahamiyatini kasbiy qiziqishlar orqali tushuntirish;
- ✓ Ta’lim- tarbiya jarayonida kasb tushunchasiga ta’rif hamda kichik maktab yosh davridagi o‘quvchilar uchun maxsus so‘rovnomalar tashkil etish orqali ularning kasbga bo‘lgan qiziqishlarini aniqlash;
- ✓ Kasbiy motivatsiya va kasbiy qiziqishlar shkalasini sinf-jamoa ko‘rinishida, amaliy seminarlar, davra suhbatlari orqali o‘quvchilar va ularning ota-onalari yohud mas’ul shaxslarga tushuntirish;

[2]Ўзбекистон Республикасида узлуксиз бошланғич, ўрта ва ўрта махсус профессионал таълим тўғрисида НИЗОМ Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 7 августдаги 466-сон қарори

- ✓ Pedagogik jarayonda kasbga yo‘naltirishning psixosotsial ko‘rinishlari, xususan, kasb tanlashda ijtimoiy muhit roli hamda ruhiy motivatsiyaning ahamiyatini chuqrroq ochib berish;
- ✓ Kichik maktab yoshi davridagi o‘quvchilar bilan shug‘ullanishda, pedagogik mahoratning o‘rni beqiyos bo‘lib, har bir o‘quvchining o‘z tanlov kasbi, unga monand o‘z kasbiy qiziqishlari bo‘lib, ularni yuzaga chiqarishda etakchi omillar rolini oshirish;
- ✓ Sinf jamoasi bilan ishlashda individual yondashuvlarni olib borish yo‘llarini interfaol metodlar hamda kichik davra suhbatlari, qiziqarli savol-javoblar orqali aniqlashtirish;
- ✓ Kasbiy qiziqishlar xaritasini tuzish va jamoa bilan ishlash, jamoaviylikni shakllantirish;
- ✓ Kasbiy qiziqishlarni shakllantirishda, maktab, pedagog hamda ota-onalarning hamkorligini yo‘lga qo‘yish orqali, ushbu institutlar o‘rtsida “qaytar reaksiya” ni shakllantirish;
- ✓ So‘rovnoma natijalarini tahlillash, taqqoslash va xulosa qismlarini yozib, maxsus bayonnomalar tuzish;
- ✓ Kasbiy so‘rovnomalar va infografik tahlillarni kasbiy psixologiya doirasida o‘rganish va boshqalar.

Ta’lim islohotlarini amalga oshirishda kasb motivatsiyasini barvaqt aniqlashning ijtimoiy- psixologik mezonlari asosini tashkil etuvchi ustuvor yo‘nalishlar.

Ta’lim islohotlarini rivojlantirishda pedagogika va psixologiya fanlari mutaxassislarining o‘rni

Kelajak avlodimiz taqdiri, butun millatimiz, xalqimiz, davlatimiz taqdiri muhtaram muallimlarga bog‘liq
Shavkat Mirziyoev

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 23 avgust kuni xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Davlatimiz rahbari prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma’naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta’lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Prezidentimiz yig‘ilishda maktab ta’limi tizimini isloh qilish bo‘yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, bu borada oldimizda turgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritar ekan, ulug‘ ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktabdir” degan fikrini alohida ta’kidlab, bu masalaning mohiyati va ahamiyatiga atroflicha to‘xtaldi. Haqiqatan ham, jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularda jamiyat hayotini o‘zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta’lim tizimidan, bog‘cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko‘ramiz. Chunki maktabni o‘zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Ta’lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – maktab. Maktabni maktab qiladigan kuch esa o‘qituvchilardir. Ma’lumki, murakkab o‘tish yillarida maktablardagi ma’naviy-ma’rifiy muhit, o‘qituvchi kasbining obro‘yi, nufuzi pasayib ketgani, yangi davr pedagoglarini tarbiyalash, pedagogika fanini rivojlantirish, innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etishga etarli e’tibor berilmagani sohada bir qator jiddiy

muammolarni keltirib chiqardi. Keyingi yillarda ana shu muammolarni samarali hal etish, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha mamlakatimizda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tomonidan xalq ta’limi tizimiga oid 6 ta farmon va qaror, Vazirlar Mahkamasining 21 ta qarori qabul qilinib, bu sohadagi islohotlarning huquqiy-me’yoriy asoslari mustahkamlandi. Ota-onalar, jamoatchilikning istaklari inobatga olinib, yurtimizda 11 yillik maktab ta’limi tizimi tiklandi. So‘nggi uch yilda yurtimizda 157 ta umumta’lim maktabi yangidan qurildi. Ulug‘ allomalarimiz – Mirzo Ulug‘bek va Muhammad Xorazmiy nomidagi iqtidorli bolalar maktablari, Hamid Olimjon va Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibroyim YUsupov, Ishoqxon Ibrat, Muhammad Yusuf, Halima Xudoyberdieva nomlari bilan atalgan ijod maktablari, “Temurbeklar maktabi”, Prezident maktablari, xususiy maktablar singari yangi va zamonaviy namunadagi ta’lim dargohlari tashkil etilgani yurtimiz farzandlari uchun ta’lim-tarbiya olish borasida yangi imkoniyatlar ochib bermoqda. Ta’lim-tarbiya ishlarini samarali olib borishda erkak o‘qituvchilarning alohida o‘rni va ta’siri borligi hisobga olinib, ko‘rilgan aniq chora-tadbirlar natijasida xalq ta’limi tizimiga 12 ming 871 nafar erkak o‘qituvchi qaytdi. Pedagog xodimlar mehnatini rag‘batlantirish bo‘yicha katta ishlar qilinmoqda. Oxirgi 3 yilda o‘qituvchilarning ish haqi o‘rtacha 2,5 barobar oshirildi. Uzoq tumanlarga borib ishlayotgan pedagog kadrlar mehnatini rag‘batlantirish bo‘yicha aniq mezonlar belgilandi. Ularga 50 foizgacha qo‘shimcha oylik ustamalar to‘lanmoqda. Bu olis hududlarda etishmayotgan mingdan ziyod o‘qituvchini jalb etish imkonini berdi. Nafaqa yoshida faoliyatini davom ettirayotgan o‘qituvchilarga pensiyasi to‘liq miqdorda berilmoqda. “Hurmatli muallimlarimiz, jonkuyar maktab direktorlarini, soha faxriylarini el-yurtimizning tayanchi va suyanchi, deb bilamiz, – dedi Prezidentimiz. – Maktablar tizimini rivojlantirish uchun bundan buyon ham mablag‘ni, imkoniyatni aslo ayamaymiz. Kelajak avlodimiz taqdiri, butun millatimiz, xalqimiz, davlatimiz taqdiri muhtaram muallimlarga bog‘liq”. Ammo amalga oshirilayotgan ijobiy o‘zgarishlarga qaramasdan, ta’lim tizimida hamon tizimli muammolar borligi, maktablarning moddiy-texnik bazasi, ayrim pedagog xodimlarning bilim va malakasi bugungi zamon talablariga javob bermasligi yig‘ilishda tanqid qilindi. Ta’lim-tarbiya sohasida:

- zamonaviy va oqilona tizim yaratish;
- o‘qitish metodlari;
- ta’lim standartlari;

- darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yangilash zarurligi;
- bilim berishda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish;
- tarbiyada esa milliy an’ana va qadriyatlarga suyanish muhimligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan tamoyilga asoslangan holda, milliy g‘oya va uning mafkuraviy negizlarini puxta ishlab chiqish, yosh avlodni bolalikdan milliy g‘urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb ahamiyatga ega ekanini ta’kidladi. Maktablardagi kamchiliklarni tuzatish, ta’lim sifatini nazorat qilish uchun ota-onalar, keng jamoatchilikning ishtiroki zarurligiga alohida e’tibor qaratildi. “Maktab – bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Uni davlat, hukumat va hokimlarning o‘zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak", dedi Shavkat Mirziyoev. Davlatimiz rahbari o‘qituvchining maqomi va nufuzini oshirish, huquqlari va imtiyozlarini kengaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratdi. “Maktab o‘qituvchisini moddiy rag‘batlantirmasak, uning hayot sifati darajasini oshirmasak, islohot, natija haqida gapira olmaymiz”, dedi Prezident. O‘qituvchi va murabbiylarning o‘zi ham bilim va kasb mahoratini oshirish, jamoat ishlarida faol ishtirok etish, halol mehnati va tashabbuskorligi bilan bu kasbning obro‘sini oshirishi kerakligiga urg‘u berildi.

Oiladagi ta’lim-tarbiya muhiti, ota-onalarning mas’uliyati va o‘qituvchilar bilan hamkorligi masalalariga ham e’tibor qaratildi. “Moddiy va ma’naviy hayotni uyg‘un rivojlantirishimiz kerak.

Maktab bu borada asosiy bo‘g‘in bo‘lishi lozim. Maktab ta’limini rivojlantirish biz uchun buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanishi zarur”, deb ta’kidladi davlatimiz rahbari.[3]

[3] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 23 август куни халқ таълими тизимини ривожлантириш, педагогларнинг малакаси ва жамиятдаги нуфузини ошириш, ёш авлод маънавиятини юксалтириш масалаларига бағишланган видеоселектор йиғилиши



Ta’lim- tarbiya jarayonida pedagoglar o‘quvchilarga bilim berish bilangina shug‘ullanib qolmay, balki ularda jamoaviylik, o‘zaro hurmat, taniqidiy kayfiyat, sof raqobat, ilm yo‘lidi izlanuvchanlik kabi qator hislatlarni singdirib boradi. Ta’kidlash joizki, bunday vaziyatlarda pedagoglar o‘z ustida ishlashlari va o‘zgalar ulardan namuna olishlarini unutmasliklari lozim. Dars jarayonida, bolaning individual xususiyatlari, aqliy faoliyati, irodaviy xislatlari, diqqat kuchi, tafakkuri, tasavvuri, nutqiy qobiliyatlari yuzaga chiqadi, rivojlanadi va takomillashib boradi. Ta’lim jarayonida psixologik xizmat va o‘z sohasining etuk mutaxassisi bo‘lgan psixologlarga o‘quvchilar, qolaversa, ularning ota-onalar ham murojaat etishlari mumkin. Boladagi bo‘ladigan jismoniy o‘zgarishlar krizis davrlari, unig ruhiyatiga ta’sir etmay qolmaydi. Vaholanki, jismoniy o‘zgarishlardan tashqari, o‘zaro guruhiy iddaolar, noodatiy tanishuvlar, kesatiq gaplar, kamsitishlar, faoliyatga nisbatan, shaxsga nisbatan kuchli tanqidiy fikrlar ham shaxs ongiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Shu vaziyatlarni o‘rganish, oldini olish va lozim topilgan choralarni qo‘llash bilan psixologlar o‘quvchilar o‘rtasida normal munosobatlarni o‘rnata oladilar. Shuningdek, o‘quv jamoasi bilan ham ishlash psixologlarimizning zimmasidadir. O‘quv jamoa uchun turli mavzularga oid suhbatlar, seminar-treningdar o‘tkazish natijalarni birga tahlil etish va munosib xulosa qilish ish sur’atlarining bir qismini tashkil etadi. Pedagoglar, psixologlar, o‘quvchilar hamda ularning ota-onalari yohud

ularga mas’ul shaxslar bilan birga olib borilgan har qanday ta’limiy, tarbiyaviy, ma’naviy ishlar natijasi yuqori bo‘ladi. Sababi, shaxsga ta’sir etuvchi omillarnin to‘g‘ri inobatga olinishi, bevosita va bilvosita ta’sirlarni aniqlash, oilaviy muhitni o‘rganish, sinfiy muhitni mo‘tadillashtirish bilan birga bola ongiga, uning ruhiyatiga salbiy ta’sir etuvchi shaxslarni va odatlarni ro‘yhatini shakllantirib, birgalikda harakat qilish samaralidir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Kasbiy tayyorgarlik vazifalari nimalardan iborat?
2. Kasbiy kamolot haqida nima deya olasiz?
3. Kabiy tayyorgarlik va psixologik yondashuv haqida o‘z fikringizni bildiring.
4. Kasb tanlash jaranyonida pedagoglarning o‘rni qanday?
5. Ta’lim-tarbiya jarayonida pedagoglar va ota-onalar hamkorligi bola tarbiyasidagi o‘rni haqida fikr bildiring
6. Maktab jamoasining kasb tanlashdagi ahamiyati?
7. Kasb tanlash jarayonida o‘quvchida qanday sifatlar shakllantirilishi kerak?
8. Kasbga yo‘naltirishda pedagoglardan qanday sifatlar talab etiladi?
9. Kasb va men mavzusida hayotiy misollar orqali kichik ertak tuzib bering
10. Kasbga yo‘naltirishda, o‘quvchilarni qiziqtirish uchun qanday usullardan foydalanish samaraliroq?

Tushunchalarga ta’rif bering:

• **Kasb-**
• **Pedagog-**
• **Ta’lim-**
• **Tarbiya-**
• **O‘quvchi-**
• **Bilim-**

Ta’lim- tarbiya jarayonida kasb tushunchasiga ta’rif. Qomusiy allomalar va zamonaviy ilm-fan tushunchalari tahlili

“Kasb - jamiyat uchun zarur va qadriyatli soha bo‘lib, insondan jismoniy va ruhiy kuch talab etadi”

E.A.Klimov

Kasb — kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg‘uloti turi; muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi. Kasblar ichida mehnat faoliyatining eng tor sohasi bilan ajralib turadigan ixtisoslar bor (masalan, shifokorlik Kasbida xirurg, oftalmolog, dermatolog va b.). Kasblar odatda, shaxsning asosiy tirikchilik manbai hisoblanadi.[4] Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o‘ta muhim bosqichi bo‘lajak kasbni tanlash, ya’ni aniq bir kasbiy qarorga kelishigacha bo‘lgan davrini o‘z ichiga oladi. Ravshanki, yoshlarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi, faqatgina yosh xususiyatlariga bog‘liq emas, u ma’lum yoshga kelib o‘z-o‘zidan shakllanib qolmaydi. Yoshlarning kasb tanlashga pedagogik-psixologik bilim, ko‘nikma, malakalar, shuningdek, jamiyatning ta’siri orqali tayyorlash va tarbiyalash lozim. Mazkur jarayonda shaxsdan kasbga doir bilimlarga ega bo‘lish talab qilinadi. Shuning uchun ham o‘quvchilarni kasblar olamiga doir bilimlar bilan qurollantirish hamda amaliy ko‘nikma va malakalarni hosil qilish lozim. Buning uchun kasblarga doir qo‘llanmalar, tarqatma materiallar bilan ta’minlash lozim. Shundagina kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchilik,

---

4 QOMUS.INFO ONLAYN ENSIKLOPEDIYA

ziddiyat, to‘siqlarni oldini olgan holda o‘quvchi-yoshlarni ongli ravishda kasbga yo‘llash imkoniga ega bo‘lamiz.

Avesto

Ajdodlarimiz qoldirgan ma’naviy meroslarga ko‘ra, qomusiy allomalarimizning kasb va kasbiy kamolot tushunchalariga bergan ta’riflarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, Avestoda yoshlarni kasb-hunarga o‘rgatishga, halol mehnat qilib to‘q farovon hayot kechirishga da’vat etiladi. Bundan ko‘rinadiki, eng qadimgi davrlardanoq xalqimiz farzand tarbiyasiga, uni kasb-hunarli bo‘lib farovon turmush kechirishini ta’minlashga katta e’tibor bilan qaragan. Farobiy ta’lim-tarbiya ta’limotining asosi komil insonni shakllantirish, bunda yoshlarga o‘z vaqtida o‘rinli ta’lim va tarbiya berish, ularni kasb-hunarga yo‘llash orqali baxt-saodatga erishtirish, jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga yordam berish g‘oyasidan iborat. Sharqda birinchi bo‘lib Yer va Osmon globusini yasagan Abu Rayxon Beruniy ilm fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shish bilan bir qatorda, ta’limtarbiyani amalga oshirish usullari, metodlarini ham ko‘rsatib o‘tgan.

Mutafakkir inson kamolotida, mehnat va mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etadi. U har bir hunar egasining mehnatiga qarab turlarga bo‘ladi. Og‘ir mehnat sifatida binokor, ko‘mir qazuvchi, hunarmand va fan sohiblari mehnatini keltiradi. Ayniqsa, ilm ahli olimlar mehnatiga alohida e’tibor berish, hayrixoh bo‘lishga chaqiradi, ularni ma’rifat tarqatuvchilar, jamiyat ravnaqiga hissa qo‘shuvchilar deb biladi. Olim bolalarni mehnatga o‘rgatish metodlari, yo‘llari haqida ham fikr yuritadi. Masalan, bolalarni eng kichik yoshdan mehnatga o‘rgatish kerak, deydi.

Abu Rayhon Beruniy

Mehnat tarbiyasida o‘sha davr an’anasiga ko‘ra, vorislikka katta ahamiyat beradi. Beruniyning – “Mineralogiya” asarida hunarmandchilikka oid, shogird tayyorlash jarayoni, ustalarning hunar o‘rgatish metodlari haqida ham qimmatli fikrlar bayon etilgan. Bunda shaxsiy namuna metodidan foydalanilgan. Ish jarayoni bevosita ham

nazariy, ham amaliy jihatdan ustaxonaning o‘zida bajarilganligi shogirdlarning malakali usta bo‘lib etishishida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Beruniy inson har tomonlama kamolga etishishi uchun u ilmli bo‘lishi bilan birga mehnatsevar va hunar egasi bo‘lishi ham kerak deydi. Beruniyning pedagogik ijodida inson va uning baxti-saodati, ta’lim-tarbiyasi, kasb- hunar egallashi va kamolati bosh masala bo‘lgan. Ibn Sinoning mehnatsevarlik tarbiyasi borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Jumladan, u har bir bolani biror hunarga o‘rgatmoq shart, deydi. Yosh yigit biror hunarni o‘rgansa, uni hayotga tatbiq eta olsa va mustaqil hunar orqali oilani ta’minlaydigan bo‘lsagina, otasi uni uylantirib qo‘ymog‘i lozim, deb hisoblaydi. O‘spirin hunar egallashi bilan unda nafaqat axloqiy hislar, balki xarakterning irodaviy xislatlari ham tarkib topa boshlaydi. Hunar egallash orqali o‘spirinlarda sabr-bardoshlik, chidamlilik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, zukkolik kabi insoniy sifatlar shakllanadi. Ibn Sino har bir insonning mijozidan kelib chiqqan holda kasb tanlashga alohida e’tibor berish kerakligini ta’kidlashi uning yoshlarni kasb-hunarga yo‘llash masalalariga alohida e’tibor bilan yondashganini ko‘rsatadi. Kaykovusning “Qobusnoma” asarida kasb-hunar haqida bir qator fikr mulohazalar keltiriladi: - Ey farzand ogoh bo‘lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo‘lur va hech kishiga naf etkurmas. Bilursanki, tikanli butaning tani bordur, ammo soyasi yo‘qdir. Hunarsiz kishi ham tikanli buta yanglig‘ na o‘ziga na o‘zgaga foyda berur. Sharq mutafakkirlaridan qolgan qimmatli ma’naviy boylikning har bir satrini ochib tahlil qilganimizda ularning inson kamoloti, ma’naviyati va mehnatsevarlik xislatlariga, bolalar va yoshlarni barkamol insonlar qilib shakllantirish va kasb-hunarga o‘rgatishga taalluqli ibratli, qimmatli mushohadalar olsa bo‘ladi. To hozirgacha, saqlanib kelayotgan qator me’moriy inshootlar, buyuk tarixiy obidalar, xalq amaliy san’ati asarlari (naqqoshlik, ganchkorlik, me’morchilik) arxeologik qazilma va izlanishlar tufayli topilgan hunarmandchilik buyumlarining barchasi buyuk ajdodlarimizning kasb-hunar o‘rgatishga, yuksak iste’dod va qobiliyat sohibi bo‘lishiga oid bebaho materiallar qoldirganliklarini mujassamlashtiradi.[5]

XXI asrda jahon miqyosida ta’lim barqaror taraqqiyotni ta’minlovchi asosiy omil sifatida e’tirof etilib, YUNESKO tomonidan 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim konsepsiyasida “o‘qitish va

[5] ТОШКЕНТ МОЛИЙА ИНСТИТУТИ. ЎҚУВ-УСЛУБИЙ МАЖМУА. Холйигитова Н.Х. , Абдумаджидова Д.Р. Тошкент 2018

kasbga tayyorlashda, turli xil ta’lim olish imkoniyatlarini kuchaytirish va kengaytirish” dolzarb vazifa sifatida belgilandi.[6] Bu maktab o‘quvchilarini kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorgarligini oshirish va ularning kasb tanlashga oid tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalaridan foydalangan holda yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, kasb yoki - kasb qilmoq kabi so‘z va tushunchalar arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, (kasaba) fe’lining o‘zagi hisoblanadi. Arab tilidagi kasaba so‘zi qo‘lga kiritmoq, ishlab topmoq, qozonmoq, biror ishni bajarmoq, qandaydir foyda-manfaatga erishmoq, yutuqqa ega bo‘lmoq kabi ma’nolarni anglatadi. Kasb bir xil faoliyat bilan shug‘ullanuvchi kishilarni birlashtiradi. Bu faoliyat ichida ma’lum aloqalar va axloq normalari o‘rnatiladi. E.A.Klimov o‘z ishlarida kasb tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi: “Kasb - jamiyat uchun zarur va qadriyatli soha bo‘lib bunda insondan jismoniy va ruhiy kuch talab etadi” bu kuchlar unga sarflangan mehnat o‘rniga yashashi va rivojlanishi uchun muhim vositalar omili sifatida namoyon bo‘ladi. Bu ta’rifni yanada batafsil yoritirib, kasb bu - kasbiy faoliyatning sifatli tarixiy rivojlanuvchi tizim va shaxsning o‘zini namoyon etish sohasi deb ta’riflaydi. V.G.Makushinning fikricha, kasb - bu shunday faoliyatki, uning yordamida shaxs jamiyat hayotida ishtirok etadi va uning yashashi uchun moddiy vositalar asosiy manbasi bo‘lib xizmat qiladi. Mavjud ta’riflarni umumlashtirib, kasb tushunchasiga quyidagicha zamonaviy ta’rif beramiz. Kasb mehnat faoliyatining paydo bo‘lgan shakli bo‘lib, texnika va texnologiyalarning rivojlanishi jarayonida mazmunan va shaklan o‘zgarib boradi, ularni bajarish uchun inson albatta ma’lum kasbiy kompetensiyalarga, maxsus qobiliyatlar va muhim kasbiy sifatlarga ega bo‘lishlari kerak. Kasbshunoslik nazariyasida “kasb” va “mutaxassislik” tushunchalari farqlanadi. Kasb mutaxassislikka ko‘ra kengroq tushuncha bo‘lib, kasbiy salohiyatida tashqari, uning muhim sifatlari - ijtimoiy - kasbiy salohiyat, kasbiy avtonomiya, o‘zini nazorat qilish, guruhli mezonlar va qobiliyatlar hisoblanadi. Kasb odatda yaqin mutaxassisliklar guruhini birlashtiradi. Masalan, kasb shifokor; mutaxassisliklar - terapevt, pediatr akulist, urolog, va hokazo. Kasb – muhandis; mutaxassisliklari - konstruktor, texnolog, metallurg va hokazolar. Mutaxassislik - kasbiy ta’lim, tayyorgarlik yo‘li bilan ish jarayonidagi maxsus bilimlar, ko‘nikma va malakalar kompleksi bo‘lib, ular u yoki bu kasb doirasida ma’lum faoliyat turini bajarish uchun

[6] Incheon Declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).

zaruriy hisoblanadi. Shunday qilib, mutaxassislik - kasb ichdagi kasbiy faoliyat turi bo‘lib, u shaxsiy yutuqlarga yoki o‘ziga xos vaziyatlar orqali umumiy natijalarga erishishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Kasb, mutaxassislik tushunchalari bilan bir qatorda ixtisoslik tushunchasi xam keng qo‘llaniladi. Ixtisoslik – birorta kasb doirasida ma’lum bir faoliyat turi uchun maxsus tayyorgarlik va ish tajribalari bilan erishilgan zaruriy bilimlar, ko‘nikma va malakalar majmuasi. Kasbiy faoliyatning samaradorligini shartlaridan biri mutaxassisning kasbiy tayyorligi hisoblanadi. Kasbiy tayyorgarlik deganda uning ruhiyati va jismoniy sog‘lig‘i hamda holati, undagi mavjud sifatlarning bajarayotgan faoliyati talablariga mosligi darajasi tushuniladi. Mashhur rus psixologi K.K.Platonov mutaxassisning kasbiy tayyorligi bu o‘zining muayyan kasbiy faoliyatini bajarishga qodir va tayyorgarlik ko‘rgan deb hisoblovchi va uni bajarishga intiluvchi shaxsning sub’ektiv holatidir - deb hisoblangan. Mutaxassisning kasbiy tayyorligi murakkab ko‘p darajali va ko‘rinishli tizimli psixik shaklga ega bo‘lib, birinchi navbatda odamning shaxsiy ko‘rinishi asosiy o‘rin egallaydi. Shu bilan birga, kasbiy tayyorgarlik mutaxassisda kerakli darajada jismoniy sog‘liqni kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan jismoniy sifatlar shakllanganligi va rivojlanganligini talab qiladi. Chunki har qanday kasbiy faoliyat insonning qandaydir kuch jismoniy energiya sarflashini ko‘zda tutadi. Kasbni to‘g‘ri tanlash har bir maktab o‘quvchisining qiziqishiga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo‘lishi uchun uning sog‘ligini, o‘zlashtirishini va hissiyotlarini xisobga olish lozim, bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda xammadan ko‘ra ko‘prok qaror topadi va namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi «Xalq ta’limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-5538-sonli Farmonida o‘quvchilarning o‘quv, psixologik va jismoniy yuklamalarini optimallashtirishni hisobga olgan holda o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllarini, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini, kasbga yo‘naltirish, ta’lim va tarbiyaning samarali usullarini joriy etish alohida belgilab qo‘yildi.[7] Kasbga yo‘naltirish – bu o‘quvchining butun hayoti uchun o‘zi tomonidan kasb tanlashi emas, balki, inson kasbiy faoliyatini boshlaganda, o‘zini unda namoyon eta olishi uchun shaxsiy ichki resurslarini faollashtirishi hamda kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlanishning shakllanishidir. “Kim

[7] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 сентябрдаги «Халқ таълими бошқарув тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ-5538-сонли Фармони

bo‘lsam ekan?” boshlang‘ich kasb-hunarga yo‘naltirish bosqichlarining biri. Kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari boshlang‘ich sinflarda (1-4 sinflar) kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun (6-9 yoki 7-10 yoshlilar) tashkil etiladi va amalga oshiriladi. Boshlang‘ich kasb-hunarga yo‘naltirishning asosiy maqsad va vazifalari:

- kichik maktab yoshida o‘qishga va mehnatga vijdonan munosabatda bo‘lishni shakllantirish, ularning jamiyatda va inson hayotida muhim ahamiyatga egaligini tushunish;
- ota-onasining va boshqa oila a’zolarining hamda turli kasblarga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish, “Kasblar olami” bilan tanishtirish;
- o‘quv, mehnat, ijodiy va kommunikativ faoliyatda malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish;
- kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning psixologik-pedagogik tashxisi, umumiy psixologik, aqliy va jismoniy rivojlanishi korreksiyasi (boshlang‘ich sinfda o‘qish va ushbu bosqichda kasb-hunarga yo‘naltirishning vazifalari bilan bog‘liq);
- ko‘rgazmali-obrazli, ko‘rgazmali-xarakat, verbal va mantiqiy tafakkurni, tasavvurni, ko‘rgan va eshitgan ma’lumotlarni yodda saqlash va qayta tiklashning oddiy va murakkab operatsiyalarini rivojlantirish (kasbiy ma’lumotni qabul qilish bilan bog‘liq); umumiy o‘quv, mehnat va kommunikativ malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish (biror bir kasb uchun ahamiyatli bo‘lgan o‘quv fanlarini o‘zlashtirishi bilan bog‘liq);
- kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning iqtidorini, qobiliyatini aniqlash, ota-onalar uchun tavsiyalar ishlab chiqish (iqtidorli bolaning boshlang‘ich sinflarda va oilada ta’lim va tarbiyasi; shuningdek, kelgusida ixtisoslashtirilgan litsey, maktab yoki internatlarda o‘qish imkoniyati bilan bog‘liq).[8] Kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarining uslubi va vositalari:

[8] ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ ПЕДАГОГИК ИННОВАЦИЯЛАР, КАСБ-ҲУНАР ТАЪЛИМИ БОШҚАРУВ ҲАМДА ПЕДАГОГ КАДРЛАРНИ ҚАЙТА ТАЙЁРЛАШ ВА УЛАРНИ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШ ИНСТИТУТИ АБДУРАШИД АБДУМАННОБОВИЧ ТУРҒУНОВ КАСБ-ҲУНАРГА ЙЎНАЛТИРИШ (Ўқувчиларни касб-ҳунарни мустақил танлашга тайёрлаш)

kasbga yo'naltirish

- hikoya,topishmoqlar
- yoshga mos kichik kitoblar

kasblar haqida to'laroq ma'lumot uchun

- ko'rgazmali-obrazli videolavhalar
- plakatlar, kartochkalar orqali rasmli tarzda tushuntirish

oilaviy topshiriqlar

- ota-onalar bilan o'zaro suhbat oilaviy
- kasbiy maslahatlar
- mehnat tarbiyasi haqida tushuntirish

дарс жараёнида

- qiziqarli, tezkor, qisqa davra suhbatlari
- mehnat darslari

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Kasb va hunar tushunchalariga ta’rif bering
2. Siz qaysi kasb egasisiz va mutaxassisligingiz qanaqa?
3. Kasb haqida sharq allomaridan Abu Rayhon Beruniyning fikrlariga izoh bering
4. Avesto qo‘lyozmalarida kasb va hunar haqida qanday fikrlar bildirilgan?
5. Farobiyning kasb haqidagi fikrlarini hayotiy misollar orqali tushuntirib bering
6. Maktabda, darslarda o‘quvchilarni qanday usullar yordamida kasbga yo‘naltirish mumkin?
7. Darsdan tashqari jarayonlarda o‘yinlarda, tadbirlarda o‘quvchilarni qaysi kasb egalari ishlari bilan bevosita tanishtirish mumkin?
8. Interfaol metodlarning kasbga yo‘llash borasida ahamiyati qanday?
9. Kasb egallashda inson qanday sifatlariga ko‘proq e’tibor berishi kerak?
10. Oilaviy mashg‘ulotlarning o‘quvchi kasb tanlash jarayonidagi o‘rni qanday?

Tushunchalarga ta’rif bering:

• **Hunar-**
• **Mutaxassis-**
• **Ixtisoslik-**
• **Jamiyat-**
• **Ibrat-**
• **Nazorat-**

Kasblarni tizimlashtirish muammolari va kasb tipologiyasi haqidagi ilmiy qarashlar. Kasblar tasviri

Kasb tanlash, turmush o‘rtoq tanlashdek ahamiyatga tenglashtirish kerak; kasbni tasodifiy holatga umid qilgandan ko‘ra, uni tanlash afzaldir; kasbni, mutaxassis maslahati bilan va yaxshi o‘ylab ko‘rib, ishonch xosil qilgan holda tanlash kerak;

Byuro

Kasblarni tizimlashni muhim muammosi - bu kasbni tavsiflovchi ma’lumotlarni to‘plash usullaridir. Ularga kuzatish, faoliyatini mustaqil bajarishi (mehnat metod), ishchilar bilan savol-javob, ish-joyidan kuzatuvchi hamda savol-javoblardan iborat. Chet elda qiziqishlar, shaxs qobiliyatlari va temperament xususiyatlarini hisobga olish asosida kasblarni tizimlashi keng tarqalgan. Avvalambor Dj.Xolland tomonidan 1966 yilda ishlab chiqarilgan kasblarni tizimlashishni ajratish mumkin. Uning mohiyati psixolog konsepsiyasiga asoslangan bo‘lib, ushbu konsepsiya shaxs nazariyasini kasb tanlash nazariyasi bilan birlashtiradi. Yo‘nalishning asosiy komponentlarini o‘rganish asosida Dj.Xolland shaxsning kasbga yo‘naltirilgan turlarini ajratadi:

- realistik;
- intellektual;
- ijtimoiy;
- konvensional ya’ni, umumiy qabul qilish mezonda va an’analarga asoslangan ishbilarmonlik va badiiy qobiliyatlar va boshqalar

Har bir shaxs turi ma’lum kasbiy muhitga yo‘naltirligan idealistik tur - moddiy buyumlar yaratishga texnologik jarayon va texnik qurilmalar, iqtidor - aqliy mehnatga, ijtimoiy - iqtisodiy mehnat bilan o‘zaro aloqaga, konvensional aniq tuzilgan faoliyatga, ishbilarmonlik - odamlarga rahbarlik va badiiy - ijodga. Har bir shaxs turi modeli quyidagi sxema bo‘yicha tuziladi: maqsadlar, qadriyatlar, qiziqishlar,

qobiliyatlar, istalgan kasbiy rollar mumkin bo‘lgan yutuqlar, karera va boshqalar.

Pedagogik amaliyotda E.A.Klimov tomonidan ishlab chiqilgan kasblar tuzilmasi keng tarqalgan.

Mehnat obe’ktiga ko‘ra 5 ta kasb turlari ajratiladi.

1. Inson - tabiat. Bu tur namoyondalari o‘simlik va hayvonot mikroorganizmlar va ular yashash sharoitlari bilan ishlashadi. Masalan, meva - sabzavot ustasi, agranom, zootexnik, veterenar, mikrobiolog.

2. Inson - texnika. Ishchilar jonsiz texnik mehnat ob’ektlari bilan ishlashadi. Masalan, texnik, mexanik, muxandis mexanik, muhandis elektrik, texnik texnolog va hokazo.

3. Inson – inson. Bunda ijtimoiy tizimlar, axloqiy guruhlar, turli yoshdagi insonlar bilan ishlash nazarda tutiladi. Masalan, oziq - ovqat mahsulotlarini sotuvchisi, sartarosh, shifokor, o‘qituvchi va boshqalar.

4. Inson - belgilar tizim. Tabiiy va sun’iy tillar, shartli belgilar, ramzlar, raqamlar, formulalar kasb turi namoyondalarini qiziqtiruvchi predmetlar olami va boshqalar. Masalan, dasturchi, chizmachi - kartagraf, matematik, tilshunos, nashriyot muqarriri.

5. Inson - badiiy obraz. Hodisalarni badiiy aks etishi dalillari - mana shu narsalar bu kasb turi vakillarini qiziqtiradi. Masalan, rassom dekarator, rassom - restavrator, musiqa asboblarini sozlovchi, balet artisti, konsert ijrochisi, aktyor va boshqalar.

Bu beshta kasb turlari maqsadlar belgisiga ko‘ra 3 ta sinfga bo‘linadi.

Asosiy ish qurollariga ko‘ra har qaysi sinf doirasida 4 ta bilimni ajratish mumkin.

1. Qo‘l mehnati kasblari;
2. Mashina qo‘l mehnati;
3. Avtomatlashgan va avtomatik tizimlar qo‘llanishi bilan bog‘liq kasblar;
4. Funksional ish quroli bilan bog‘liq kasblar.

Mehnat sharoitlariga ko‘ra, E.A.Klimov kasblarni 4 guruhga bo‘ladi. Maishiy mikroiqlimga xonakiga yaqin ish. Har xil ob-havo sharoitida ochiq havoda bo‘lish bilan bog‘liq kasblar agranom, payvandchi, avtonazorat inspektori. Odatiy bo‘lmagan sharoitlarda balandlikda, suv tagida, er tagida baland past darajalarda ishlash: havvos, o‘t o‘chiruvchi va hokazo. Insonlar sog‘ligi, hayoti uchun yuqori mas’uliyat sharoitida ishlash: moddiy qadriyatlar, bolalar boxchasi tarbiyachisi, o‘qituvchi, tergovchi. Shartli belgilarni qo‘llagan holda, kasblar dunyosi “xaritasini” va ma’lum kasbning na’munaviy formulasini tuzish mumkin. Bu formula real kasbga nisbatan ham orzudagi kasbga nisbatan ham, qo‘llanishi mumkin.

1. Mening kasbim
2. Kasblar guruhlari
3. Kasblar bo‘limlari
4. Kasblar sinflari
5. Kasblar turlarini sinflash

Bu kasbga yo‘naltirish ishlari uchun mo‘ljallangan. Bu tasniflashni o‘rganib chiqqan V.E.Govrilov ijobiy tomonlari bilan birga kamchiliklarini ham ko‘rsatib berdi. Masalan, bir guruhdagi kasblar ishchiga qarama - qarshi talablarni oldiga qo‘yuvchi komponentlarni o‘z ichiga oladi, bu esa kasbga layoqatlilik belgilarini aniqlashni qiyinlashtiradi. Tasniflashning yana bir kamchiligi shundaki, kasblar olami nihoyatda o‘zgaruvchan, shunga ko‘ra kasblarning mehnat mazmuni ham o‘zgaruvchan xususiyatga ega. Bu esa kasblarni

tizimlashga nisbatan noaniqlikni keltirib chiqaradi va kasbiy tanlovni kasbiy maslahat jarayoniga kirishni qiyinlashtiradi. Ma’lumki, kasbiy ta’limning barcha kasblar bo‘yicha olib borib bo‘lmaydi va kasbiy faoliyat turlarining murakkablik darajasi, sharoitlari, vositalari, mazmuni juda farqlanadi. O‘quv kasblarning ma’lum belgilari, sifatlarini tasniflash va malaka darajalarini aniqlash bo‘yicha ilmiy asoslangan tanlov lozim. O‘quv kasblar ro‘yxati buning natijasi bo‘lishi kerak va shu asosda mutaxassislar tayyorlash shakllari aniqlanadi. Bu korxonalardagi qisqa muddatli tayyorgarlik, kasb maktablarida yoki oliy o‘quv yurtlaridagi o‘qish bo‘lishi mumkin. O‘quv kasblar ro‘yxatiga shuningdek, kasblarning tarqalganligi, og‘ir va zararli mehnat sharoitlari bo‘lgan ishlarga qarshi ko‘rsatmalar, shuningdek yoshdagi cheklashlar ta’sir etadi. Kasbiy ta’lim uchun o‘quv kasblar ro‘yxatini tanlash doimo dolzarb bo‘ladi va albatta bu ro‘yxat ilmiy asoslangan guruhlashga ega bo‘lishi kerak hamda kam sonli bo‘lishi lozim. 1920 yillarning ikkinchi yarmida rus psixotexniklari tez suratlarda kasbiy faoliyatning tamoyil va usullarini ishlab chiqdilar. Shu tadqiqotlarni umumlashtirishi natijasida psixotexnikada maxsus yondoshuv professiografiyani shakllanishiga olib keldi. Bu yondashuvning mohiyati – “kasblar tasviri” umuman olganda professiografiyani o‘rganish, kasbning psixologik tavsifi va loyihalashtirishini o‘z ichiga oladi. Professiografiyada ma’lum mehnat jarayonini tashkil etuvchi ob’ektlar belgilari, mehnat sub’ekti, mehnat predmeti vazifalari, vositalari va sharoitlari o‘rganiladi. Professiografiyaning asosiy tamoyillaridan biri kasbiy faoliyatni o‘rganishda differensial yondashuv tamoyili hisoblanadi. Bu tamoyilning mohiyati professiografiyaning aniq amaliy masalalarini echishga bo‘ysunishidir. Masalan, kasbiy konsultatsiya va kasbiy tanlov uchun shunday kasbiy muhim belgilarni ajratish kerakki, ular sinovdagilarning kasbiy layoqatiga ko‘ra farqlanishi lozim. Malaka darajasini aniqlash uchun mehnat vazifalari, kasbiy bilim, malaka, ko‘nikma tavsifi muhim ahamiyatga ega. Kasbiy toliqishni o‘rganish uchun shunday belgilardan foydalanildiki, ular yordamida kasbiy toliqishning keltirib chiqaradigan omillarini aniqlaydi. Shunday qilib, professiografiyaning differensial tamoyili kasbning o‘rganish usullarini uning tavsif, mazmuni, shuningdek, qo‘llanilish sohasi ya’ni professiografiya o‘tkazish xususiyatlari uning maqsadlari bilan belgilanadi. Professiogrammaning muhim tarkibiy qismi - psixogramma bo‘lib, u mutaxassisning motivatsion, iroda va emosional sohasining tavsifi hisoblanadi. Psixogramma - kasbning psixologik portreti bo‘lib, u

aniq kasbda dolzarb bo‘lgan psixologik funksiyalar guruhi bilan namoyon bo‘ladi. Professiografik tadqiqot metodlari. Kasbning ilmiy ta’siri, mehnatning (mehnat xulqi) tashqi ya’ni psixik jarayonlar ko‘rishini ya’ni, mehnat sub’ektining ichki vositalariga bo‘lgan integral psixologik tuzilmalarini nazarda tutadi.

Professiografiyada ko‘pgina turli-tuman usullar qo‘llanadi:

1) Ijtimoiy (so‘rovnomalar, savollar kiritilgan kuzatuv);

2) Psixologik suhbat kuzatuv tajriba va ulardan kelib chiquvchi intervyu, shaxsiy so‘rovnomalar testlar, tajribalar, psixobiografiyalar, faoliyat mahsulini o‘rganish metodi;

3) Fiziologik (EKG. KER qonda arterial bosimni o‘lchash antopometrik va texnik ma’lumotlar);

4) Texnologik jarayonlar ta’siri va boshqa usullar xilma - xilligidan vaqt, kuch va vaziyatlarni minimalligi bilan profesiogramma tadqiqotdagi savollarga javob beruvchi usullarni tanlash lozim.

Usullar kompleksini ishlab chiqishda tizimni tashkil etuvchi omil tadqiqot maqsadi muhim rol o‘ynaydi. Psixografiyalarni kasbga yo‘naltirish uchun ishlab chiqayotganda kasbning umumiy professiografik va ijtimoiy-psixologik ta’siriga katta e’tibor beriladi. Mehnat sharoitlaridan texnik, texnologik va ijtimoiy psixologik sharoitlari ancha chuqurroq o‘rganiladi. Tadqiqotlarning muhim yo‘nalishi bu shaxsning qobiliyatlari, psixofiziologik xususiyatlarini baholashdir.

Professiogrammalarning kasbga yo‘naltirish va kasbiy tanlov maqsadida ishlab chiqishda psixodiognostik tadqiqotlar juda muhim hisoblanadi. Qolgan tadqiqotlar o‘quv - kasb muassasalarida talabalar, o‘quvchilarni o‘qishga qabul qilinadigan shaxslar ishlashi lozim bo‘lgan sharoitlarni aniqlash uchun ahamiyatga ega. Ammo ular ham muhim hisoblanadi, chunki aniq majburiyatlarni va mehnat sharoitlarini bilmasdan, kasbga yo‘naltirish, kasbiy yo‘nalganligini tashkillashtirish va kasbga nisbatan layoqatini aniqlab bo‘lmaydi. Ta’limga yo‘naltirilgan professiografiyalash - asosiga kasb sub’ektligi haqidagi g‘oya qo‘yiladi: kasb egasi, faoliyatning haqiqiy sub’ekti bo‘lib, unga bir qator maxsus belgilar xos. Bu professiografiyalashning mualliflari uning mazmun - mohiyati va loyihalashtirish texnologiyalarini o‘rganib chiqishdi. “Kasb pasporti” bloki:

- kasb va mutaxassisliklar nomining modifikatsiyasi;
- kasbiy yo‘nalish;

- kasb maqsadi ta’lim darajasi haqida qisqa ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. “Kasbning asosiy ob’ekti” (sohasi) bloki kasb turi haqida ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. “Inson – tabiat”, “inson – inson”, “inson – texnika”, “inson - belgilar tizimi”, “inson badiiy obraz” va boshqalar. Bu blok mazmuni boshqa professiografiyalash bloklarining asosi hisoblanadi. “Kasbiy predmetli salohiyat” bloki ko‘p tizimli ta’lim sifatida kasbiy muhim tavsifini o‘z ichga oladi. Mutaxassis kasbi qaysi sohaga tegishli ekanini, qaysi asosiy ob’ektlarga yo‘naltirilgan, bu ob’ektlar qanday ob’ektlar, bu sohada mehnat natijasi yoki mehnat mahsuli qanday ahamiyatga egaligi haqidagi ma’lumotga ega bo‘lishi lozim. “Ijtimoiy kasbiy salohiyat” blokida shaxs ob’ektining quyidagi yo‘nalishlari aks etadi. Fikrlash potensialining rivojlanishi. Shaxsni o‘zini nazorat eta olish va rivojlantirish imkoniyatlari. Shaxsning muvaffaqiyat strategiyasiga yo‘naltirilganligi. Shaxsning bozor iqtisodiyoti sharoitida bardoshligi. Professiografiyada:

- Ekologik;
- Huquqiy;
- Iqtisodiy madaniyat masalalari ham nazarda tutiladi

Maxsus psixofiziologik talablar bloki - ishchining kasbiy faoliyati jixatdan psixofiziologik xususiyatlariga qo‘yiladigan talablarni aks ettiradi. Bunga tibbiy ko‘rsatmalar, jinsiga, yoshga bo‘lgan va sanitariya - gigienik talablar kiradi. Ayni paytda jahonda kasbga yo‘naltirish ishlarini natijaviylik asosida tashkil etish usullarining ilmiy asoslarini takomillashtirish, o‘quvchilarning kasbiy motivatsiyasini oshirishga doir o‘quv mashg‘ulotlarni joriy etish, kasbga yo‘naltirishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslanganlik, o‘quvchilarni kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlash, o‘quvchilarning o‘zlari qiziqqan kasblarda o‘z iqtidor va imkoniyatlarini erkin ro‘yobga chiqarishlari hamda uning o‘quv mazmunini, o‘qitish shakllari va texnologiyalaridan samarali foydalanish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Kasblarni tizimlashtirish deganda nimani tushunasiz?
2. Sizningcha kasblarni tizimlashtirish nima uchun kerak?
3. Kasbiy tipologiyada inson-inson yo‘nalishi bo‘yicha qanday kasblarni bilasiz?
4. Inson-tabiat yo‘nalishidagi kasb egalri uchun qanday bilimlar zarur?
5. Inson- texnika tipida insonlarning qaysi sifatlari kuchli bo‘lishi kerak?

6. Siz qaysi yo‘nalishdagi kasb vakilisiz?
7. Inson- belgilar tizimida kasb egallamoqchi bo‘lgan o‘quvchiga qanday maslahat bera olsaiz?
8. Inson-badiiy obraz yo‘nalishidagi kasb egalriga qanday qiyinchiliklar bor deb o‘ylaysiz?
9. Sizningcha qaysi kasb egalari o‘qib,izlanishdan to‘xtamasliklari lozim?
10. Kasbni mustaqil tanlash uchun nimalar kerak?

Tushunchalarga ta’rif bering:

• **Tizim-**
• **Inson-inson-**
• **Inson-badiiy obraz -**
• **Inson- texnika-**
• **Inson- tabiat-**
• **Inson-belgilar-**

Kasbiy motivatsiya va kasbiy qiziqishlar shkalasi. Xorijiy mamlakatlarda kasbga yo‘naltirish tamoyillari

Ilm va hunarsiz xalqning boyligi, eri va asbobi kundan – kun qo‘lidaketganidek, ahloq va obro‘yi ham qo‘ldan chiqar, hatto dini ham zaif bo‘lur.
Mahmudxo‘ja Behbudiy

Jahon psixologiya fanning nazariy mushoxadalariga va o‘zimizning shaxsiy ma’lumotlarimizga asoslanib, motivlarni quyidagi turkumlarga ajratishni lozim topdik.

1. Shaxsning ijtimoiy ehtiyojlari bilan uyg‘unlashgan, ularning mohiyati mezoni orqali o‘lchanuvchi motivlar:

1) dunyoqarashga taalluqli, aloqador bo‘lgan g‘oyaviy motivlar;

2) ichki va tashqi siyosatga nisbatan munosabatni aks ettiruvchi, shaxsiy pozitsiyani ifodalovchi siyosiy motivlar;

3) jamiyatning axloqiy me’yorlari, prinsiplari, turmush tarzi, etnopsixologik xususiyatlariga asoslanuvchi axloqiy motivlar;

4) borliq go‘zalligiga nisbatan extiyojlarda in’ikos etuvchi nafosat (estetik) motivlari.

2. Vujudga kelishi, shartlanganlik manbai bo‘yicha umumiylikka ega bo‘lgan, boshqaruv va boshqariluv xususiyatli motivlar:

keng qamrovli ijtimoiy motivlar (vatanparvarlik, fidoiylik,altruistik);
guruhiy, jamoaviy, hududiy, umumbashariy motivlar;

faoliyat tuzilishi, mohiyati va tuzumiga yo‘naltirilgan proyessualmotivlar;
faoliyat mahsulini bag‘olashga, maqsadga erishuvga mo‘ljallanganrag‘batlanuv, mukofot motivlari.

3. Faoliyat turlari mohiyatini o‘zida aks ettiruvchi motivlar:

1) ijtimoiy – siyosiy voqeliiklarni mujassamlashtiruvchi motivlar;

2) kasbiy tayyorgarlik va mahoratni o‘zida namoyon etuvchi motivlar;

3) o‘qishga, bilishga (kognitiv), ijodga (kreativ) oid motivlar.

4. Paydo bo‘lish xususiyati, muddati, muhlati, barqarorligi bilan umumiylikka ega bo‘lgan motivlar:

1) doimiy, uzluksiz, longityud xususiyatli motivlar;

2) qisqa muddatli, bir lahzali, bir zumlik va soniyalik motivlar;

3) uzoq muddatli, vaqt taqchilligidan ozod, xotirjam xatti – harakatlarni talab etuvchi motivlar.

5. Vujudga kelishi, kechishi sur’ati bioquvvat bilan o‘lchanuvchi motivlar:

1) kuchli, qudratli, ta’sir doirasidagi shijoatli motivlar;

2) paydo bo‘lishi, kechishi o‘rta sur’atli motivlar;

3) yuzaga kelishi, kechishi o‘rta sur’atli motivlar.

6. Faoliyatda, muomalada va xatti – harakatda vujudga kelishi xususiyati, xislati hamda sifatini aks ettiruvchi motivlar:

1) aniq, yaqqol, voqe bo‘luvchi real motivlar;

2) zarurat, yuksak talab va extiyojlarda ifodalanuvchi dolzarb motivlar;

3) imkoniyat (potensiya), zahira (rezerv), yashirin (latent) xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtiruvchi motivlar.

7. Aks ettirish darajasi, sifati nuqtai nazaridan ierarxiya vujudga keltiruvchi motivlar:

1) biologik motivlar;

2) psixologik motivlar;

3) yuksak psixologik motivlar.

O‘qish motivlari muammosini tadqiqot qilgan jahon psixologlari ularni ikki kategoriyaga yoki guruhga ajratib tekshirishni lozim topadilar. Birinchi kategoriyaga taalluqli motivlar o‘quv faoliyatining mazmuni, mohiyati hamda uning jarayonlari, sharoitlari bilan bevosita uyg‘unlashganligidir. Ikkinchi kategoriyaga kiruvchi motivlar tizimi o‘quvchilarning atrof – muhit bilan keng ko‘lamdagi o‘zaro munosatlariga ularning begona o‘zga kishilar bilan muomalaga kirishish extiyojiga ijtimoiy turmush voqeligiga nisbatan shaxsiy qarashiga bog‘liqdir.

O‘quv faoliyati mazmuni bilan uzviy bog‘liq motivlar tizimini shartli ravishda ikki guruhga ajratib ularni ijobiy (musbat, pozitiv) va salbiy (manfiy, negativ) deb nomlash mumkin. Bunda atamalarni qo‘llashdan asosiy maqsad mahalliy an’ana, ijtimoiy tajriba (stereotipizatsiya darajasidagi ta’sirchan kuli tashqi omil) ekstremal holat ta’sirida keskin ruhiy burilishlar yasashga qodir psixologik mexanizmlarni aniqlashdan iboratdir. Odatda salbiy (negativ) motivatsiya shunday vaziyatda vujudga kelishi mumkinki, qachonki o‘quvchi bilimlarni o‘zlashtirmasligi oqibatida qanday ko‘ngilsiz holatlarga olib kelishini anglab etsa (jazolonish, ota – onalar tanbehi, sinfdoshlar e’tirozi, yomon baho olish, jamoa a’zolari orasida obro‘sizlanish va boshqalar) va ana shunga muvofiq sa’yi – harakatlarni amalga oshirsa.

Salbiy motivatsiya ega bo‘lgan o‘quvchi kamroq jarayonida qatnashishda davom etadi. Bunday o‘qish motivatsiyasiga aloqador

o‘quvchilar yuqori ko‘rsatkichlarga muvaffaqiyatli o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lmaydilar, chunki ishtiyoqsiz darsga qatnashish tuyg‘usi, bilim va o‘quv predmetiga nisbatan qiziqishnin mavjud emasligi bunga ma’noviy to‘siq bo‘lib xizmat qiladi. Buning natijasida o‘zlashtirmovchi, bo‘sh o‘zlashtiruvchi, sust o‘quvchilarning safi tobora kengayib boradi, bu narsa kundalik odatga aylanib borsa, u stereotip darajasiga o‘sib o‘tishi mumkin.

Mustaqil va muvaffaqiyatli o‘qish esa shaxsdan faol, qat’iy, ijodiy izlanishlarni taqozo qiladi va shunga o‘xshash talablarni o‘zlashtiruvchi oldiga qo‘yadi. Shaxsning mazkur holatlarga tayyor emasligi, undagi imkoniyatlarning cheklanganligi sababli o‘zlashtirmovchilar qatorini to‘ldirishga, bir sinfda yoki kursda ikki yil o‘qishga olib keladi, o‘sha qiyinchiliklar bilan o‘z sinfi, kursini tamomlaydi. Bunday toifadagi o‘quvchilar yoki talabalar o‘quv faoliyati motivatsiyasini qayta qurish evaziga ijobiy natijalarga erishishi mumkin. O‘quvchilar va talabalarda o‘qishga nisbatan salbiy motivatsiya birdaniga vujudga kelmaydi, balki uni keltirib chiqaruvchi bir necha xususiyatli omillar ta’sir etishi ehtimoli bor. Ma’lumki, birinchi sinf, kollej, akademik litsey o‘quvchilari, oliy maktab talabalari o‘ta kuchli xohish, qiziqish yuksak ezgu nyatlar bilan sinfga va auditoriyaga kiradilar. Ularning barchasida tevarak – atrof va ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini o‘quvchi va talaba sifatida egallash ehtiyoji mavjud bo‘lib, yangi vaziyatda muayyan faoliyatni amalga oshirish ishtiyoqini keltirib chiqaradi. Yangicha vaziyat, o‘ziga xos talab, qoidaar, munosabatlar muhitidagi xoh birinchi sinf o‘quvchisi, xoh kollej tinglovchisi, xoh tlaba bo‘lishidan qat’i nazar ularning har qaysisi o‘qishga qiziqib, mas’uliyat sezib, vijdonan, ijobiy munosabatda bo‘ladi. Ammo, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ayrimlarida o‘qishga nisbatan ijobiy munosabat asta – sekin so‘na boshlaydi. Yangi muhit, ilm dargohidagi majburiyatlar, pozitsiyalar, qonun – qoidalar o‘z ahamiyati, nisbiy yangilik xususiyatini yo‘qota boradi, his – tuyg‘ularga serob, quvnoqlar davrasiday tasavvur etilgan sinf (auditoriya) g‘ayri tabiiy ko‘rinish kasb etadi.

O‘qishga nisbatan saboq oluvchilar munosabatini aniqlashga harakat qilgan o‘qituvchi qanday o‘zgarishlar yuz berayotganligini qayd qilish uchun ayrim mezonlarni ta’kidlay boshlaydi:

- xayolparishonlik vujudga keladi;
- vijdonan yondashish yo‘qoladi;
- boshqalardan ko‘chirib olishni odat qiladi;
- yolg‘on so‘zlash bahona qidirishga o‘rganadi;

- darslarni qoldiradigan bo‘lib qoladi;
- mustaqil topshiriqlarni bajarmay qo‘yadi va boshqalar.

O‘qituvchi yoki o‘quvchilar jamoasi yuqorida taxmin qilingan o‘quvchilardagi salbiy o‘zgarishlarga nisbatan an’anaviy tartib – intizom metodlarni tadbiq qiladi:

- ✓ kundaliklarga ogohlantirish yozish;
- ✓ ota – onlarga bu to‘g‘risida ma’lumot berish;
- ✓ sinf rahbari, maktab rahbariyatiga xabar berish;
- ✓ darsdan keyin olib qolib qattiq uyaltirish;
- ✓ bilim dargohidan haydash masalasini qo‘yish va hokazo.

Bunday aniq voqelik har qanday maktab, kollej, akademik litsey, oliy ta’lim tizimida yuz berib turadi.[9] Bizningcha jazo choralarini ko‘rishga shoshilishdan ko‘ra, mazkur “Muammoni keltirib chiqaruvchi omillar qaysilar?”, “Nega shunday hodisa yuz beradi?” degan savollarga javob qidirish odilona yondashuvdir. Jumladan, “O‘quvchilar va talabalar xulq atvoridagi o‘zgarishlarning qanday motivlari mavjud?”, “O‘qishga nisbatan o‘zgaruvchan munosabatni yuzaga keltiruvchi sabablar nimalardan iborat?”, “Sinfda (auditoriyada) va undan tashqari u yoki bu xatti- harakatlarni amalga oshirishga undovchi omil qaysi?” va boshqalar.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan munosabat va xulq- atvor motivlarini chuqur va mukammal o‘rganmasdan turib, pedagogik ta’sir o‘tkazish chora va tadbirlarini qo‘llash mumkin emas, chunki motivni turtki sifatida namoyon qiluvchi ichki tashqi ta’sirini aniqlamasdan, unga ilmiy yondashib bo‘lmaydi. Hozirgi zamon psixologiya fani bilimlarni egallashga nisbatan ichki extiyojga katta ahamiyat beradi va bu bilan shaxs xulq atvorini birmuncha boshqarish imkoniyati mavjud ekanligini ta’kidlaydi. Shuning bilan birga o‘quvchi (talaba) da barqaror bilishga qiziqishni shakllantirish muammosiga alohida e’tibor qilinadi. Darhaqiqat barqaror bilishga qiziqishlar qo‘zg‘atuvchi turtki (kuch) sifatida o‘quv motivlarini vujudga keltiradi, muvaffaqiyatni ta’minlashga xizmat qiladi. O‘quvchi yoki talabada bilimlarning muayyan sohasiga, u yoki bu faoliyat turiga qiziqishning tug‘ilishi ko‘p jihatdan shaxsni qay tariqa shakllanish imkoniyatini belgilaydi. Ana shu boisdan o‘qituvchi o‘z o‘quv faniga nisbatan o‘quvchi va talabalarda qiziqishni o‘stirish tarafdori bo‘lishi shart, chunki xuddi shuning negizida o‘quv materiali va o‘quv dasturini yuksak darajada o‘zlashtirish

[9] «Касбий психология» фани бўйича ўқув-услубий мажмуа. – Тошкент, 2013. – 153 бет. Мажидова Ш.А

muammosi yotadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, bilishga qiziqish motiv doirasida o‘sadi, o‘zaro ta’sir etadi, ular bilan uzviy bog‘lanib ketadi.

Ma’lumki, o‘quvchi bilim dargohida ilm olishdan tashqari tengdoshlari jamoasi ichiga kirib boradi va hayotida qatnashadi, shu boisdan unda o‘z o‘rtoqlari, o‘qituvchilarga nisbatan muayyan munosabat shakli vujudga keladi. Uning o‘quv faoliyatiga undovchi motivlari bilan bir qatorda boshqacha xususiyatli xulq atvor motivlari ham mavjuddir, jumladan ijtimoiy motiv jamoa bilan bo‘lish istagini anglatib, uning hayotida ishtirok etish xohishini o‘zida aks ettiradi.

O‘quvchi va talabalar o‘quv faoliyatining ijtimoiy motivlari ularning boshqa odamlar bilan muomalaga kirish ehtiyoji bilan uzviy bog‘liq bo‘lib ularni baholash, quvvatlash, tengdoshlar jamoasida muayyan joy egallash singari talablarda o‘z aksini topadi. Mazkur motivlar o‘quv faoliyatining mohiyati bilan bog‘liq bo‘lmay, balki unga yondash yordamchi faktorlarni bildiradi. Ammo ushbu motivlar o‘quvchi va talaba o‘qishiga jiddiy turtki vazifasini bajaradi.

Ijtimoiy motivlarni tahlil qilishda davom etsak, ular bevosita jamoa burchi, qarindoshlar va yaqin kishilar, oldidagi burch, o‘qishni umuminsoniy kishilar oldidagi burch, o‘qishni umuminsoniy kishilar oldidagi burch, o‘qishni umuminsoniy madaniyat, qadriyat, ma’naviyatni egallash tasavvur bilan bog‘liq vosita, ushbu vosita odamlarga foydali shaxs tariqasida namoyon bo‘lish, o‘z imkoniyatini ro‘yobga chiqarish. Ezgu niyatini ushatishga intilish funksiyasini bajarish bajarish mumkin. Turtki, undovchi usul vazifasini bajaruvchi qo‘zg‘atuvchi yosh xususiyatlari davriga qarab u yoki bu darajada aks etadi, ammo ular har doim ham anglashilgan shaklga ega emas, shuning uchun ifodalanish darajasi nursizdir. O‘smirlik va o‘spirinlik davrlarida ijtimoiy motivlar anglashilgan ahamiyat kasb etuvchi bosqichga o‘sib o‘tadi. Bunday motivatsiyasini har tomonlama qo‘llab quvvatlash, rag‘batlantirish bilan birga va har bir davrning o‘zida bilishga qiziqishga aloqador boshqa o‘quv faoliyati motivlari shakllantirish lozim. Ijtimoiy motivlar o‘quvchi va talabalar tor ma’nodagi shaxsiy intilishlari bilan ham aloqador bo‘lishi mumkin, jumladan, ularda o‘qishga nisbatan qiziqish yo‘q bo‘lsa-da, lekin barcha topshiriqlarni yuksak darajada bajaradi, chunki o‘qituvchi ularni “a’lo” baholashi, sinf yoki kurs peshqadami qilib tayinlashi, xech qanday shubha bilan qaramasligi ehtimol o‘quv jarayoni bunday xususiyatli odamlarga shaxsiy muvaffaqiyat yoki yutuqqa erishishning, (obro‘‘ – e’tibor) ning,

yalovbardorlikning birdan – bir yo‘li deb tasavvur qilinadi. Bunday yo‘lni tanlash vijdonga xilof xatti – harakatlarga olib boradi, shaxsni shakllanish jarayoniga salbiy ta’sir qiladi. Shu boisdan ijtimoiy deb qabul qilingan motivlar jamoa extiyojini qamrab oladi, goho ular shaxsiyatparastlik, tor saviyali shaxs xususiyatini mujassamlashtiradi. Ularning hayotida o‘z tengdoshlari va do‘stlari bilan muomalaga kirishish, do‘stlikka sodiqlik, bergan vada’si (so‘zi)ni uddasidan chiqish, hamkor bo‘lish extiyoji muhim o‘rin egallaydi. O‘qituvchi mashg‘ulotlari o‘quv faoliyatining zarur motivatsiyasini shakllantirsa, ularning mavjud ehtiyojlariga tayanib ish tutsa, o‘quvchida bilishga qiziqish barqarorlashadi. Shuning uchun qiziqish, motiv, motivatsiya shaxsning xatti – harakati ichki regulyasiyasi funksiyasini bajarib, ehtiyojni qondirish, xohish – istak, ezgu niyat, orzu tilakni amaliyotda ro‘yobga chiqarishning bosh omili bo‘lib hisoblanadi. Motiv va motivatsiya faqat bilimlarni o‘zlashtirish, o‘quv ko‘nikmalari va malakalarni egallash bilan cheklanib qolmasdan, balki shaxsning xulq atvori, ya’ni shaxsga oid xususiyatlarining namoyon bo‘lishini ham izohlashga xizmat qiladi. Maktab o‘quvchilarining, kasb – hunar kollejlarining tegishli kasb – hunar tanlashlariga quyidagi omillar ta’sir qilishini xulosa qilib berish mumkin: o‘qituvchi, kasb – hunarga yo‘naltiruvchi, sinf rahbari, mahalla, mexnat ta’limi o‘qituvchisi, fan o‘qituvchilari, bolalar etakchisi, to‘garak rahbarlari, kutubxona, xududiy mehnat bozori, psixolog, defektolog, shifokor, ota – onlar, qarindosh – urug‘lar, qo‘ni – qo‘shniolar, ideal qahramon obrazlari, tengdoshlar, ommaviy axborot vositalari, yaqin korxonalar va boshqalar. Psixologik ma’lumotlarga ko‘ra, har qanday faoliyat muayyan motivlar ta’sirida vujudga keladi va etarli shart – sharoitlar yaratilgandagina amalga oshadi. Shuning uchun ham ta’lim jarayonida o‘zlashtirish, egallash va o‘rganishni amalga oshirishni ta’minlash uchun o‘quvchilarda o‘quv motivlari mavjud bo‘lishi shart. Bilish motivlari shaxsning (sub’ektning) gnoseologik maqsad sari, ya’ni bilish maqsadini qaror toptirishga, bilim va ko‘nikmalarni egallashga yo‘naltiriladi. Odatda bunday turdosh va jinsdosh motivlar nazariy ma’lumotlarning ko‘rsatishicha tashqi va ichki nomlar bilan atalib, muayyan toifani yuzaga keltiradi. Tashqi motivlar jazolash va taqdirlash, xavf – xatar va talab qilish, guruhiy tazyiq, ezgu niyat, orzu – istak kabi qo‘zg‘atuvchilar ta’sirida vujudga keladi. Bularning barchasi bevosita o‘quv maqsadiga nisbatan tashqi omillar, sabablar bo‘lib hisoblanadi. Mazkur holatda bilimlar va malakalar o‘ta muhimroq boshqa hukmron (etakchi) maqsadlarni amalga

oshirishni ta’minlash vazifasini bajaradi (yoqimsiz holat va kechinmalar yoki noxush, noqulay vaziyatdan qochish, ijtimoiy yoki shaxsiy muvaffaqiyatga erishish; muvaqqat erishuv muddaosi mavjudligi va hokazo). Bu turdagi yoki jinsdagi tashqi motivlar ta’sirida ta’lim jarayonida bilim va ko‘nikmalarni egallash (o‘zlashtirish)da qiyinchiliklar keltirib chiqadi va ular asosiy maqsadni amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi. Masalan, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning asosiy maqsadi o‘qish emas, balki ko‘proq o‘yin faoliyatiga moyillikdir. Mazkur vaziyatda o‘qituvchining o‘qishga ularni jalb qilish niyati o‘quvchilarning o‘yin maqsadini ushalishiga halaqit berishi mumkin, lekin izoh talab dalillar etishmaydi.

Motivlarning navbatdagi toifasiga, ya’ni ichki motivlar turkumiga individual xususiyatli motivlar kiradiki, ular o‘quvchi shaxsida o‘qishga nisbatanindividual maqsadni ro‘yobga chiqaruvchi qo‘zg‘alish negizida paydo bo‘ladi. Chunonchi bilishga nisbatan individual maqsadni ro‘yobga chiqaruvchi qo‘zg‘alish negizida paydo bo‘ladi. Chunonchi bilishga nisbatn qiziqishning vujudga kelishi shaxsning ma’naviy (madaniy) darajasini oshirish uchun undagi intilishlarning etilishidir. Bunga o‘xshash motivlarning ta’sirida o‘quv jarayonida nizoloi ziddiyatlar holatlar (vaziyatlar) yuzaga kelmvydi. Albatta bunday toifaga taalluqli motivlar paydo bo‘lishiga qaramay, ba’zan qiyinchiliklar vujudga kelishi ehtimol, chunki bilimlarni o‘zlashtirish uchun irodaviy zo‘r berishga to‘g‘ri keladi. Bunday xossalarga ega bo‘lgan irodaviy zo‘r berishlar tashqi halaqit beruvchi qo‘zg‘atuvchilar (qo‘zg‘ovchilar) kuchi va imkoniyatini kamaytirishga harakat qilgan bo‘ladi. Pedagogik psixologiya nuqtai nazaridan ushbu jarayonga yondashilganda to‘laqonli vaziyatgina optimal (oqilona) deyiladi.

Ta’lim jarayonida bunday vaziyatlarni yaratish o‘qituvchining muhim vazifasi hisoblanib, uning faoliyati ichki anglanilgan motivlar o‘quvchilar xulq atvorini shunchaki boshqarish bilan cheklanmasdan, balki ular shaxsini shakllantirishga, ularda maqsad qo‘ya olish, qiziqish uyg‘ota olish va ideallarni tarkib toptirishga qaratilgan bo‘ladi.

Aniq narsalar, hodisalar va xatti – harakatlar insonning faolligi muayyan manbalar bilan uzviy bog‘lanishga ega bo‘lsa, uyg‘unlashib borsa faoliyat motivlari darajasiga o‘sib o‘tadi. Psixologiyada manbalar o‘z mohiyatiga ko‘ra turkumlarga ajratib talqin qilinadi.

Inson extiyojlari bilan belgilanuvchi ichki manbalar. Organizmning tabiiy extiyojlarini namoyon qiluvchi tug‘ma xususiyatli va jamoada shakllanuvchi ijtimoiy ehtiyojlarni vujudga keltiruvchi

orttirma xususiyatga ega bo‘lishi mumkin. Tug‘ma ehtiyojlar orasida o‘qishga nisbatan ma’no kasb etuvchi alohida ahamiyatga ega bo‘lgan faollikka nisbatan extiyoj va axborot, ma’lumot, xabarlar olishga extiyoj muhim rol o‘ynaydi.

Motivga genetik yondashilganda shu narsani alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, bola tug‘ilgandan e’tiboran bevosita faollik ko‘rsatishga moyillik hukm suradi:

- u kuladi (noverbal muomala shakli),
- qimirlaydi (fazoda o‘rin almashish),
- qo‘l va oyoqlarini harakatlantiradi (moslashish),
- o‘ynaydi (muhim bola munosabati),
- gaplashadi (shaxslararo munosabatga kirishish),
- savollar beradi (dialogik muloqot va boshqalar).

Unga o‘xshash xatti - harakatlarning o‘zi ularni qoniqtiradi, voqelikni insonning axborotlarga nisbatan extiyojini tajribalarda ko‘rsatish mumkin: agar tekshiriluvchini ma’lum vaqtga tashqi olamdan ajratib qo‘yilsa, natijada uning irodasida, xissiyotida intellektida buzilish sodir bo‘lishi, zerikishi, irodaviy akt tizimi yo‘qolishi fikr yuritish jarayonining parchalanishi, illyuzion, gallyusional holatlar chrashi mumkin.

Ijtimoiy turmush sharoitida faollik va informatsion taqchillik odamlarni salbiy his – tuyg‘u vakechinmalarga olib keladi, faoliyat tuzilishi va uning dinamikasiga putur etkaziladi. Ijtimoiy turmushda shakllanuvchi extiyojlar orasida o‘quv faoliyatida muhim rol o‘ynovchi va uni kuchaytiruvchi ijobiy xususiyatli ijtimoiy va gnostik ehtiyojlar alohida ahamiyat kasb etadi, shaxsni kamol toptirish jarayonida hukmron voqelikni egallaydi. Ularning turkumiga bilimlarga nisbatan extiyoj, jamiyatga foyda keltirishga intilish, umumbashariy yutuqlarga erishishga intilishkabilar kiritiladi.

Inson hayoti va faoliyatining ijtimoiy sharoitlarida aniqlovchi tashqi manbalar. Bunday manbalarning talabchanlik, orzu (kutish) va imkoniyatlar tashkil etadi. Jumladan, talabchanlik insonga faoliyat va xulq atvorning muayyan turini hamda shakli (ko‘rinishi) ni taqozo etadi. Mazkur holatni quyidagi mulohazalar yordamida izohlash mumkin: ota – ona boladan ovqatni qoshiqda eyishni, stulda to‘g‘ri o‘tirishni, “rahmat” deyishni talab qilsa, maktab o‘quvchidan ma’lum belgilangan vaqtda darsga etib kelishni, o‘qituvchilarga quloq solishni, berilgan vazifalarni bajarishni qat’iy belgilaydi. Jamiyat esa hulq, fe’l – atvor

orqali ma’lum axloqiy me’yorlar va qoidalarga rioya qilishni, shaxslararo muomalaga kirishish shakllari (vositalari) ni egallashni hamda aniq vazifalarni bajarishga amal qilishlarini o‘z fuqarolariga o‘rgatadi.

Psixologiya fanining atamalari mohiyatida orzu yoki kutish jamiyatning shaxsga nisbatan munosabatini ifodalash mexanizmi yotadi. Etnopsixologik streotiplarda uyg‘unlashgan xulq atvor belgilari va faoliyatning shakllari o‘ziga xoslikka ega. Odatda odamlar 1 yoshli bola tik yurishi kerak, deb hisoblaydilar va ular bu tuxfani boladan kutganligi tufayli unga alohida munosabatda bo‘ladilar. Psixologiyada kutish tushunchasi talabdan farqli ravishda, faoliyat yuzaga kelishi uchun umumiy muhit yaratadi.

Imkoniyatlar to‘g‘risida fikr yuritilganda ma’lum faoliyatning kishilar irodasi bilan bog‘liq (iroda akti, sifati, prinsipi) ob’ektiv shart sharoitlarni o‘zida aks ettiradi. Agarda odamlarning shaxsiy kutubxonasi boy bo‘lsa, ularning o‘qish imkoniyati yuqori darajaga ko‘tariladi. Kishilarning xulq atvori psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinganda, ko‘pincha ularning ob’ektiv imkoniyatlaridan chiqib, unga yondashiladi. Agarda bola qo‘liga tasodifan biologiya kitobi tushib qolsa, uning shu predmetga nisbatan qiziqishi ortishi kuzatiladi.

Shaxsiy manbalar – odamlar qiziqishlari, intilishlari, ustanovkalari va dunyoqarashlari jamiyat bilan munosabatini aks ettirishdan iboratdir. Inson faolligining manbai – qadriyat orqali ifodalanib, shaxs statusi (roli) da egallana boriladi. Ma’lumki, insonlar tabiatdan biror-bir faoliyat bilan shug‘ullanmasdan turolmaydilar. Inson nafaqat iste’molchi balki yaratuvchi bo‘lib, yaratish jarayonida u ijoddan ilhom oladi. Bu guruhga mansub motiv jamiyat tomonidan ehtiyojlarning qondirilishi va boshqalarning hurmatini qozonish bilan bog‘liq. Maktab o‘quvchilarining mehnat tarbiyasi ham shu motiv bilan bog‘liq ravishda shakllantiriladi. Mehnat faoliyatining umumiy motivlari yuqorida aytib o‘tilganidek, aniq kasblar doirasida amalga oshadi. Kasb tanlash anchagina qiyin va motivatsion jarayondir. Axir shaxsning to‘g‘ri kasb tanlashi ko‘pincha insonning hayotdan qoniqishga ham sabab bo‘ladi. Insonning qaysi faoliyatini tanlashi ko‘proq tashqi omillar haqidagi qarorning qabul qilinishi jarayoni haqida to‘xtalishi muhimdir. Bu asosan tashqi holat baholariga, o‘zining imkoniyat va qobiliyatlariga, kasb tanlashdagi qiziqish va moyilliklariga bog‘liqdir. Tashqi holatini baholash, ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan omillar, o‘zida ishlab topiladigan pul miqdori, imtiyoz, taklif etilayotgan korxona, muassasaning yashash

joyiga yaqin bo‘lishi, transpot aloqalarining qulayligi, ish joyi estetikasi va ishlab chiqarishning zararli tomonlari, jamoadagi psixologik iqlim, maqtov va tartibga chaqirish kabilarni qamrab oladi. O‘z imkoniyatlarini baholash sog‘lomligi, ishga yaroqliligi, kasbi bo‘yicha muhim sifatlarga egaligi, bilim darajasi, stresslarsiz ishga moyilligi, yuqori shovqinli ishda talab etilgan temp va xotirjam ritm bilan ishlay olish imkoniyati kabilarni o‘z ichiga oladi. Qiziqishlarga mos ravishda tanlangan ish joyini baholash, ayni vaqtda ishlayotgan muassasasi, korxonadagi imkoniyat to‘siqlari, ishniboshqarish, kasbiy o‘sish, tashabbusning paydo bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Ba’zan qiziqish bo‘yicha ish joyini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ish joyini va kasbni tanlash motivlari E.S.Chuchunay tomonidan klassifikasiya qilingan. U kasb motivlarini quyidagilarga ajratadi:

1) Dominant (kasbga qiziqishning ustun turishi).
2) Vaziyat bilan bog‘liq (har doim insonni qiziqtirib kelgan shart sharoitlarni ro‘yobga chiqarish).
3) Komformist.
4) Kasbiy motivatsiyalar (o‘ziga yaqin ijtimoiy olamning ya’ni yaqinlarini, do‘st va tanishlarining maslahatlari bilan).

L.I.Bamburova musiqa ijrochilik kasbini tanlashga sabab bo‘luvchi omillar sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatadi:

- ☺ Ijod va musiqa ijro etishga bo‘lgan qiziqish.
- ☺ Musiqadan zavqlanishga bo‘lgan ehtiyoj.
- ☺ Musiqa asarlarini ijro etishda o‘zi tashabbus ko‘rsatishga intilish.
- ☺ Tinglovchilarning qadriyatini ko‘tarish
- ☺ ularga rohat baxsh etish hohishi.

Albatta yuqoridagilar musiqa ijrochilik faoliyatining to‘liq motivlari emas. Ular faqatgina musiqachilik faoliyatini boshlashga olib keladi. A.P.Vasilev tibbiyot xodimi kasbini tanlashning quyidagi asosiy motivlarini keltirib o‘tadi:

1) Insonlarni davolash istagi.
2) Og‘ir kasalliklar, qariya, yosh bolalarni og‘riqlardan xalos etish istagi.
3) O‘z yaqinlarining sog‘lig‘i haqida qayg‘urish imkoniyati.
4) Ilmiy tibbiyot muammolarini hal etish.
5) O‘z sog‘lig‘i haqida qayg‘urish.
6) Moddiy qiziqishlar.

Ongli ravishda kasb tanlash insonning ijtimoiy mavqei bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Bunday sharoitilarda atrofdagi insonlarning kasb tanlovchiga bildirgan fikrlari ham muhim ahamiyat

kasb etadi. Kasblarning turlariga qarab tanlanganda, avvalo, kasb egasi aynan shu kasbni qalban ado etishi, burch va ma’suliyatni o‘zida singdira olishi kerak bo‘ladi. Agar inson uchun asosiysi ijtimoiy nufuz hisoblansa, unda kasb hozirda mavjud bo‘lgan qoidalar, shuningdek, jamiyatdagi nufuzli kasblardan kelib chiqib tanlanadi. Ko‘pchilik kasb tanlayotganda bu kasb ularga qanchalik moddiy rag‘bat keltirishiga tayanadi. Insonlar orasida qiziqishlari tufayli kasb tanlovchilar ham bo‘ladi va bu qiziqish kamdan-kam hollarda romantik xarakter kasb etadi. Kasb mansabga intilish asosida, haqiqiy tashqi taassurotlar zamirida, ota-ona, va ta’lim jarayonidagi motivatsiya orqali tanlashi mumkin.

V.A.Kruteskiy o‘spirinlarda uchrash mumkin bo‘lgan motivlardan quyidagilarni alohida ta’kidlab o‘tadi:

-
- Vatanga foyda keltirish istagi;
-
- oilaviy an’analariga rioya qilishi;
- do’stlari va o’rtoqlaridan o’rnak olganligi;
-
- moddiy ta’minlanganlik;
- o’quv yurti ko’rinishining chiroyliligi

biror o‘quv faniga nisbatan o‘spirinning qiziqishi shaxsiy qobiliyatini ro‘kach qilib ko‘rsatish;

ish joyining va o‘quv yurtining uyga yaqinligi;

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, ilk o‘spirinlik davrida kasbiy motivlarning shakllanishi bir qator tashqi va ichki omillarga bog‘liq. Shuningdek, kasb tanlashga bo‘lgan intilish ishtiyoqlar negizida kasbiy motiv va motivatsiya shakllanadi. Aynan xorij psixologlari kasbiy motivlar tarkibini ishlab chiqishda kasb tanlashgacha bo‘lgan va kasb tanlab bo‘lgandan keyingi jihatlarini ko‘rsatib o‘tadilar. Yoshlarni kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlash bo‘yicha mavjud adabiyotlarning o‘rganilishi, bu muammo turli mamlakatlarda o‘ziga xos milliy xususiyatlar va ijtimoiy-iqtisodiy muhitdan kelib chiqib anchagina farq qilishi kuzatildi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlardagi, yoshlarni kasbga yo‘naltirish ijtimoiy-iqtisodiy hamda milliy an’ana sifatida davlat tomonidan tartibga solinadi. Bu tajribaning qay darajada samarali ekanligini ta’lim sifatida va tayyorlanayotgan kadrlarning kompetensiya darajasida ko‘rish mumkin.

AQShda kasbga yo‘naltirish ishlari XX asrning boshlarida shakllana boshladi.

Bu davrda, mamlakatda sanoat ishlab chiqarish tez o‘sishi jarayonida bo‘lganligi sababli, umumiy ta’lim va maxsus malakali kadrlarga bo‘lgan talab ham ortgan edi. Bu muammoni hal qilish uchun, 1908 yilda Boston shahrida F.Parsons tomonidan shahar maktablari o‘quvchilari uchun birinchi kasbga yo‘naltirish maslahat byurosi tashkil etiladi. Byuroning faoliyati kasbga yo‘naltirishni boshlanishi hisoblangan.

Uning vazifasi to‘g‘ri kasb tanlashda o‘quvchilarga maslahat berishdan iborat edi. O‘quvchilar tavsiyalarni o‘tkazilgan so‘rovnomalar va test natijalari asosida olganlar. Shu bilan birga yoshlarning haqida ma’lumotlar, muayyan kasb talablariga mos holda qilingan.

F.Parsonsning shaxs xususiyatlari va ishlab chiqarish omillarini hisobga olish zarurligi haqidagi g‘oyalar turli ta’lim muassasalarning o‘quv dasturlarida ham o‘z ifodasini topgandi. Kasbga yo‘naltirish shaxsga o‘zining shaxsiy sifatlarini va kasb xususiyatlarini o‘rganishga yordam berish bo‘lib, natija o‘quvchi tomonidan o‘z kasb yo‘lini oqilona tanlash bilan yakunlanishidir. Biroq F.Parsonsning g‘oyasi inson va uning kasbiy faoliyati biroz soddalashtirilgan ko‘rinishda aks ettirilgan. Bunda mehnat unumdorligi ishchining manfaatlariga bog‘liq bo‘lgan. So‘ngra, xuddi shunday byuro Nyu-Yorkda tashkil etilgan. Uning

vazifasi kasblar haqida yanada batafsil bilishlari uchun o‘quvchilar qanday talablarga javob berishlari lozimligini o‘rganish edi. Byuro maktab o‘qituvchilari bilan hamkorlikda so‘rovnoma va testlardan foydalangan holda ish olib borganlar. Byuroning bu tajribalari AQSH, Ispaniya, Shvetsiya, Shveysariya, Chexiya, Slovakiya va boshqa mamlakatlarda keng tarqalib borgan.

Byuro o‘z faoliyati davomida quyidagilarga amal qilishni ta’kidlaydi:

- kasb tanlash, turmush o‘rtoq tanlashdek ahamiyatga tenglashtirish kerak;
- kasbni tasodifiy holatga umid qilgandan ko‘ra, uni tanlash afzaldir;
- kasbni, mutaxassis maslahati bilan va yaxshi o‘ylab ko‘rib, ishonch xosil qilgan holda tanlash kerak;
- yoshlar ko‘p sonli kasblar bilan tanishib chiqishi lozim, birinchi uchragan yoki “qulay” bo‘lgan kasbni tanlashi kerak emas;
- maslaxatchi kasb tanlashda, shaxsning xarakter xususiyatlarini, kasb tanlash omillari va kasblar olami bilan yaqindan tanishib chiqqandagina uning ishi yaxshi natija beradi.

O‘tgan asrning 50-yillarida AQSHda A.Maslovning kasbiy rivojlanish konsepsiyasi hisoblangan nazariyasi ishlab chiqilgan, bunda shaxs o‘zi mustaqil kasb tanlashi kerak bo‘lgan, o‘quvchi o‘z qobiliyati mos kasbni o‘zi tanlashi va amaliyotda o‘zini ko‘rsata olish kerak. Bu konsepsiya S.Axelrod, S.Ginsberg, E.Ginsburga va boshqlarning ishlarida yanada rivojlandi va bu ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchilarga va o‘quvchilarning individual faolligiga ta’siri ahamiyatli bo‘lgan. D.Syuper konsepsiyasi asosida AQSH maktablarida kasbga yo‘naltirishni nazorat qilish yoki maslahat xizmati tartibi ishlab chiqilgan. Kasbga yo‘naltirish maslahatchisining tayinlanishi maktab davrida o‘quvchi bilan birgalikda uning kasbiy faoliyati sohasini tanlash rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish erishishga yordam berishdir.

AQSH maktablarida kasbga yo‘naltirish maslahat ishlari o‘quvchining maktab yillari davomida amalga oshiriladi. Kasbga yo‘naltirish maslahatlarini o‘quvchilarni qiziqtiradigan turli savollarga javob bera oladigan va turli masalalarda tavsiyalar berish imkoniyatiga ega, yosh psixologiyasini biladigan va tegishli tayyorgarlikka ega mutaxassis bergan. Maslahatchi-konsultant o‘quvchilarni kasblar olami va ularning egallash yo‘llarini bilan tanishtiradi. Ta’lim jarayonida o‘qituvchilar kasbga yo‘naltirish ishlarini muvofiqlashtiradilar va ota-

onalarga farzand-larining qiziqish va qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradilar.

AQSHda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishlari maktab xizmati bilan chegaralanib qolmaydi. Bu mamlakatda yoshlarni kasbga yo‘naltirish va bandligini ta’minlash tizimini yuritadigan davlat tasarrufidagi turli tashkilotlar mavjud bo‘lib, ularning faoliyati yuqori darajada tavsiflanadi. AQSH Konstitutsiyasiga ko‘ra, ta’lim masalalari federal hukumatning xizmat doirasi kirmaydi.

Har bir shtat ta’lim jarayonini tashkil qilish bilan bog‘liq masalalar yuzasidan mustaqil qaror qabul qiladi. Har bir shtat o‘z o‘quv reja va dasturlari ega. Barcha shtatlarning davlat boshqaruvi organlari hodimlaridan biri maktablardagi kasbga yo‘naltirish ishlarini muvofiqlashtirish bilan bog‘liq ishlarni bajaradi.

AQSHda yoshlarini kasbga yo‘naltirish ishlarini Mehnat vazirligiga bo‘ysunuvchi xususiy va davlat aholi bandligi xizmatlari (mehnat birjalari) ham bajaradilar. Aholi bandligi xizmatlari yoshlar va kattalar bandligini ta’minlashda test sinovdan o‘tkazish va maslahatlar berish bilan birga tadbirkorlarning talab va ehtiyojlari ko‘ra bo‘sh ish o‘rinlariga nomzodlarni aniqlash bilan ham shug‘ullanadilar.

AQSHda shuningdek, xususiy agentliklar keng tarqalgan. Ularning faoliyatini davlat hukumati nazorat qiladi. Davlat kasbga yo‘naltirish xizmatlaridan farqli o‘laroq, xususiy agentliklar pullik xizmat ko‘rsatadilar. Xususiy agentliklar xodimlari sotsiologiya, psixologiya yoki boshqaruv yo‘nalishilaridan birida diplomga ega bo‘lishi kerak.

Kollej va universitetlar o‘quvlari uchun ta’lim muassasalar xuzuridagi kasbga yo‘naltirish markazlari tashkil etilgan bo‘lib, ular yoshlarni nafaqat kasb tanlashga yordam beradilar, balki ularni mehnat faoliyatini yo‘lga qo‘yishga, butun hayoti va mehnat faoliyati davomida mustaqil qaror qabul qilishga ham o‘rgatadilar.

Yangi konseptual yondashuvga asoslangan kasbga yo‘naltirish ishlari turli ta’lim dasturlarida ham o‘z ifodasini topgan. Masalan, “maktabdan ishga” dasturi (1994 yil) orqali o‘quvchilar o‘z amaliy tajribalarida turli sohalar haqidagi tushunchalarga ega bo‘lishadi. O‘quvchilar firma yoki biror ishlab chiqarishda, mutaxassis nazoratida ishlab ko‘rish imkoniga ega. Bundan tadbirkorlar o‘zlari manfaatdordirlar. Ular jamiyatga kadr tayyorlashni nafaqat faxr hisoblaydilar, balki o‘z kompaniyasini kengaytirish va takomillashtirish uchun iqtidorli yoshlar orasidan zaxiralar tayyorlash uchun ham bu ishda qatnashadilar.

O‘quvchilarni kasb tanlashga tayyorlashning yana bir yo‘li bor. Maktabning so‘nggi ikki yili (11-12 sinflar) davomida kollej dasturi bo‘yicha akademik o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkaziladi. O‘quvchilarga mutaxassislar tomonidan laboratoriya va ishlab chiqarishda turli amaliy vazifalarni bajarishlari uchun individual dasturlar ishlab chiqiladi. O‘quvchilar tomonidan dasturlarni erkin tanlanishi muayyan mutaxassisliklarni, qiziqish, bilimi va ko‘nikmalarini hisobga olgan holda tanlash imkonini beradi. Bu esa ta’lim jarayonida kasbiy yo‘lini o‘zi anglagan holda tanlash imkonini beradi.

AQSH asosiy ahamiyatni mehnat bozorini rivojlantirish istiqbollarining holatiga hamda kasbning shaxsga qo‘ygan talabi, ta’lim olish yo‘llari va imkoniyatlari haqidagi ma’lumotlar bazasiga qaratadi. Ma’lumotlar bazasidan foydalanish kasbga yo‘naltirish ishlarini sezilarli darajada samaradorligini oshirishga olib keladi.

Shunday qilib, AQSH kasbga yo‘naltirish tizimining ishi maktab yoshidagi o‘quvchlardan tortib to katta yoshdagi aholi kasbni mustaqil tanlashini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan. So‘nggi yillardagi yangi axborot texnologiyalarni kirib kelishi bilan inson hayotida o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu esa, mamlakatning iqtisodiy o‘sishiga hissa qo‘shdi.

Buyuk Britaniyaning kasbga yo‘naltirish ishlarini tashkil etilishi. Bu mamlakatda, yoshlar bandligiga ko‘maklashish xizmati XX asrning boshida ochilgan bo‘lib, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitning o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan va mehnat bozori o‘zgarib, mavjud kasblarning eskrishi kuzatilgan hamda malakali xodimlarga bo‘lgan talab o‘sib borgan. Mamlakat ishchilarini ishga joylashtirishni tashkil etilishi bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy yo‘qotishlar qoniqarsiz darajada bo‘lishi jamiyatda doimiy ijtimoiy tanglikni keltirib chiqishiga sabab bo‘lgan. Bu holat, ayniqsa, ishsizlik bilan aziyat chekayotgan yoshlarga ta’siri kuchliroq bo‘lgan. Shu munosabat bilan, 1909 yilda hukumat, davlat mehnat birjalari doirasida yoshlarni ishga joylashtirish bilan shug‘ullanuvchi maxsus byurolari tashkil etilgan. Mehnat birjalari tarkibida umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun kasbga yo‘naltirish xizmatlari tashkil etilgan. Mazkur xizmatlar, 16 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilarga yordam ko‘rsatgan, mehnat birjalari tarkibidagi yoshlarni bandligini ta’minlash byurosi esa 19 yoshdan o‘quvchilarga kasb tanlashda yordam ko‘rsatgan.

Mamlakatda kasbga yo‘naltirishning ikki yo‘nalishdagi tizimi uzoq vaqt davomida saqlanib turdi. Faqatgina XX asrning 60-yillarida, davlat, maktabning kasbga yo‘naltirish xizmati va kattalar bandligini ta’minlash

tizimini birlashtirish bilan mavjud tizim o‘zgartirishga qaror qildi. Lekin, bu qaror kasbga yo‘naltirish sohasidagi ko‘pchilik o‘qituvchi va mutaxassislar tomonidan ma’qullanmadi. Shu munosabat bilan 1973 yilda, kasbga yo‘naltirish ishlari nafaqat maktablarda, balki kollej va universitetlarida ham amalga oshirilishi kerak, degan, maxsus qonun qabul qilingan. Shu qarorga asosan, kasbga yo‘naltirish ishlari ta’limning barcha bosqichlarida amalga oshirila boshladi.

Maktab va boshqa o‘quv yurtlarida asosiy kasbga yo‘naltirish ishlarini professional maslahatchilar tomonidan amalga oshirilgan. Ularning asosiy vazifasi, o‘quvchilarni qiziqishlarini, qobiliyatini aniqlash va kasb tanlash bo‘yicha ularga maslahat berishdan iborat bo‘lgan. Ularning ishlari diagnostik yondashuvga asoslangan xolda tashkil etilgan. Ular qiziqishlarini aniqlashga doir savolnomalar, turli testlar (qobiliyatini, shaxs sifatlarini aniqlash testlari va h.k.) ishlatganlar. Biroq, diagnostik yondashuv o‘quvchilar faoliyatini aniqlashga to‘sqinlik qilgan.

1970 yillarda kasbga yo‘naltirish ishlarini rivojlanayotgan jarayonini hisobga olib, yangi konseptual yondashuv shakllantirilgan. Ko‘proq e’tibor maktab ta’limning barcha bosqichlarida o‘quvchining o‘z faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan. O‘quv jarayoniga, kasbga tayyorlashning umumlashgan variantli dasturlari joriy etilgan, lekin bu dasturlar orqali o‘quvchilar qat’iy kasb tanlash ko‘nikmalariga yo‘naltirilmagan. Shuning uchun o‘quvchilar o‘z kuchlarini bir necha kasblarda sinab ko‘rishlari mumkin bo‘lgan. Bunday yondashuv o‘quvchilar mavjud kasblar bilan yuzaki tanishganlari uchun ham to‘liq tan olinmadi, chunki o‘quvchilarda maktabni tamomlagach muvaffaqiyat bilan mehnat qilish imkoni bo‘lmadi. Shuning uchun, kasbga yo‘naltirish sohasida konseptual yondashuvlar qayta ko‘rib chiqildi va e’tibor o‘quv jarayoniga qaratildi. Professional kasbiy tayyorgarlik ta’lim sohasidagi umumiy ta’lim tayyorgarlik yo‘nalishlaridan biri sifatida hisobga olingan edi. Ta’lim jarayoniga muayyan kasblar bo‘yicha kasbiy ko‘nikmalar va o‘quvchilarning shaxsiy fazilatlarini rivojlantiruvchi, o‘quvchilarni kasblar bo‘yicha fikrlash doirasini kengaytirish uchun kurslar kiritilgan.

Ta’lim va mehnat faoliyati qat’iy cheklanmagan bo‘lib, kasbga yo‘naltirish ishlari keng o‘rganilib chiqilgan va yoshlarga kasb tanlash haqida ongli qaror qabul qilishga yordam berishga mo‘ljallangan faoliyat turlari qabul qilingan.

Xususiy maktablarda shakllanib qolgan an’anaga ko‘ra, o‘quvchilarning kasb tanlashiga shaxsan maktab direktori javobgar bo‘lgan. U kasb tanlash bo‘yicha rahbarni tayinlaydi, uning ishi uchun zarur shart-sharoitlar bilan ta’minlaydi, muhokama qilish uchun ota-onalar hamda kasbga yo‘naltirish bo‘yicha xizmatlar va tashkilotlar bilan uchrashuvlar tashkil etadi.

Kasbga yo‘naltirish jarayonida o‘qituvchi-murabbiylarning ta’siri sezilarli darajada katta hisoblanadi. Ular o‘quvchilarning shaxsiy sifatlari va qobiliyatini yuzaga chiqishiga ko‘maklashadilar, o‘quvchilar tomonidan individual rejalarini bajarilishini nazorat qiladilar va o‘quvchilarga tavsiya beradilar. Kasb tanlashda, maslahatchi sifatida o‘quvchilarining kasbiy faoliyati, qobiliyati va imkoniyatlari haqidagi ma’lumotga ega o‘quv fani o‘qituvchilari ham ishtirok etadilar. O‘quvchilarning kasbga yo‘naltirishga qaratilgan pedagogik jamoaning faoliyati natijasida, yuqori sinf o‘quvchilarning juda oz qismigina kasbga yo‘naltirish xizmatlari yoki boshqa maktabdan tashkari tashkilotlar xizmatidan foydalanadilar.

Shunday qilib, Buyuk Britaniyada kasbga yo‘naltirishning vazifasi o‘quvchilarga kasb tanlashga yordam berishgina emas, balki mehnat bozori talablari doirasida o‘zlarini baholashga o‘rgatish. Shu bilan birga, kasbni mustaqil tanlashga va u yoki bu turdagi professional faoliyatida amaliy tajriba oshirishiga alohida e’tibor qaratiladi. Kasbga yo‘naltirish tizimi ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlariga muvofiq holda tez rivojlangan. Ta’lim va kasbiy yo‘lining tanlashga yo‘naltirish ishlari yagona va uzluksiz jarayon sifatida qaraladi. Kasbga yo‘naltirish ishlari maktabda o‘qish davrida amalga oshirilib boriladi va keyinchalik uning mehnat faoliyatini nazorat qilib boriladi. Buyuk Britaniya yoshlarini kasbga yo‘naltirish muammosiga alohida e’tibor qaratiladi. Germaniyada kasbga yo‘naltirish ishlarini tashkil etilishi. XX asrning 30-yillarida yoshlarni ta’lim va kasbiy sohalarga yo‘naltirish xizmatlarini taqdim etuvchi turli idora va agentliklar tashkil topgan. Ularning ish faoliyati, kasbga yo‘naltirish Markaziy boshqaruv xuzurida tashkil etilgan aholi bandligi va ishsizlikni sug‘urtalash institutining bo‘limi tomonidan muvofiqlashtiriladi. Kasbga yo‘naltirish xizmati xodimlari maktab bilan yaqindan hamkorlikda ish olib boradilar. Kasbga yo‘naltirish maqsadida tashkilotlar va ota-onalar bilan hamkorlikda so‘rovnomalar, test, konsultatsiyalar amalga oshiriladi.

O‘quvchilar, oilasi haqida umumiy ma’lumot, shaxsiy qiziqishlari, qobiliyatlari, kasbiy qiziqishlari va qaysi kasbda faoliyat olib

bormoqchiligi haqidagi “ish daftari”ni to‘ldiradi. O‘tkazilgan psixologik diagnostika testlar va shifokorlar, psixologlar, o‘qituvchilar bilan olib borilgan suxbatlarni hisobga olib, konsultant o‘quvchining qobiliyatlari haqida xulosa qiladi. Ish daftaridagi qo‘shimcha ma’lumotlar va test sinov natijalari kasbiy konsultatsiya uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Hozirgi paytda, kasbga yo‘naltirish tizimi umumiy kasbiy ta’lim korxonadagi samarali mehnatga asoslangan holda tashkil etilmoqda. Mehnat faoliyati davomida professional bilim va shaxsiy ko‘nikmalarini oshirish, uzluksiz ta’lim tizimining asosiy maqsadidir.

Uzluksiz ta’lim tizimi ham o‘quvchilarni kasbga moslashish jarayonini engillashtiradi ham mehnat bozori talabiga mos ta’lim bilan ta’minlaydi.

Fransiyada o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish rasman uchta model asosida tashkil etiladi. Birinchi model XX asrning 20-yillarida ishlab chiqilgan. Kasbga yo‘naltirish ishlari maktabning yakunlanish arafasida tashkil etilib, bunda o‘quvchilar ish beruvchilarni qidirish bilan tashkil etilgan. Bundan asosiy maqsad, salomatligi uchun zararli bo‘lishi mumkin tibbiy qarshiliklarni aniqlash bo‘lib, yoshlarning individual xususiyatlari va ularga ish beruvchilar tomonidan taklif etilayotgan kasb xususiyatlari orasidagi moslikni aniqlash.

Ikkinchi model XX asrning 60-yillarida ustuvor bo‘lib, uning asosini ta’limiy yo‘naltirish. Kasbga yo‘naltirish ishlari maktab tomonidan olib borilgan, yagona umumiy ta’lim jarayonini o‘z ichiga oladi.

Eng keng tarqalgan model esa uchinchisi hisoblanib, uning asosiy mohiyati o‘quvchining maktabga qabul qilinganidan boshlab to uning jamiyatga barqaror moslashishgacha bo‘lgan davrigacha pedagogik jamoa tomonidan ularni nazorat qilib, yo‘naltirilib boriladi.

Fransiyada, ta’limga va kasbga yo‘naltirish ishlari alohida olib boriladi. Ta’limga yo‘naltirishning asosiy vazifasi o‘quvchilarning qobiliyatlariga mos ta’lim yo‘nalishini tanlashda yordam berish. Kasbga yo‘naltirish ishlari esa o‘quvchilar amalga oshirishning real imkoniyatlarini hisobga olgan holda kasbiy rejalarni ishlab chiqishga bo‘lgan qobiliyatlari va imkoniyatlarini aniqlashga qaratiladi va shunday kasblar olami haqida ma’lumot berishdan iborat bo‘ladi. Kasbga yo‘naltirish ishlari o‘qituvchilar, psixologlar va kasbga yo‘naltirish xizmati maslahatchilari bilan birgalikda olib boriladi. Bu jarayon o‘quvchilarni kasbga yo‘naltiruvchi barcha ishtirokchilarning hamkorligi bevosita uzviylik tamoyillari asosida olib boriladi.

Yaponiyaning ham kasbga yo‘naltirish o‘ziga xosligi mavjud. Kasbga yo‘naltirishni tashkil etish ta’lim tizimining o‘ziga xos jihatlari bilan bog‘liqdir. Yaponiyada ta’limning asosiy maqsadlaridan biri bu – o‘quvchilarni kasbga tayyorlashda, o‘quvchilarni kasbiy rivojlanishga o‘rgatish, kelajakdagi, shaxsiy fazilatlariga mos va o‘zlari qiziqqan kasbiy rivojlanish yo‘llarini to‘g‘ri tanlay olish qobiliyatini o‘stirish hisoblanadi.

S.Fukuyama tomonidan o‘quvchilarni kasbni tanlashga tayyorligini shakllanishini baholovchi test ishlab chiqilgan. Bu test "B-test" (Rikiuata test) nom olgan. Muallif kasb tanlashning uchta asosiy omillar belgilaydi: a) o‘z-o‘zini tahlil qilish,

b) kasblarni tahlil qilish,

c) professional sinovlar (o‘zini kasblarda sinab ko‘rish).

O‘z-o‘zini tahlil qilish – o‘quvchilar o‘z xarakterini, intellektual qobiliyatini, mahoratini, jismoniy kuchini aniqlash imkonini beradi. Mazkur tahlil, (pedagog, psixolog, ota-onalar) kuzatuvi, o‘rganishi va ularning baholari natijasida o‘quvchi o‘ziga bergan baholarini hisobga olgan holda o‘z vaqtida to‘g‘ri yo‘nalishda ish olib borishlariga sabab bo‘ladi. Kasblarning tahlili – turli kasblarning xususiyatlarini va xodimlarga qo‘yiladigan talablarni ochib beradi. Kasbiy sinovlar – o‘quvchilarga mazkur kasbda tajriba orttirish hamda qobiliyati va ko‘nikmalarini uning tabiatiga mosligini aniqlash imkonini beradi.

Har yili yapon yoshlari tanlov asosida inson bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan (texnika, tabiat, belgilar tizimi, badiiy obraz) mehnat faoliyatlarida ishtirok etadilar. Maktab o‘quvchilari bir yilda 16 marta, uch yil davomida 48 marta o‘z bilim va ko‘nikmalarini sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. “B-test” dasturida – o‘z-o‘zini kasbiy sinovlar va ular tomonidan qo‘lga kiritilgan professional tajribalari qayd etilib boriladi. O‘z-o‘zini kasbiy sinovlar natijasida o‘quvchilar, tanlagan kasb bo‘yicha tayyorgarligi hamda mazkur kasb, xodimga qo‘yadigan talablari bilan tanishganlik va bilim, ko‘nikmalarga egalik darajasini hisobga olgan holda o‘zining individual xususiyatlarini, manfaatlari va intilishlariga solishtirish imkonini beradi.

Rossiyaning kasbga yo‘naltirish ishlaridagi tajribalari ham o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Rossiyaning ta’lim tarixida yoshlarni kasb tanlashga tayyorlash muammosini tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilgan va qaratilib kelmoqda. Boshqa mamlakatlarda bo‘lgani kabi, Rossiyada ham kasb tanlash muammosi ijtimoiy mehnatning taqsimlanishi va kasblar paydo

bo‘lishi bilan birga yuzaga kelgan. Lekin, XIX asr oxiriga qadar, kasb tanlashga ilmiy muammo sifatida e’tibor qaratilmagan, chunki odatda yoshlar o‘z qiziqish yoki qobiliyatlarini hisobga olmay, ota-onalari kasbini tanlashga moyil bo‘lganlar. Kasb tanlash jarayoniga ilmiy nuqtai nazarda e’tibor qaratilmagan. Shu bilan birga yoshlarga kasb tanlashga tayyorlash faoliyatlarini olib boruvchi tashkilotlar ham bo‘lmagan.

Bu holat, sanoat ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi va ko‘plab yangi ish o‘rinlari hamda tor doiradagi mutaxassisliklar paydo bo‘lgunga qadar davom etgan. Rossiyada kasbga yo‘naltirish ishlariga, asosan XX asr boshida e’tibor qaratila boshlagan.

Bu davrga kelib, kasbga yo‘naltirish xizmatining keng tarmog‘i ochildi, kasbga yo‘naltirish byuro va laboratoriyalar hamda turli ilmiy-tadqiqot institutlarida kasba yo‘naltirish metodologik muammolari bilan shug‘ullanuvchi psixotexnik laboratoriyalar tashkil etila boshlagan, ilmiy-tadqiqotlar metodlari rivojlantirildi, kasbga yo‘naltirish testlari ishlab chiqildi hamda kasbni mutaxassisga qo‘yiladigan talablari o‘rganila boshlandi.

Ko‘proq e’tibor, maktablardagi kasbga yo‘naltirish ishlariga, ayniqsa, tarbiyaviy ishlarga qaratildi. Ko‘pchilik o‘qituvchilar o‘qitayotgan o‘quv fanlari orqali kasbga yo‘naltirish ishlarini amalga oshirganlar. Yoshlarni kasbni mustaqil tanlashga tayyorlashni nazorat qilish uchun qisqa muddatli o‘quv kurslari tashkil etilgan. Pedagogik institutlari ayrim bo‘limlari (pedagogik va psixotexnik)da talabalarni kasbga yo‘naltirish maxsus tayyorgarlik ishlari boshlangan.

Keyingi yillarda, o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishga e’tibor oshdi, kasbga yo‘naltirish nazariyasi va amaliyoti yuzasidan tadqiqotlarni kuchayganini kuzatish mumkin. Uning quyidagi asosiy komponentlarini ishlab chiqildi: kasbiy tarbiya, kasbiy ta’lim, kasbiy maslahat, kasbiy tanlov, kasbiy moslashish. O‘quvchilarni mustaqil ravishda kasb tanlash muammolarini hamda kasbga yo‘naltirish shakl va metodlari tadqiq etildi. Maktab va korxonalar hamkorligini mustahkamlash hamda mehnat ta’limini rivojlantirish chora-tadbirlar ishlab chiqildi (E.F.Zeer, E.A.Klimov, N.S.Pryajnikov, S.N.Chistyakova, N.F.Rodichev, E.O.Cherkashin va boshq.). XX asr 70-yillarning oxiriga kelib, maktablar va maktabdan tashqari bolalar ta’lim muassasalarining asosiy faoliyati kasbga yo‘naltirish va kasblar haqida ma’lumotlar yig‘ish, kasb tanlash imkoniyatlari va bandlikni ta’minlashdan iborat bo‘lgan. Maktablarda kasbga yo‘naltirish ishlarini tashkil etish uchun pedagogik kadrlarni tayyorlash tizimi tashkil etildi, kasbga yo‘naltirish doirasidagi

ilmiy tadqiqotlar soni ortdi, muntazam ravishda natijalar aks etgan ilmiy anjumanlar, simpozium, seminarlar o‘tkazildi.

1980 yillarga kelib kasbga yo‘naltirish ishlari davlat darajasiga ko‘tariladi. Mehnat davlat qo‘mitasi xuzurida, kasbiy maslaxat punklaridan iborat keng tarmoqli bo‘linmalariga ega bo‘lgan xududiy kasbga yo‘naltirish markazlari tashkil etildi. Maktabning kasbga yo‘naltirish tizimini rivojlantirishda o‘quv-uslubiy xonalar muhim rolni o‘ynadi.

XX asrning 90 yillarda Rossiyani bozor iqtisodiyotiga o‘tishi, kasbni mustaqil tanlash tushunchalari o‘zgarishiga olib keldi, fukarolar orasida kasbiy faoliyatini qayta-qayta o‘zgartirish ehtimoli oshdi.

O‘zgarishlar kasbga yo‘naltirish siyosatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Insonlarning ehtiyojlari va qiziqishlari kasbga yo‘naltirish ishlarga bog‘liq bo‘lib qoldi. Ilm-fan va amaliyot kasbga yo‘naltirish muammolarining yangi echimlarini topish vazifasiga duch keldi. 1990 yilda, S.N.Chistyakova rahbarligida “Maktab–mehnat–kasb”, shaxsning rivojlanish qonunlariga, uning qiziqishlari va ehtiyojlariga asoslanib o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish tizimining yangi yondashuvlarni ishlab chiqish uchun “Vaqtinchalik ilmiy-tadqiqot jamoasi” tashkil etildi.

Rossiyaning 2002 yilda joriy etilgan maxsus maktablar o‘quvchilari tomonidan kasbni mustaqil tanlashga tayyorlash doirasida olib borilayotgan ishlar sezilarli darajada ta’sir etdi. Maxsus kasbiy yo‘naltirish maktabgacha va boshlang‘ich ta’limiga ham kiritish mumkin bo‘ldi. Kasbga yo‘naltirishning asosiy bosqichi umumiy ta’limning asosiy bosqichi bilan bir vaqtga to‘g‘ri keladi. O‘quvchilar ta’lim olish yo‘nalishni tanlash bo‘yicha qaror qabul qiladilar hamda maxsus kasbiy ta’limni o‘zlashtiradilar, shuningdek, psixologik-pedagogik va shaxsiy diagnostikaga ega bo‘ladilar. O‘quvchilarda qabul qilgan shaxsiy qarorlariga nisbatan xurmati shakllanadi, chunki u orqali yuqori sinfda maxsus kasbiy ta’limni olishga qaror qabul qiladi.

Maxsus kasbiy yo‘naltirishning yakuniy bosqichi umumiy ta’limning yuqori sinflarida amalga oshiriladi, natijada, o‘quvchida ta’limni yoki maktabdan keyingi kasbiy faoliyatni davom ettirishga qaror shakllanadi.

Kasbga yo‘naltirishga maxsus tayyorgarlik ishlari: ta’limni yoki ish faoliyatini davom ettirishni tanlashda yordam ko‘rsatish, kasblar olami bilan tanishish, mehnat bozorida talab va ehtiyojlari haqidagi axborotlar bazasi bilan ishlash kabi tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Xalqaro tajribalarni o‘rganish davomida kasbga yo‘naltirishning mazmuni va

tahliliga ham alohida e’tibor qaratildi. Yoshlarni kasbga yo‘naltirishning bir qator yo‘nalishlari mavjud, bular: tahliliy yo‘nalish, ta’limiy yo‘nalish, shaxsga yo‘naltirilgan yo‘nalish, shakllanayotgan yo‘nalish, rivojlanayotgan yo‘nalish, uning (qiymatli, mintaqaviy, insonparvarlik va boshq.) jihatlari kabilardir.

Tahliliy yo‘nalish - ish faoliyatda foydalanish uchun tahlil vositasi yordamida aniqlanadigan shaxsning qiziqish va qobiliyatlarini e’tibor olgan holda kasbga yo‘naltirish ishini olib boradi. Yoshlarni kasbga yo‘naltirishda tarbiyaning o‘rni beqiyos chunki, tarbiya insonni tashqi ta’sirlarga bo‘lgan munosabatlariga asoslangan. K.Roberte, D.Syuper va boshqalar “har kimni har qanday kasbga o‘rgatish mumkin, faqat uning uchun, samarali usulni tanlash zarur” - deb hisoblaydilar. Shuning uchun, yoshlarni o‘qitishda, asosiy vazifa shaxsning individual xususiyatlarini o‘rganish va o‘qitish uchun optimal sharoitlarni tashkil etish lozim. Bu olimlarning fikriga ko‘ra kasbga yo‘naltirish o‘quv jarayonining ajralmas qismi bo‘lishi kerak. Kasbga yo‘naltirishning tarbiyaviy yo‘nalishi o‘quvchining ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar, kasb tanlashda va berilgan imkoniyatlardan foydalanishda mustaqil qaror qabul qila olishiga o‘rgata olishi lozim.

Kasbga yo‘naltirishning bunday yondashuvi shaxs qobiliyatlarini rivojlanishiga olib keladi. Lekin, u differensial ruhiy fiziologiya nazariyasi va amaliyotida olingan ma’lumotlarni inkor qiladi. Odamlar orasidagi mavjud tabiiy va kam o‘zgaruvchan individual farqlar bir xil kasblarda chidamlilikni shakllantirishiga yoki boshqalariga esa bajara olmas to‘siq bo‘lishi mumkin.

Kasbga yo‘naltirishda insoniylik xissini uyg‘otishda, o‘quvchining insonparvarlik tushunchasining umumiy tamoyillariga asoslaniladi.

Kasbga yo‘naltirishning rivojlanishi, kasbni to‘g‘ri tanlanishini belgilovchi omildir. Bu esa, kasb tanlovchini muhim hayotiy va kasbiy vazifalarini hal etish jarayonida faol bo‘lishini talab etadi. Kasbga yo‘naltirishning asosiy maqsadi, o‘quvchi tomonidan kasbni mustaqil tanlashda uning psixologik tayyorgarligini shakllantirishni jadallash-tirishdir. Amaldagi kasbga yo‘naltirish ishlarida diagnostika va tarbiya masalalarida uzluksizlik mavjud bo‘lsada, haligacha bu sohada olimlar o‘rtasida nazariy va amaliy ishlanmalar yuzasidan muhokamalar to‘xtamagan. Kasbni mustaqil tanlashga tayyorlash jarayoniga, ta’lim jarayoni sifatida qaralishi kerak. Kasbni mustaqil tanlashga tayyorlashni shakllantirishda, kasb tanlovchini ongli va asoslangan kasbiy faoliyat turini tanlash imkonini beruvchi motivatsion munosabatini, kobiliyatni,

muhim shaxsiy fazilatlarini ifoda etish va rivojlantirishga o‘rgatish kerakki, shu orqali kasb tanlovchining o‘zining shaxsiy ichki resurslarini ishga tushurish bilan o‘zining kasbiy faoliyatini olib bora olsin.

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqqan holda rivojlangan mamlakatlarda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishga katta e’tibor qaratiladi, deb xulosa qilish mumkin. Shu bilan birga, kasb tanlashda, mehnat bozori sharoitida o‘zini-o‘zi baholay olish qobiliyatiga hamda etarli darajada raqobatbardosh bo‘lishga intilish ustuvor vazifa hisoblanadi. Xorijiy mamlakatlardagi kasbga yo‘naltirish sohasidagi muammolarini o‘rganganimiz, bizga, o‘tmishdan qolgan va hozirgi kundagi pedagogik an’anarimizni, tajribalarimizni qaytadan ko‘rib chiqish, tahlil qilish hamda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishga va o‘qituvchilarni bu jarayonni boshqarishga tayyorlashga bo‘lgan qarashlarimizning o‘zgarishi dinamikasini kuzatish imkonini beradi.

Xorijiy mamlakatlar kasbga yo‘naltirish tajribalari shuni ko‘rsatib turibdiki, aksariyat mamlakatlarda hozirda ta’limni insonparvarlash-tirish tendensiyasi keng tarqalgan. Ta’lim tizimlari pragmatik, dinamik, moslashtirilganligi bilan farq qilmoqda. Ko‘p mamlakatlarda, ta’lim modernizatsiyalashishi nafaqat ta’lim-tarbiyaning strukturasiga balki, o‘quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash tizimiga ham ta’sir qilgan.

Xorijiy davlatlar tajribasida kasbga yo‘naltirish va bandlikni ta’minlashga, kasb haqida ma’lumot va maslahat berish, kasbni o‘quvchi tomonidan tanlashga tayyorlash, uning bandligini ta’minlash va mehnat faoliyatiga moslashuvi (adaptatsiyasi)ni ta’minlovchi jarayonlarni o‘z ichiga oluvchi yagona kompleks sifatida qaralmoqda. Xorijiy olimlarning mazkur kompleksning qismlari haqidagi fikrlari shuni ifodalaydiki, o‘quvchining o‘qishdan mehnat faoliyatiga o‘tishi - natijaviy harakatdir.

Xalqaro hamjamiyat tomonidan to‘plangan pedagogik tendensiyalar va yoshlarni kasbga yo‘naltirish tajribalari, bizning ta’lim tizimimiz qiziqishini uyg‘otmoqda hamda hozirda joriy etish bo‘yicha tajribalar va chora-tadbirlar belgilash maqsadga muvofiq ekanligini anglatmoqda.

Jahonning yoshlarni kasbga yo‘naltirish tajribasidan kelib chiqib, kasbga yo‘naltirishda diagnostik yo‘nalishining asosiy maqsadi bolaning tug‘ma salohiyatini tashxis qilishdan iborat, shuning uchun o‘quvchiga o‘z ustida ishlash sharoitini yaratish lozim.

Shaxsni ijtimoiylashuvini rivojlantirish asosida turmush tarzini tanlashga, yoki oddiy qilib aytganda maktab o‘quvchilarini kasb-hunarni

mustaqil tanlashga tayyorlash jarayoni takomillashtirilsa, shundagina kasbga yo‘naltirish ishlari shaxsga yo‘nalgan bo‘ladi.[10]

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Motiv so‘zining ma’nosi?
2. Kasbiy motivatsiya tushunchasini ta’riflang?
3. Motivlar turini sanab bering?
4. Kasb tanlash jarayonida qaysi motivlar katta ahamiyatga ega?
5. Kasbiy motivatsiya va kasbiy qiziqishlar o‘rtasida qanday farq bor?
6. Kasbiy qiziqshlarni orttirish uchun ota-onalarga qanday maslahat bera olasiz?
7. O‘quv motivlarining me’yori hamda ijobiy xususiyatlarini baholang
8. Shaxsiy ijtimoiylashuv tushunchasiga ta’rif bering
9. Xalqaro tajribalar asosida qaysi usullar orqali o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish mumkin?
10. Xalqaro tajribalar va milliy o‘quv uslubida qanday farqlar bor?

Tushunchalarga ta’rif bering:

• **Xalqaro tajribalar-**
• **Kasbiy motivatsiya-**
• **Kasbga yo‘naltirish -**
• **Kasbiy qiziqishlar-**
• **Ilm-fan-**
• **Shaxsiy fazilatlar-**

[10] ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ Педагогик инновациялар касб-ҳунар таълим бошқаруви ҳамда педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва уларни малакасини ошириш институти Турғунов.А.А “Касб-ҳунарга йўналтириш” ўқув қўлланма

Kasb tanlash jarayonida o‘quvchining individual xususiyatlari. Kasbga yo‘llash va kasbiy maslahat tushunchalari

Hunar qaynar buloq, tuganmas davlat, - agar hunarmand molidan mahrum bo‘lsa qayg‘usi yo‘qdir. Hunarmand qaerga borsa, qadrlanadi va uyning to‘ridan joy oladi. Hunarsiz odam esa, hamisha mashaqqat chekadi, tilanchilik qiladi.

Sa’diy Sheroziy

Shaxs-ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsulii, ongli faoliyatning sub’ekti bo‘lmish individdir. Shaxsga taaluqli bo‘lgan eng muhim tasnif ham uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham ob’ekt, ham sub’ekt bo‘lishlikdir. Shaxsga taalluqli bo‘lgan fazilatlardan eng muhimi shuki, u shu tashqi, ijtimoiy ta’sirlarni o‘z ongi va idroki bilan qabul qilib (ob’ektni), so‘ngra shu ta’sirlarning sub’ekti sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Oddiy qilib aytganda, inson bolasi ilk yoshlikdanok «mening hayotim», «bizning dunyo» degan ijtimoiy muhitga tushadi. Bu muhit o‘sha biz bilgan va har kuni his qiladigan siyosat, huquq, axloq olamidir. Bu muhit - kelishuvlar, tortishuvlar, hamkorliklar, an’analar, udumlar, turli xil tillar olami bo‘lib, undagi ko‘plab qoidalarga ko‘pchilik mutloq qo‘shiladi, ba’zilar qisman qo‘shiladi. Bu shunday qoidalar va normalar olamiki, ularga bo‘ysunmaslik jamiyat tomonidan qoralanadi, ta’qiblanadi. Shulardan kelib chiqadigan xulosa shuki, shaxs jamiyatga nisbatan barcha tartib - qoidalarni qabul qiluvchi sub’ekt bo‘lsa, jamiyat - ijtimoiy intizom va tartibning, madaniyatning mufassal ko‘rinishidir.

Shaxs ijtimoiy xulqiga turli tashqi kuchlar ta’sir qiladi: siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy, ma’naviy, axloqiy va boshqalar. Bu ta’sirotlar mohiyatan aslida jamiyat a’zolari bO‘lmish shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning ayrim alohida yo‘nalishlarini belgilab beradi.

O‘quvchilarning mustaqil shaxs bo‘lib etishishlarida ularning individual xususiyatlarining o‘rni beqiyosdir. Jumladan kasb tanlash va kasblarga bo‘lgan qiziqishlari ham ruhiy holatdan, qiziqish va mayllardan, ehtiyojlardan kelib chiqadi. Aynan, shu ko‘rstailgan tushunchalar o‘quvchi, umumiy olganda, inson hayotiga katta ta’sir ko‘rsatib faoliyatimiz uchun muhim bo‘lgan har qanday qarorni qabul qilishimizda ko‘mak beradi. Individual xususiyatlar qatoriga shaxsning (o‘quvchi) idrok, xotira, nutq, temperament, qobiliyatlari kiradi. Kasb tanlash jarayonida kasbiy saralash tushunchasi mavjud bo‘lib, bunda, shaxsning bir qancha sifatlari ko‘zda tutilgan holda saralanadi. Intellektual salohiyat, fiziologik hamda biologik sog‘lomlik, xotira va diqqat operatsiyalarining normal faoliyati, nutq va nutqiy xususiyatlar shular jumlasidandir. Aynan ta’lim jarayonida ham pedagoglar, psixologlar, oilada ota-onalar, yaqin kishilar tomonidan bolada yuqoridagi sifatlarning yuzaga kelishi, shakllanishi va natijaviyligiga katta e’tibor qaratishi lozim. Quyida ularning bir nechtasi bilan tanishib chiqamiz. Zero, har bir o‘quvchining aqlan va jismonan sog‘lom bo‘lib kamol topishi barchamizning sa’y-harakatimizga bog‘liqdir. Boshlang‘ich sinfga qadab qo‘ygan kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar bilan birgalikda o‘quv mashg‘ulotlari davomida ularning irodaviy xususiyatlari, xotira va diqqqat kuchlarini kuzatib, kasb tanlashlarida to‘g‘ri tavsiya bera olishimiz zarur.

Psixologlarning fikricha, inson nimaniki idrok qilsa, uni figura va fonda idrok qiladi. Figura - shunday narsaki, uni aniq anglash, ajratish, ko‘rish, eshitish va tuyish mumkin. Fon esa aksincha, noaniqroq, umumiyroq narsa bo‘lib, aniq ob’ektni ajratishga yordam beradi. Masalan, gavjum bozorda ketayotgan taqdirda ham o‘z ismimizni birov aytib chaqirsa, darrov o‘sha tarafga qaraymiz. Ism - figura bo‘lsa, bozordagi shovqin - fon rolini o‘ynaydi. Boshqacha qilib aytganda, biz biror narsani idrok qilayotgan paytimizda uni albatta biror fondan ajratib olamiz. Shunday qilib, idrok - bu bilishimizning shunday shakliki, u borliqdagi ko‘plab, xilma-xil predmet va hodisalar orasida bizga ayni paytda kerak bo‘lgan ob’ektni xossa va xususiyatlari bilan yaxlit tarzda aks etishimizni ta’minlaydi. Ya’ni, idrokning asosida narsa va hodisaning yaxlitlashgan obrazi yotadiki, bu obraz boshqalaridan farq

qiladi. Idrok o‘ziga nisbatan soddaroq bo‘lgan sezgi jarayonlaridan tashkil topadi. Masalan, olmaning shaklini, xidini, mazasini, rangini sezamiz, ya’ni alohida-alohida xossalar ongimizda aks etadi. Bu - sezgilarimizdir. Sezgilar yaxlit tarzda idrok jarayonini ta’minlaydi. Lekin olimlar idrokni sezgilarning oddiygina, mexanik tarzdagi birlashuvi, degan fikrga mutloq qarshilar. Chunki idrok ongli, maqsadga qaratilgan murakkab jarayon bo‘lib, unda shaxsning u yoki bu ob’ektga shaxsiy munosabati va idrokdagi faolligi asosiy rol o‘ynaydi. Kasb tanlash, ma’lum kasb egasi bo‘lishda inson xotirasi ham muhim ro‘l o‘naydi. Masalan, xotirasi sust o‘quchi hisobchi bo‘lishni istasa, biz unga “yo‘q, seni xotirang sust raqamlarni eslab qola olmaysan” desak, noto‘g‘ri bo‘ladi. Shuning uchun, o‘quvchilarni kuzatish davomida o‘zimiz uchun qayd qilib borishimiz, xotirasi sust bo‘lgan o‘quvichlarga qo‘shimcha topishiriqlar berishimiz foydadan holi bo‘lmaydi.

Xotira - bu tajribamizga aloqador har qanday ma’lumotni eslab qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish bilan bog‘liq murakkab jarayondir. Xotira har qanday tajribamizga aloqador ma’lumotlarning ongimizdagi aksidir. Inson his qilgan barcha narsa va hodisalar izsiz yo‘qolmaydi. Ular ma’ulm miqdorda xotirada saqlab qolinadi, mustahkamlashib va kerak bo‘lganda qayta esga tushiriladi. Esda olib qolish, esga tushirish va unitishda namoyon bo‘ladigan aqliy faoliyat xotira deyiladi. Xotirani tajriba asosida psixologiya fanida tadqiq etish XIX asrning 80-yillariga to‘g‘ri keladi. 1885-yilda nemis psixologik Ebbingaus xotirlab qolish jarayonlari haqida kitobni yaratadi. Xotira jarayonining asoslari uch yo‘nalishda o‘rganilgan:

- ✓ Psixologik;
- ✓ Neyrofiziologik;
- ✓ Bioximik;

Xotira jarayonlariga esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unitish jarayonlari kiradi. Esda olib qolish- qabul qilinayotgan predmet va hodisalarni tasavvurlar sifatida qabul qilishdir. Esda olib qolish – xotira, materiali bo‘lib, qayta esga tushirish xotira mazmunidir. Esda olib qolish mexanik va mantiqiy, ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo‘ladi.

- ➢ Mexanik esda olib qolish tashqi bog‘lanishlar orqali xotirlab qolish bilan bog‘liqdir.
- ➢ Mantiqiy esda olib qolish ichki ma’noga ega bo‘lgan bog‘lanishlarni xotiralashdir.
- ➢ Ihtiyorsiz xotira oldindan maqsad qo‘yilmagan, material tanlanmagan holda yuz beradi.

- Ixtiyoriy xotira maqsad qo‘yilib, material tanlangan holda amalga oshiriladi.

Maxsus usullar- bu aktiv (qayta gavdalantirish) va passiv (bitta mateialni qayta idrok etish). Xotira jarayonida vaqtning ahamiyati katta. U uzluksiz va taqsimlangan bo‘ladi. Vaqtning taqsimlanishi M.N.Shardakovning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Xotirada materialni taqsimlash ham katta ahamiyatga ega. Kichik material yaxlitligicha, katta material esa bo‘lingan holda xotirada olib qolinishi yoki unda qo‘shma usulni qo‘llash samaralidir.

Esda olib qolinayotgan materialga shaxsiy munosabat – bu shaxsiy yo‘llanma bo‘lib, har bir odamda o‘ziga xos holda namoyon bo‘ladi.

Esda olib qolingan materialni saqlash – xotira jarayoni bo‘lib, unda ong harakati yuzaga keladi. Xotirada inson tomonidan qabul qilingan barcha narsa qoladi va ma’lum miqdori esdan chiqadi.

Qayta esga tushirish – esda olib qolingan materialni aktuallashtirish bo‘lib, u uzoq muddatli xotiradan operativ xotiraga o‘tadi. Esga tushirish tanish yoki xotiralash, ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz bo‘lishi mumkin.

Tanish- bu qayta ko‘rganda esga tushirish bo‘lib, u qayta ob’ektni idrok etish natijasida yuzaga keladi.

Xotirlash – qayta idrok etishsiz esga tushirishdir. Esdan chiqarish- qayta esga tushirishdagi qiyinchiliklar bo‘ilb, u ta’sir izlarni yo‘qotish natijasida yuz beradi.

Esdan chiqarish- to‘la, qisman, uzoq muddatli va qisqa muddatli bo‘ladi. Esdan chiqarishda tormozlanish yuzaga kelishi mumkin.

Tormozlanish ikki hilda: retroaktiv (qayta ta’sir etuvchi) – vaqt bog‘liqligini yuzaga kelishi tufayli xotirada tormozlanish yuzaga keladi.

Proaktiv tormozlanish – oldingi faoliyatni keyingi yod olish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi. Xotira turlari :



Ixtiyorsiz xotira esda olib qolish va esda saqlash oralig‘ida biror bir maqsadsiz yuz berishi bog‘liq xotiradir.

Ixtiyorsiz xotira- maqsad quyiladi, material tanlanadi va maxsus usullar asosida xotirada saqlanib qolinadi.

Harakat xotira – esda olib qolish, esda saqlash va esga tushirishlar harakat bilan bog‘liq bo‘ladi.

Emotsional xotira- his tuyg‘uga asoslangan xotiradir.

Obraz xotira – tasavvurlar, tabiat hayotiga bog‘langan xotira.

Eydetik xotiraga (yunon. Eidos –obraz, tur)ega bo‘lgan kishilar kam uchraydi. Bu xotira turida idrok qilingan obrazlar aniq va ravshan bo‘lib saqlanadi.

So‘z mantiq xotira – xotira asosida fikrlar, so‘zlar, tushunchalar yotadi. (pedagogik faoliyatning asosiy xotira turi).

Qisqa muddatli xotira – juda qisqa esga olib qolish va esga tushirish bilan bog‘liq xotira.

Uzoq muddatli xotira turli ma’lumotlarni inson tomonidan uzoq muddatga saqlanishida ifodalanadi. U juda ko‘p qaytarish va esga tushirish evaziga yuzaga keladi.

Operativ xotira- uzoq muddat xotirada saqlanib zarur vaqtda esga tushirish bilan bog‘liq bo‘lgan xotira turidir.

Genetik xotira turi mavjud bo‘lib, u genotip bilan shartlashgan bo‘lib, avloddan-avlodga o‘tadi.

Xotiraning individual xususiyatlariga quyidagi individual turlari ajratiladi – ko‘rish, eshitish, motor va aralash.

1) ko‘rish turi – ko‘rish orqali materialni tez eslab qolish.
2) Eshitish turi- eshitish orqali materialni yaxshi esda olib qolish.
3) Motor turi- odamni qayta takrorlash yoki yozib olish orqali esda olib qolishidir.
4) Aralash turi – bunda ko‘rish eshitish, ko‘rish-motor, eshitish motor turlari haqida gapirish mumkin.

Kasbiy yo‘nalganlik tizimining quyidagi funksiyalarini ajratib ko‘rstsak bo‘ladi:

- Ijtimoiy funksiyasi deganda jamiyatning to‘laqonli va teng huquqli a’zosi sifatida ijtimoiy kasbiy faoliyatni amalga oshirish imkoniyatini beradigan qadriyatlar, normalar va bilimlarning ma’lum tizimini o‘zlashtirish nazarda tutiladi.
- Iqtisodiy funksiyasi deganda xodimlarning sifat tarkibini takomillashtirish, kasbiy faollikni yuksaltirish, ishlab chiqarish unumdorligini va malakasini oshirish tushuniladi.
- Psixolog-pedagogik funksiyasi deganda ma’lum kasbni tanlagan kishining individual xususiyatlarini aniqlash, shakllantirish va inobatga olishni tushunish mumkin.
- Tibbiy fiziologik funksiyasi deganda sog‘liqqa va alohida fiziologik xususiyatlarga nisbatan u yoki bu kasbiy faoliyatni amalga oshirishda zarur bo‘ladigan talablarni hisobga olish nazarda tutiladi.

O‘quvchilarning ham kasb tanlash jaryonilarida, qiziqishlarini, istak va mayllarini, ehtiyojini hamda muhim o‘rinlarni egallagan individual xususiyatlarini inobatga olish zarur. Unutmaslik lozimki, har qanday kasb tanlash doirasida jahon iqtisodiyoti, zamonaviy ilm-fan, texnika, taraqqiyot, bozor iqtisodiyoti tamoyillariga javob beruvchi, bir so‘z bilan aytganda talab darajasi yuqori bo‘lgan kasblarni e’tirof etishimiz, o‘quvchilar uchun yuqoridagi talablarga javob beruvchi kasb egalari hamda ularning faoliyati bilan yaqindan tanishtirib borishimiz maqsadga muvofiqdir. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun

ularning dunyoqarashidan kelib chiqqan holda, yosh xususiyatlariga muvofiq kasblar obrazlarini tasavvurlarida yarata olishimiz, bunga ham amaliy ham nazariy jihatdan yondashmog‘imiz lozimdir. Mashg‘ulotlar davomida qisqa suhbatlar, savol-javoblar, rasmli tarqatmalar, qisqa metrajli video lavhalardan foydalanishimiz, ularda kasb tushunchasining yanada kengroq yoritilishiga imkon yaratadi. Aynan, shu yoshdan boshlab, pedagoglar va ota-onalar tomonidan kasblarning xususiyatlari, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy maslahat, kasblardagi jinsiy tafovutlar haqida ham anglash doirasidan kelib chiqib tushuncha berishilari darkor. Kasbiy yaroqlilik iborasi ham muhim ahamiyat kasb etib, tanlangan kasb uchun, uning ma’suliyati va burchlarini, vazifalarini to‘laqonli ravishda amalga oshirishlari uchun tayyor bo‘lishlari va shu tayyorgarlikni yoshlik davrlaridanoq, jismoniy chiniqish, mashqlar va sog‘lom turmush tarziga rioya etgan holda olib borishlari singdirilishi lozim. Psixologiyada tug‘malik alomatlari bor individual sifatlar layoqatlar deb yuritildi va uning ikki xili farqlanadi: tabiiy layoqat va ijtimoiy layoqat. Birinchisi odamdagi tug‘ma xususiyatlardan oliy nerv tizimi faoliyatining xususiyatlari, miyaning yarim sharlarining qanday ishlashi, qo‘l-oyoqlarning biologik va fizilogik sifatlari, bilish jarayonlarini ta’minlovchi sezgi organlari ko‘z, quloq, burun, teri kabilarning xususiyatlaridan kelib chiqsa (bular nasliy ota-onadan genetik tarzda o‘tadi), ijtimoiy layoqat - bola tug‘ilishi bilan uni o‘ragan muhit, muloqot uslublari, so‘zlashish madaniyati, qobiliyatni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar (ular ota-ona tomonidan yaratiladi)dir. Layoqatlilik belgisi - bu o‘sha individga aloqador bo‘lib, u bu ikkala layoqat muhitini tayyoricha qabul qiladi. Qobiliyatsizlik va intellektning pastligi sabablaridan ham biri shuki, ana shu ikki xil layoqat o‘rtasida tafovut bo‘lishi mumkin. Masalan, genial rassom oilasida bola tug‘ildi deylik. Unda rassomchilik uchun tug‘ma, genetik belgilar otasi tomonidan berilgan deylik. Lekin bolaning onasi farzandining ham rassom bo‘lishini xohlamasligi, o‘ziga o‘xshash qo‘shiqchi bo‘lishini xohlashi mumkin. Ayol bolani yoshlikdan faqat musiqa muhitida tarbiyalaydi. Tabiiy layoqatning rivoji uchun ijtimoiy layoqat muhiti yo‘q, ijtimoiy layoqat o‘sishi uchun esa tabiiy, tug‘ma layoqat yo‘q bo‘lgani sababli, bolada hech qanday talant namoyon bo‘lmasligi, u oddiygina musiqachi yoki qo‘shiqchi bo‘lish bilan cheklanishi mumkin. Intellekt testlari va qobiliyatdagi tug‘ma va orttirilgan belgilarni o‘rganishning psixologik ahamiyati aynan shunda. Ilk yoshlikdan bolaning o‘zidagi mavjud imkoniyatlarni rivojlantirish shart-sharoitini

yaratish ishini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish kerak. Orttirilgan sifati shuki, bola toki bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘stirish borasida harakat qilmasa, Eng kuchli tug‘ma layoqat ham layoqatligicha qolib, u iqtidorga aylanmaydi. Eng talantli, mashhur shaxslarning eng buyuk ishlari, erishilgan ulkan muvaffaqiyatlarining tagida ham qisman layoqat va asosan tinimsiz mehnat, intilish, ijodkorlik va bilimga chanqoqlik yotgan. Shuni ham unutmaslik kerakki, qobiliyatsiz odam bo‘lmaydi. Agar shaxs adashib, o‘zidagi haqiqiy iqtidor yoki layoqatni bilmay, kasb tanlagan bo‘lsa, tabiiy, u atrofdagilarga layoqatsiz, qobiliyatsiz ko‘rinadi. Lekin aslida nimaga uning qobiliyati borligini o‘z vaqtida to‘g‘ri aniqlay olishmagani sabab u bir umr shu toifaga kirib qoladi. Iqtidor - insonning o‘z xatti-harakatlari, bilimlari, imkoniyatlari, malakalariga nisbatan sub’ektiv munosabatidir. Iqtidorli odam genial yoki talantli bo‘lmasligi mumkin, lekin u har qanday ishda mardlik, chidamlilik, o‘z-o‘zini boshqara olish, tashabbuskorlik kabi fazilatlarga ega bo‘lib, o‘zlari shug‘ullanayotgan ishni bajonidil, sitqidildan bajaradi. Ular ana shunday harakatlari bilan ba’zi o‘ta iste’dodli, lekin kamharakat kishilardan ko‘ra jamiyatga ko‘proq foyda keltiradi. Iqtidorli insonda iste’dod sohibi bo‘lish imkoniyati bor, zero iste’dod - har tomonlama rivojlangan, nixoyatda kuchli va takrorlanmas qobiliyatdir. U tinimsiz mehnat, o‘z qobiliyatini takomillashtirib borish yo‘lida barcha qiyinchiliklarni engish va irodasi, butun imkoniyatlarini safarbar qilish natijasida qo‘lga kiritiladi. Qobiliyatlarning psixologik strukturasida, avvalombor, umumiy va maxsus turlarga bo‘linadi va har birining o‘z psixologik tizimi va tuzilishi bo‘ladi. Shaxsning umumiy qobiliyatlari undagi shunday individual sifatlar majmuiki, ular odamga bir qancha faoliyat sohasida ham muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatish va natijalarga erishishga imkon beradi. Masalan, texnika oliy o‘quv yurtining talabasi ham ijtimoiy-gumanitar, ham aniq fanlar, ham texnika fanlari sohasidagi bilimlarni o‘zlashtira oladi. Bunda unga umumiy bilimdonlik, nutq qobiliyatlari, tirishqoqlik, chidam, qiziquvchanlik kabi qator sifatlar yordam beradi. Maxsus qobiliyatlar esa ma’lum bir sohada yutuqlarga erishish, yuqori ko‘rsatgichlar berishga imkon beruvchi sifatlarni o‘z ichiga oladi. Umumiy qobiliyatlarni maxsus qobiliyatlarga zid tarzda talqin qilish mumkin emas. Shaxsning umumiy qobiliyatlari ularni hosil qiluvchi omillar yaqqol psixologik hodisa yoki voqelikdir. Maxsus qobiliyatlar ko‘lam jihatdan torroq bo‘lishiga qaramay, chuqurroq mohiyatni o‘zlarida mujassamlashtiradi. Amaliy psixologiyaning bugungi kundagi eng muhim va dolzarb vazifalaridan

biri layoqat kurtaklarini ilk yoshlikdan aniqlash, intellekt darajasiga ko‘ra shaxs qobiliyatlari yo‘nalishini ochib berishdir.[11] Shuning uchun ham hozirda ko‘plab intellekt testlari va qobiliyatlarni diagnostika qilish usullari ishlab chiqilgan va ular muvaffaqiyatli tarzda amaliyotda qo‘llanmoqda. Qobiliyatlarni o‘lchash muammosi XIX asrning oxiri - XX asrning boshlariga kelib izchil hal qilina boshlandi. Xorijda bunday ishlar Spirmen, Bine, Ayzenk va boshqalar tomonidan o‘rganildi. Ular qobiliyatlar va iqtidorni o‘rganish uchun maxsus testlardan foydalandilar. Bu testlarning umumiy mohiyati shundaki, ularda topshiriqlar tizimi tobora qiyinlashib boruvchi testlar-topshiriqlar batareyasidan iborat bo‘ladi. Shaxsning individual xususiyatlari haqida gap ketganda, ularning tug‘ma, biologik xususiyatlariga alohida e’tibor beriladi. Chunki aslida bir tomondan shaxs ijtimoiy mavjudot bo‘lsa, ikkinchi tomondan - biologik yaxlitlik, tug‘ma sifatlarni o‘z ichiga olgan substrat - individ hamdir. Temperament va layoqatlar individning dinamik - o‘zgaruvchan psihik faoliyati jarayonini ta’minlovchi sifatlarini o‘z ichiga oladi. Bu sifatlarning ahamiyati shundaki, ular shaxsda keyin ontogenetik taraqqiyot jarayonida shakllanadigan boshqa xususiyatlarga asos bo‘ladi. Odam temperamentiga aloqador sifatlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular odam bir faoliyat turidan ikkinchisiga, bir emotsional holatdan boshqasiga, bir malakalarni boshqasi bilan almashtirgan paytlarda reaksiyalarning egiluvchan va dinamikligini ta’minlaydi va shu nuqtai nazardan temperament - shaxs faoliyati va xulqining dinamik (o‘zgaruvchan) va emotsional - hissiy tomonlarini xarakterlovchi individual xususiyatlar majmuidir. V.S. Merlin temperamentning psixologik tasnifi va ularning hayotiy vaziyatlarda namoyon bo‘lishini boshqarish masalasida ko‘p ishlar qilgan. Uning fikricha, insonda mavjud bo‘lgan faollik, bosiklik, emotsional tetiklik, hissiyotlarning tezda namoyon bo‘lishi va o‘zgaruvchanligi, qayfiyatning turgunligi, behalovatlilik, ishchanlik, yangi ishga kirishib ketish, malakalarning tez hosil bo‘lishi kabi qator sifatlar asosida shaxsdagi o‘sha ekstroversiya va introversiya xossalari yotadi va ularni ham o‘zgartirish va shu orqali temperamentni boshqarish mumkin. Shulardan kelib chiqqan xolda shaxsning mehnat qilish uslubini tanlash va professional mahoratni ustirishda ayni shularga e’tibor berish kerak. Masalan, ba’zilar xoleriklarga o‘xshash qiziqkon, tezkor bo‘lishadi.

[11] Тошкент давлат Аграр университети Жўраева С.Н. Юнусхўджаев З.Ш “Касбий психология” ўқув қўлланма

Uning mehnat jarayonidagi ishini kuzatadigan bo‘lsak, faollik, ishni tez bajarishga layoqat ijobiy bo‘lsa, uning sifati, chala tashlab ketish havfi, ba’zi tomonlariga yuzaki qarashi kishini o‘ylantiradi. Shaxsning individual-tipologik xususiyatlar klassifikatsiyasiga qobiliyat, temperament, xarakter kiradi. Qobiliyat maxsus va umumiy turlarga, layoqat, iqtidor, iste’dod kabi psixologik tuzilmadan iboratdir. Temperamentlarni chuqur bilish va ularning amaliyot uchun ahamiyati bayon etilgan. Talaba-yoshlardagi qiziqishlarni diagnostika qilish yo‘llari ko‘rsatilgan. Individual psixologik xususiyatlarning kasb mahorati va shaxs barkamolligi bilan bog‘liqligi ochib berilgan. Yoshlarni mustaqillik mafkurasi ruhida tarbiyalash va milliy g‘oyani shakllantirishning barkamol avlod tarbiyasidagi o‘rni keltirilgan. Psixologiya fanida bu sohada muayyan ilmiy izlanishlar olib borilgan, o‘ziga xos yondashishlar amalga oshirilgan. B.V.Kulaginning fikricha, kasbni egallash deganda odamning individual xususiyatlarini tadqiq etish va baholash maqsadida kasbga saralash, kasb tanlashga yo‘naltirish, nomzodlarni (da’vogarlarni) ixtisoslikka oqilona taqsimlash, kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish, kasbiy faoliyatni optimallashtirishning amaliy masalalari tizimini echish tushuniladi. Individuallikning mohiyatini tushunishga umumiy yondashish kasbga saralash muammosini hal qilishda bevosita ahamiyatga ega. Ma’lumki, kasbga layoqatlilikni tashxis (diagnoz) qilish insonning kasbiy xislatlarini hisobga olishga asoslanadi. Hozirgi zamon psixologiyasining ma’lumotlariga qaraganda, tashxis (diagnoz) qilish modeli muayyan matematik algoritmga asoslanadi. Bunday model tashxis (diagnoz) qilishda cheklanganlikka ega bo‘lib, tashxisning mutlaq aniqlik darajasidan quyiroqdir. Kasbiy faoliyatni tahlil qilmasdan turib, professional psixodiagnostika (kasbiy psixologik) muammolarini hal qilish mumkin emas, ya’ni professiografiya mohiyatiga va uning tuzilishiga e’tibor qilish zarur. ęaqat shundagina faoliyatli yondashuv amalga oshirilib, uning harakatlari va operatsiyalari testlar yordamida baholanishi mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Kasbga yo‘llash deganda nimani tushunasiz?
2. Kasb tanlashda individual xususiyatlarning o‘rni qanday?
3. Shaxsning individual xususiyatlariga nimalar kiradi?

4. Individ, odam, shaxs, inson tushunchalarini bir-biridan farqlang?
5. Diqqat nima?
6. Xotirani qanday turlari bor?
7. Kasb tanlash jarayonida individual xususiyatlar muhim bo‘lgan hayotiy misollar keltiring
8. Kasbiy maslahat degnada nimani tushunasiz?
9. Xarakter va temperament tushunchalarining farqi?
10. Hayotingiz davomida individual xususiyatlari tanlagan kasbiga mos kelmagan insonlarni uchratganmisiz?

Tushunchalarga ta’rif bering:

• **Xarakter-**
• **Kasbiy maslahat-**
• **Kasbiy tanlov -**
• **Individual xususiyatlar-**
• **Xotira-**
• **Diqqat-**

Kichik maktab yoshi davridagi o‘quvchilar bilan shug‘ullanishda kasbiy shakllanish bosqichlari. Kasbiy ustanovkalar

“Azizim! Har kim biror ishning talabida qadam qo‘ysa, bu ishning qiyinchiliklariga chidashi kerak. Maqsad ka’basi sari yo‘lga chiqqan odam, zahmat sahrosidan cho‘chimasligi lozim”. Xo‘ja Samandar Termiziy

Insonning kasbiy shakllanishini uning hayot yo‘lidan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Psixologik adabiyotlarda ta’kidlab o‘tilganidek, kishining kasbiy shakllanishi uning yosh davrlariga mos holda butun hayoti davomida kechadigan jarayon bo‘lib shaxsning shakllanishiga mos holda boradi. Autoidentifikatsiya (inglizcha Self-identification) — o‘zini-o‘zi aniqlash, o‘zini boshqalarga o‘xshatish, aynanlashtirish, tenglashtirishdir. Zamonaviy psixologiyada guruhiy identifikatsiya, ijtimoiy identifikatsiya, etnik identifikatsiya tushunchalari bilan bir qatorda:

- milliy autoindentifikatsiya,
- jinsiy autoindentifikatsiya,
- yosh autoindentifikatsiyasi,
- kasbiy autoindentifikatsiya kabi tushunchalar ham

qo‘llaniladi. Psixologik lug‘atlarda, “autoindentifikatsiya shaxsning o‘zin-o‘zi anglashi va “Men” –siymosining shakllanish jarayoni bilan bir deb qarash mumkin emas, balki (tor ma’noda) shaxsning ongli intilishlari va sa’i-harakatlari natijasidir”,- deb ta’riflanadi. [12] Kasbiy autoidentifikatsiya bo‘lajak mutaxassisning shakllanishidagi eng muhim jihatlardan biridir. Insonning o‘zi uchun eng maqbul bo‘lgan kasbni tanlashi va uni egallash uchun intilishlari kasbiy autoidentikatsiya va kasbiy shakllanishdagi dastlabki bosqichlar hisoblanadi. Kasbiy shakllanishni davrlashtirish masalasiga turli xil yondashuvlar mavjud. T.V.Kudryavsev shaxsning

[12] Большой психологический словарь. Под общ. Редакции Б.Г.Мещерякова и П.И.Зинченко. 3-е изд.М.2002

kasbga munosabati va faoliyatni bajarish darajasi mezoniga ko‘ra, kasbiy shakllanishning quyidagi bosqichlarini ajratib ko‘rsatgan:

kasbiy moyillikning paydo bo‘lishi va shakllanishi;
kasbiy ta’lim va kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko‘rish;
kasbiy faoliyatga kirishish, jamoada o‘z o‘rnini topishga faol intilish;
kasbiy mehnat faoliyatida shaxsning o‘zini to‘liq namoyon etishi[13]

E.A.Klimov tomonidan insonni mehnat sub’ekti sifatida qarab kasbiy yo‘nalgan davrlashtirish asoslab berilgan:

1) O‘yindan oldingi bosqich (4 yoshgacha bo‘lgan davr) –kishining keyingi rivojlanishi va mehnatga kirishuvi uchun asos bo‘lgan idrok qilish vazifalarini o‘zlashtirish;
2) O‘yin bosqichi (5-8 yosh) – inson faoliyatining “asosiy mazmuni”ni o‘zlashtirish;
3) O‘quv faoliyatini o‘zlashtirish bosqichi (8-12 yosh) – faoliyatni rejalashtirish, o‘zini-o‘zi nazorat va tahlil qilish;
4) Optatsiya bosqichi (12-17 yosh) – kasb-hunar ta’limi muassasalarida kasb tanlash davri;
5) Adept bosqichi (17-20 yosh) – tanlangan ixtisoslik bo‘yicha kasbiy tayyorgarlik;
6) Adaptant bosqichi (20-23 yosh) – kasbning ichiga kirish va unga ko‘nikish;
7) Internal bosqich (23-26 yosh) – kasbiy tajriba to‘plash;
8) Kasbiy mahorat bosqichi- mehnat faoliyatini malakali bajarish;
9) Obro‘-e’tibor bosqichi- mutaxassis tomonidan yuqori malakani o‘zlashtirilishi;
10) Ustozlik bosqichi- mutaxassis tomonidan kasbiy tajribani berish.[14]

A.K.Markova esa kasbiy etuklikning shakllanishida shaxsning kasbiy
mahorati darajasini asos qilib olib uning 5 ta daraja va 9 ta bosqichini ajratib ko‘rsatgan:

[13] Маркова А.К. Психология профессионализма. М.,1996.
[14] Кудрявцев Т.В. Психология профессионального обучения и воспитания. М.,1997.

1) Mahoratgacha bo‘lgan bosqich kasb bilan dastlabki tanishishdan boshlanadi;
2) Kasbiy mahorat uchta bosqichni: kasbga moslashish, o‘zini dolzarblashtirish, namoyon etish va o‘z kasbining mohir ustasi sifatida kasb bilan erkin shug‘ullanish;
3) Super yuqori kasbiy mahorat ham uchta bosqichni o‘z ichiga oladi: kasbiy faoliyatga ijodiy yondashishi, turdosh kasblarni o‘zlashtirish, shaxs sifatida o‘z faoliyatini ijodiy loyihalashtira olish;
4) Noprofessionallik – mehnat faoliyatini shaxs deformatsiyasi ta’sirida qisqartirilgan shaklda bajarish;
5) Professionallikdan keyingi davr– kasbiy faoliyatni yakunlash [15]

Shuningdek shaxsning kasbiy autoindentifikatsiyaning shakllanishini kasbiy mahoratning vujudga kelishidagi asosiy mezonlardan biri sifatida ham bir nechta bosqichlarni ajratish mumkin. E.A.Klimovning fikricha kasbiy autoindentifikatsiya bir necha bosqichlarni bosib o‘tadi:

Kasblar olami haqidagi aniq- ko‘rgazmali tasavvurlarning paydo bo‘lish davri. Bu davr 2,5-3 yoshdan boshlanib 10-12 yoshgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Taraqqiyot davomida bolaning ongida kasblar olami haqidagi turlituman tasavvurlar shakllanib boradi. Bolalar o‘yin faoliyatida haydovchi, hamshira, o‘qituvchi, hisobchi va boshqalarning hatti-harakatlarini bajaradilar. Boshlang‘ich ta’limda esa etakchi o‘quv-biluv faoliyatida o‘quvchining kasblar haqidagi tasavvuri yanada kengayib boradi. Ba’zi kasblarga xos harakatlarni tushunish qiyinchilik tug‘dirsa ham, biroq har qanday kasbiy faoliyatda ham bola tasavvur qila oladigan elementlarni kuzatish mumkin.

O‘zini kasbiy bilish davri. Ko‘plab kasblar haqidagi tasavvurlarni o‘zlashtirib olgach, o‘quvchi ularni u yoki bu shaklda qo‘llay olishi kerak. Kasblar haqida etarli bilim, ko‘nikma va tayyorgarlikka ega bo‘lmaganlari sababli ba’zi o‘smirlar o‘zlarini biror kasbiy sohada namoyon eta olmaydilar. Biroq ularda yangi etakchi faoliyat-tengdoshlari bilan muloqot jarayonida o‘zini bilishga bo‘lgan ehtiyoj yanada kuchli namoyon bo‘ladi. Aynan mana shu ehtiyoj o‘zini kasbiy sohada ham aniqlashiga ta’sir ko‘rsatadi. U yoki bu kasb uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarini aniqlashga harakat qiladi. Mazkur davrning so‘ngida 14-16 yoshli o‘smirda kasb undan nimani kutadi va u kasbdan nimani kutishi mumkinligi haqidagi tasavvurlar shakllanadi.

[15] Маркова А.К. Психология профессионализма. М.,1996.

O‘zini kasbiy aniqlash davri. Ushbu bosqichda kasbiy identifikatsiya yakunlanadi. Bu davr maktabni tugatgandan keyin ham davom etishi mumkin. O‘smirda kasbni o‘rganishning aniq yo‘nalishi, barqaror qiziqishlar, kasbning talablariga mos bo‘lgan shaxs xususiyatlarining shakllanishi kuzatiladi.[16] Shaxsning kasbiy shakllanishini davrlashtirish muammosi tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning barchasida ijtimoiy vaziyatlar va etakchi faoliyat omili asos qilib olingan. Bu jarayon ota-ona, o‘qituvchi, rolli o‘yin va o‘quv predmetlari ta’sirida vujudga keladigan kasbiy qiziqish va moyilliklarning paydo bo‘lishidan boshlanadi. So‘ngra anglangan, xohlangan, ba’zan majburan kasb tanlash bilan yakunlanadigan kasbiy maqsadlar shakllanadi. Bu shaxsning shakllanishidagi optatsiya bosqichi nomini olgan. Shaxsning kasbiy faolligi kasblar olamida o‘z o‘rnini topish va kasb tanlash borasida qat’iy qarorlar qabul qilishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Kasbiy ta’lim oila va maktabda amalga oshiriladigan kasb tanlangunga qadar davom etgan mehnat ta’limi va tarbiyasi negizida, ya’ni kasb tanlashga psixologik tayyorlash va mehnat faoliyatiga ruhan tayyorgarlikka ko‘maklashadigan yo‘nalish asosida davom etadi. Bu yo‘nalishning amalga oshishi shaxs taraqqiyotining:

a) mehnat va kasblarga bo‘lgan qiziqishga, mehnat faoliyati va kasb tanlashga tayyorlikka yo‘nalgan motivatsion soha;

b) mehnat faoliyat va kasblar, kasbiy muhim ahamiyatga ega shaxs xususiyatlari, ularning o‘zida mavjudligi haqida bilimlarga ega bo‘lishni taqozo etadigan operatsion sohani rag‘batlantirishga ijobiy ta’sir etadi.

Motivatsion tayyorlik - shaxsning mehnatga yo‘nalganlikligi, mehnat qilishga ehtiyoj, mehnatning ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligi va uning samaradorligi hamda burch motivlarini anglash, mehnatga ijobiy munosabatni his etish, mehnat qilish ishtiyoqi, har qanday mehnatga hurmat, zarurat tug‘ilganda har qanday mehnatni bajarishga tayyorlik, mehnatsevarlik, faoliyat uchun zarur bilim, ko‘nikma, malaka va kuchlarining mavjudligiga ishonch bilan qarash, mustaqil tanlovlarni amalga oshirish; faoliyatning natijasiga talabchanlik, mehnat natijasi va bajarish jarayonidagi mas’uliyatlilik, maqsadga erishish yo‘lidagi qat’iylik; yangi maqsadlarni qo‘yishdagi tashabbuskorlikdan iborat.

Yuqori sinf o‘quvchilarida kasb tanlash motivlarini o‘rganish maqsadida o‘tkazilgan “Shaxsning kasbiy yo‘nalganligini aniqlash” so‘rovnomasi natijalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, 11- sinf o‘quvchilarida

[16] Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения. М.,2004

ijtimoiy ahamiyatga va tashqi yo‘nalgan motivlarning shakllanish darajasi yuqori bo‘lsa, 9-sinf o‘quvchilarida esa ichki yo‘nalgan motivlarning o‘rni yuqori ekanligi aniqlandi. Bu ma’lumotlar ta’lim jarayonida o‘quvchilarning tanlagan kasbi haqidagi bilim, ko‘nikma va malakalari shakllanishi bilan uni tanlashga undagan motivlarning kuchi va sifati ham ortib boradi. To‘g‘ri tanlovga undagan motivlar yanada barqarorlashib boraveradi. Kasbiy autoidentifikatsiyaning shakllanishi va kasbiy ta’lim samaradorligi oila va maktabda kasbiy faoliyatgacha bo‘lgan psixologik tayyorlikning qanday o‘tganligiga bog‘liqdir. [17] Kasbiy ta’limning har bir bosqichida bo‘lajak mutaxassisning psixologik xususiyatlarini rag‘batlantirish, motivatsion sohasi – qadriyatlari, kasb mazmuni, motivlari, maqsadi, his-tuyg‘ulari, yo‘l-yo‘riqlarining rivojlanishi uchun qulay shartsharoit yaratish kerak. So‘ngra uning asosida operatsion soha – kasbiy bilim, qobiliyat, sa’i-harakat, tafakkur va texnologiyalar shakllanib boradi.

Kasbiy ustanovka - shaxsning tanlagan kasbiga yoki muayyan hunarga ichki ruhiy tayyorligi bo‘lib, u bu kasbni nafaqat biladi, balki uni yoqtiradi, hayotda shu yo‘ldan borishga, uning qiyinchiliklarini qabul qilib, amalda bajarishga hozir bo‘ladi. Lekin amalda har doim ham kasbiy ustanovka o‘zgarmas va doimiy bo‘lmasligi mumkin. Buning ham ob’ektiv hamda sub’ektiv sabablari bo‘ladi. Masalan, bir kasb hunar o‘rniga yangi zamonaviy hunar turlari paydo bo‘lishi mumkin. yoki biror kasbni tanlagan shaxs ma’lum vaqt o‘tgach undan boshqa bir kasbni yoqtirib qolishi yoki o‘zini shu jabhada ko‘rsata olmasligi mumkin. Shunday sharoitlarda shaxsning kasbiy motivatsiyasida o‘zgarishlar ro‘y beradi. U muayyan vaqt ishsiz ham qolishi mumkin. Demak, u yangi kasb turini egallashga qaror qiladi. Kasbiy shakllanish jarayonida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni quyidagigi sifatlar asosida tarbiyalamog‘imiz darkor:

- shaxsning fazilatlari, xarakterologik xislatlari.
- xissiy jabhalari va irodaviy sifatlari.
- insonning kognitiv va regulyativ imkoniyatlari.
- ehtiyoji, motivi, motivatsiyasi, motivirovkasi.
- kasbiy mayli, qiziqishi, layoqati.
- professiogramma talablariga mosligi, kasbiy yaroqligi.
- iqtidori (iste’dodi), qobiliyati, salohiyati.
- kasbiy bilimlari, ko‘nikmalari, malakalari, mahorati.

[17] КАСБИЙ АУТОИДЕНТИФИКАЦИЯ ШАКЛЛАНИШИНИНГ БОСҚИЧЛАРИ Зарифа Курбанова НамДУ

- umumiy saviyasi, dunyoqarashi, maslagi (e’tiqodi).
- salomatligi, jinsiy xususiyatlari, yoshi, izlanuvchanligi, ijodiy imkoniyatlari, innovatsiyaga nisbatan munosabati.
- ijtimoiy etukligi, tashkilotchilik qobiliyati.
- ekstrovertligi va introvertligi.
- yuksak insoniy tuyg‘ularga (axloqiy, aqliy, nafosat, praksik) egaligi.
- fidoiylik, altruistik, vatanparvarli fazilatlari ustuvorligi va boshqalar.

Kasbiy shakllanish bosqichlari yosh xususiyatlariga, individual tipologik xususiyatlarga bog‘liq bo‘lib, o‘quvchi shaxsining kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, sanab o‘tilgan bosqichlar va sifatlar asosida kichik maktab yoshidan boshlab, o‘quvchilarni ma’lum kasblarga yo‘naltirish, qiziqishlari asosida mashg‘ulotlar o‘tish, ayniqsa, oila davrasigi suhbatlarning o‘rni beqiyosligini anglatib borishimiz zarur.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Kasbiy shakllanish bosqichlvari deganda nimani tushunasi? Misollar orqali yoritib bering
2. Shaxsning ekstrovertligi va introvertligi nima degani?
3. Kasb tanlashda shaxsda qanday irodaviy xususiyatlar rivojlangan bo‘lishi kerak?
4. Kasbiy ustanovkalar nima?
5. Kasbiy ta’lim shaxs uchun necha yoshdan o‘qitilishi zarur deb hisoblaysiz?
6. Mehnat faoliyati va motivatsion ta’lim tushunchalarini bir-biridan farqlang
7. A.K.Markovaning shaxs shakllanishida kasbiy kamolot darajalarini tushuntirib bering
8. Shaxsiy ijtimoiylashuv tushunchasiga ta’rif bering
9. E.A.Klimov nazariyasiga ko‘ra kasbiy yo‘nalganlik darajalri qanday?
10. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar kasb-hunar haqida qay darajada bilimlarga ega bo‘lishlari kerak?

Tushunchalarga ta’rif bering:
• **Motivatsion ta’lim-**
• **Kasbiy yo‘nalganlik-**
• **Kasbiy bilim darajalari -**
• **Kichik maktab yoshi-**
• **Kasbiy shakllanish-**
• **Ekstrovert-**

Kasbiy qiziqishlar xaritasini tuzish. Natijalar tahlili va taqqoslash



O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishlari bo‘yicha olib borilgan tahlillar, bu jarayonning mutlaqo yangi modelini yaratishga asos bo‘ldi. Jamiyatning bir qismi bo‘lgan ta’lim tizimi va jamiyatning a’zosi bo‘lgan shaxs manfaatdordir, ta’lim faqat kasbni egallash vositasi emas, balki hayotning mazmunini anglash, uning mukammalligini va undan qanoatlanishni his etish vositasi ham bo‘lishi kerak. Modellashtirish, tizimli tahlil va xulosa qilish bilan birga, ilmiy tadqiqotning etakchi metodlaridan biri hisoblanadi. Faraz qilinayotgan model, modellashtirish vositasiga oid turlardan biri hisoblanadi.

Modellashtirish – ob’ektlarda ijtimoiy reallikning muayyan qismlarini tadqiq etish uslubi hamda predmetlar va hodisalarning real

mavjud bo‘lgan hamda quriladigan modellarini o‘rganish va ishlab chiqishdir. O‘quvchilarda kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlash modeli, maktab o‘quvchilarini shaxsiy va ijtimoiy foydali kasb tanlashga psixologik-pedagogik tayyorligini ta’minlovchi, o‘zaro bog‘liq va o‘zaro aloqaga ega: Maqsad va vazifani belgilash, mazmun, texnologik va nazorat-tahlilkomponentlardan iborat majmuini tushuniladi. Modelning maqsad va vazifani belgilash komponenti maktab o‘quvchilari kasb-hunarni mustaqil tanlashda muvaffaqiyatga erishishlari uchun:

1) kasbiy faoliyatda zarur bo‘ladigan shaxsiy sifatlar haqida;

2) kasblar olami haqida;

3) muayyan kasbiy faoliyatni amalga oshirishda, kasbiy muhim sifatlar bilan taqqoslash uchun shaxsiy sifatlarni aniqlash imkoniyatlari haqida tasavvurlarini shakllantirishdan iborat.

Maqsad va vazifani belgilash komponent quyidagi kompleks *vazifalarni* amalga oshirishni nazarda tutadi, unda o‘quvchilar:

turli xil kasbiy faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari haqida tasavvurlarga ega bo‘ladilar;
muayyan kasbda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur bo‘lgan shaxsiysifatlar haqida ma’lumotlarga ega bo‘ladilar;
o‘zining shaxsiy kasbiy muhim sifatlarini baholash uchun tashxis qilish metodikalar haqida tushunchalarga ega bo‘ladilar;
shaxsiy sifatlari bilan kasbiy muhim sifatlarni taqqoslay olish vashu asosda kasbiy tanlov amalga oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar

Modelning mazmun komponenti zaruriy bilim, ko‘nikma va kasbiy kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi. mazmun komponenti o‘z strukturasiga ko‘ra *tamoyillar, vazifalar va mazmunlardan* iborat. Maktab o‘quvchilarida kasb-hunarni mustaqil tanlashni shakllantirish insonparvarlik, tizimlilik, izchillik va faoliyatlilik *tamoyillariga* tayanadi.

Insonparvarlik tamoyili, kasbga yo‘naltirish ishi – inson haqida va uning hayot faoliyati muvaffaqiyatli bo‘lishida g‘amxo‘rlik qilish ekanligini nazarda tutadi.

Tizimlilik tamoyili shakllanish jarayonining barcha elementlarning mantiqiy aloqasini, ularning o‘zaro ta’sirlashuvini nazarda tutadi hamda

kasbga yo‘naltirish ishlarini ta’lim jarayonining bir qismi sifatida qabul qiladi.

Izchillik tamoyili kasbga yo‘naltirish jarayonining dialektik xarakterini tavsiflaydi, uning har bir bosqichi yangilikni anglash uchun imkoniyatlar ochib beradi. Kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlash 9-sinfni bitirib kasb-hunar kollejlarini (bu maktab o‘quvchilarini ikki guruhga: ishchi va xizmatchi kasblarini tanlovchilarga ajratish uchun asos hisoblanadi) yoki akademik litseylarni (bunda oliy ma’lumot olishni maqsad qilib qo‘ygan o‘quvchilar guruhi bilan ishlanadi) yoki 10–sinfda o‘qishni davom ettirishni (bunda murakkab bo‘lmagan kasblarni egallash bilan birga 11–sinfni bitirib oliy ma’lumot olishni maqsad qilib qo‘ygan o‘quvchilar guruhi bilan ishlanadi) tanlash bilan yakunlanadi.

Faoliyatlilik tamoyili – kasb-hunarni mustaqil tanlashni faoliyat jarayonida shakllantirish xususiyatini nazarda tutadi. Faoliyatdan tashqarida kasbning imkoniyatlari, talablari va mohiyatini to‘liq tushunishga erishish mumkin emas, shuning uchun kasbiy faoliyatni mustaqil loyihalash bilan birga kasbiy sinovlar (muayyan kasbda, mehnat faoliyati orqali o‘zini sinab ko‘rish)ni amalga oshirish alohida ahamiyatga ega bo‘ladi.

O‘quvchilarni kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlashning *vazifalari* shaxsning turli faoliyat sohalarida kasbiy tanlovni qaror toptirish, ijtimoiylashtirish va moslashitirishdan iboratdir. *Mazmunlar* oldindan ixtisoslashtirilgan, bilish faoliyatining tuzilishini aks ettiradi:

1) kasbni ongli ravishda tanlashi, o‘zini-o‘zi anglashi uchun shaxsiy sifatlarini tashxis qilish metodikalari haqida tushunchalarga ega bo‘lish;

2) kasb-hunarni mustaqil tanlashning mohiyati va vazifasini psixologik-pedagogik hodisa sifatida aniqlash;

3) kasb-hunarni mustaqil tanlashning asosiy tamoyillarini o‘rganish;

4) kasblar axborotnoma (professiogramma)lar bilan tanishish;

5) shaxsning kasbiy muhim sifatlari to‘g‘risida tasavvurlarini shakllantirish;

6) shaxsiy xususiyatlarni kasbiy muhim sifatlar bilan taqqoslash yo‘li orqali kasb-hunarni tanlashni amalga oshirish;

7) kasbiy xulqning shaxsiy usulini yaratish bo‘yicha ijodiy faoliyat olib borish.

Modelning texnologik komponenti o‘quvchilarni kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlashda ularga ta’sir ko‘rsatuvchi *shakllar va metodlarni* tanlab olishni, shuningdek kasb-hunarni mustaqil tanlashni *shakllantirish shartlarini* belgilaydi.

Maqbul tizim sifatida quyidagi metodlar tanlab olindi:

1) izohli-ko‘rgazmali (ma’ruzalar) – kasblar olami haqidagi axborotning asosiy hajmini uzatish uchun;

2) o‘quvchilarga mustaqil ravishda, lekin o‘qituvchining nazorati ostida o‘zini (mutaxassis shaxsning kasbiy muhim sifatlarini ajratishiga imkon beruvchi) tashxislash metodikalari hamda ular bilan tanishish uchun birgalikdagi faoliyat (muhokama qilish, baxs-munozarali vaziyatlarga baho berish) metodlari;

3) aniq kasbiy vazifalarni modellashtiruvchi va kasbiy faoliyat davomida anglashi zarur bo‘lgan kompetensiyalarning keng ko‘lamini o‘rganishga imkon beruvchi muammoli o‘qitish (o‘quv loyihalari, kasbiy o‘yinlar va treninglar) metodlari;

4) reproduktiv metod (test sinovlari, topshiriqlarni himoya qilish) – kasbiy muhim bilimlarni o‘zlashtirish, ko‘nikmalar va kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini nazorat qiladi.

Kasb-hunarni mustaqil tanlashni *shakllantirish shartlari* uchta: mazmunni tartibga soluvchi mazmunlar komponenti, kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlash bilan bog‘liq ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi tashkiliy komponent va kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlash shartlarini shakllantiruvchi psixologik-pedagogik komponentlar bilan ifodalanadi. Ular kasbga yo‘naltirish ishining tuzilishini mantiqan aks ettiradi.

Kasbni mustaqil tanlashga tayyorlash axborot yo‘nalishini shakllantirish uchun:

kasbga yo‘naltirish va uning asosiy toifalari;

kasbga bo‘lgan talabning o‘ziga xos xususiyatlari;

kasb tanlashning psixologik-pedagogik omillari

haqidagi kompleks bilimlarni o‘z ichiga qamrab oluvchi asosiy shartlarga amal qilish zarur.

Faoliyat yo‘nalishini shakllantirishni ta’minlash uchun shaxsning kasbiy qiziqish va moyilliklarini kasbiy imkoniyatlar bilan taqqoslashni o‘z ichiga oluvchi ko‘nikma va kompetensiyalarning shakllanishini birlashtiruvchi tashkiliy shartlarga amal qilishni talab etadi. Xususan,

1) umumkasbiy kompetensiya - kasbiy muhim sifatlarini ajratish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

2) shaxsiy-kasbiy kompetensiya – shaxsiy-kasbiy muhim (muayyan kasbning kasbiy muhim sifatlarini shaxsning o‘zida mavjud bo‘lgan) sifatlarini tashxislash ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

3) kasbning talablari, shaxsning xususiyatlarini hamda umumkasbiy va shaxsiy-kasbiy kompetensiyalarini birlashtiruvchi muayyan kasbiy faoliyatining jamiyat tomonidan talab etilishini taqqoslay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lish.

Psixologik yo‘nalishni ta’minlash uchun o‘quvchilarni kasbga yo‘naltiruvchi psixologik kompetensiyasini shakllantiruvchi psixologik-pedagogik shartlarga amal qilishga o‘rgatish zarur. Bunga quyidagilar kiradi:

1) shaxsiy muhim shartlar, tizimli mehnat faoliyatida shaxsga asosiy ob’ekt sifatida qarash, kasb-hunarni mustaqil tanlashda esa o‘quvchiga hayot yo‘lida muvaffaqiyatga erishishi uchun unga o‘zini faollashtirish vazifasini o‘rgatish;

2) motivatsion muhim shartlar, shaxsning kasbiy kompetentligini farqlashga, inson hayotida asosiy muvaffaqiyat nima ekanligini ifodalashga o‘rgatish;

3) shaxsiy motivatsion shartlar, kasb-hunarni mustaqil tanlashni shakllantirish maqsadini ko‘rishga va o‘rgangan bilimlarini, o‘zlashtirilgan ko‘nikma va egallagan malakalarini qo‘llash maqsadga muvofiq ekanligini anglashiga sharoit yaratish. Mazkur shartlar o‘quvchining shaxs sifatida barqaror anglangan elementini yaratib, bu element uni kasb tanlashning mazkur soha mutaxassisiga bo‘lgan talabining uchta jihatiga yo‘naltiradi: mening istaklarim (xohlayman), mening imkoniyatlarim (qila olaman) va mening darajam (zarur).

Kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlash jarayonini shartli ravishda uchta bosqichga bo‘lish mumkin:

Birinchisi bosqichda asosan psixologik yo‘nalishning baholash komponenti, faoliyat yo‘nalishining kasbiy ko‘nikmalar va kreativlik komponentlari shakllanadi.

Psixologlarning ta’kidlashicha, o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda ularning xarakter xususiyatlarini, temperamentini va psixofiziologik

o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun o‘quvchilarning xarakter xususiyatlari, temperamenti hamda psixofiziologik omillarini o‘rganish asosida o‘quvchilarni kasb-hunarni mustaqil tanlashgga tayyorlash muhim hisoblanadi.

Aynan, o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda psixofiziologik xususiyatlarini e’tiborga olib mazkur bosqichning asosiy vazifalari kasb-hunarni mustaqil tanlashda sub’ekt o‘zini psixologik tashxislash ko‘nikmalarini shakllanishiga erishish, deb belgilandi. Tashxis qo‘yish kerak bo‘ladigan shaxsning eng muhim sifatlariga quyidagilar kiradi:

☺ shaxsiy qiziqishlar,
☺ ehtiyojlar,
☺ moyilliklar,
☺ kobiliyatlar,
☺ kasbiy hohishlar,
☺ kasbiy yo‘nalganligi,
☺ xarakter xususiyatlari,
☺ temperament va salomatlik holatini.

Bu bosqichda o‘qitish vositalari – tashxislash (psixologik) test va metodikalar haqida malumotlar berish va ularni o‘tkazish, natijalari yuzasidan bahs-munozaralar, turli o‘yinlar va mashqlar hamda tashxislash yuzasidan suhbatlar bo‘lishi mumkin.

Ikkinchisi bosqich o‘quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirish bo‘lib, u kasblar axborotnomasi (professiogramma) bilan tanishishni ham o‘z ichiga oladi. Professiogramma kasblar olami to‘g‘risida aniq, yaxlit tasavvurga ega bo‘lishga, istalgan kasbning umumiy tavsifida tez va to‘g‘ri tanlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishga va o‘zini mazkur kasbga moyilligini aniqlashga imkon beradi. Bu bosqichda kasb-hunarni mustaqil tanlash tizimining axborot yo‘nalishining ma’lumotlar komponenti va psixologik yo‘nalishining motivatsion komponentini shakllantirishga e’tibor qaratiladi. O‘qitish vositalari: kasblar olamini tushunishga yordam beradigan va tanlash “maydoni”ni kengaytirishga imkon beruvchi professiogrammalar, munozara, tashxislash metodikalari o‘tkazish, treninglar orqali turli mashq va o‘yinlar, vaziyatlarni tahlil qilish topshiriqlari bo‘lishi mumkin[18]. Kasbga yo‘naltirishda o‘zini-o‘zi rivojlantirishga qaratilgan treninglar xam yaxshi samara beradi. Mazkur pedagogik texnologiya o‘quvchilarni mustaqil kasb tanlashda shaxsiy

[18] ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ Педагогик инновациялар касб-ҳунар таълим бошқаруви ҳамда педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва уларни малакасини ошириш институти Турғунов.А.А “Касб-ҳунарга йўналтириш” ўқув қўлланма

imkoniyatlaridan yanada to‘laroq va samaraliroq foydalanish imkonini beradi. Mazkur jarayon muhim vazifalardan hisoblanadi, chunki umumiy o‘rta ta’lim maktabi dasturlari yangi fanlarga deyarli joy qoldirmasdan, o‘quvchilardan ko‘p vaqt va kuch talab etadi. Trening deganda ta’lim oluvchilarni maqsadga yo‘naltiradigan, oldindan rejalashtirilgan va anglab etilgan o‘quv-bilishga oid ijodiy yoki o‘yin faoliyati tushuniladi. Treningning yo‘nalishi umumiy muammoga, maqsadga, kelishilgan uslublarga ega va o‘quvchilarda kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish, intellektual hamda amaliy kompetensiyalarning ma’lum tuzilishini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Trening - muayyan muammoni tadqiq etish, uning amaliy yoki nazariy tarzda amaliyotga joriy etishdir. Treningning maqsadi o‘quvchilarni o‘tilgan o‘quv mashg‘uloti davomida o‘zlashtirganlarini hisobga olib o‘zini-o‘zi rivojlantirish va o‘zini taqdimot qilishga o‘rgatishdan iborat. Ta’lim oluvchilar o‘zlarining ijodiy amaliy faoliyatlari natijasida yangi bilimlar va ko‘nikmalar ega bo‘ladilar. Bu metod o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, unda o‘quvchilarning yakka tartibdagi ishlash shakli, guruhiy mashg‘ulotlar bilan birga qo‘shib olib boriladi. Trening asosida o‘qitishni tashkil etishga quyidagi talablar qo‘yiladi: trening ta’lim va tarbiya jarayoniga joriy etilgan bo‘lishi kerak; o‘quvchilar mavjud muammolarni muhokama qilishi va oldiga muhim vazifalarni qo‘yishlari hamda vazifaning faoliyati ularga mos va tushunarli bo‘lishi kerak; o‘quvchilar faol bo‘lishlari, o‘z fikrlarini yozma ravishda aniq shakllantirishlari, kiruvchi ma’lumotlarni tahlil qila olishlari, yangi g‘oyalar yaratilishida ishtirok etishlari kerak; o‘quvchilar o‘zaro munosabatlarini mustahkamlashda guruh shaklida ishlash taklif etiladi. Turli mavzularga bag‘ishlangan treninglar tashkil etimshda ishtirok etuvchilarning ruhiy holati, jimonan sog‘lomligi, yosh xususiyatlari, aqliy darajalari, ba’zi hollarda jinslari e’tiborga olinishi zarur. Treninglar o‘tish usuli bir necha xil bo‘lib, guruhiy treninglar yoki individual treninglar tashkil etiladi. Mashg‘ulotlar davomida treninga ma’sul shaxs trener tomonidan mavzuga oid turli komandalar berish va guruhiy o‘yinlar orqali ko‘zlangan natija erishish mumkin. Bunda qisqa savol-javoblar, raqs terapiyalar, ertakt erapiyalar, qum terapiyalardan foydalanish mumkin.

XOLLAND METODIKASI

Maqsad: o‘quvchilarning kasbiy qiziqishlari, qobiliyatlarini aniqlashga mo‘ljallangan bo‘lib, maktab psixologining kasbiy proforientatsion yo‘nalishda ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

Mashg‘ulotning borishi: Ushbu metodika asosida amerikalik psixolog olim Ya.Xolland taklifi bo‘yicha odamlar va ko‘pchilik kasblarni shartli ravishda 6 guruhga bo‘lish mumkin (realistik, ijtimoiy, konvensial (shartli), tadbirkor, artistik tiplar). Bu metodika asosida yuqorida qayd qilingan tiplarni qay biri qay darajada shaxsda namoyon bo‘lishini aniqlash mumkin. Kasblarning xususiyati shundaki, shaxs psixologiyasida qaysi bir yo‘nalish ko‘proq shakllangan brlsa, shu kasb o‘ziga ko‘proq jalb qiladi.

Metodikani o‘tkazish tartibi:

Metodika savolnomasini o‘quvchilarga berishdan oldin, ularga quyidagi ko‘rsatma beriladi: «Quyidagi juft-juft taklif etilgan - kasblardan o‘zingiz uchun har bir juftdan bittasini tanlang va «a» yoki «b» grafalar yonida «+» yoki «— » belgisini qo‘ying.

Metodika natijalarini tahlil qilish uchun har bir o‘quvchining javob varaqasi alohida ishlab chiqiladi. Buning uchun 6 yo‘nalish bo‘yicha berilgan maxsus kalitdan foydalaniladi. Har bip savolning javobi kalitda berilgan natija bilan to‘g‘ri kelsa 1 ball qo‘shiladi va oxirida har bir yo‘nalish bo‘yicha umumiy ballar yig‘indisi hisoblab chiqiladi. Eng ko‘p bal to‘plagan yo‘nalish etakchi hisoblanadi, bunda shu yo‘nalish ballar yig‘indisi 5 balldan kam bo‘lmasligi kerak.

Ikkala kasbdan bittasini tanlashi shart

1.	a) quruvchi	b) loyiha tuzuvchi
2.	a) elektron texnik	b) sanitariya shifokori
3.	a) tokar (chilangar)	b) kotiba
4.	a) suratkash	b) do‘kon mudiri
5.	a) chizmakash	b) dizayner
6.	a) faylasuf	b) psixiatr
7.	a) tilshunos	b) advokat
8.	a) ilmiy jurnal muharriri	b) badiiy jurnal tarjimoni
9.	a) pediatr	b) statist

10	a) sport shifokori	b) feletonchi
11	a) notarius	b) ta’minotchi
12	a) parmalovchi	b) hajviy sur’at soluvchi rassom
13	a) siyosiy arbob	b) yozuvchi
14	a) bog‘bon	b) meteorolog
15	a) avtobus haydovchi	b) feldsher
16	a) elektron uskunalar muhandisi	b) kotiba
17	a) bo‘yoqchi	b) yog‘och yoki metal bo‘yicha rassom
18	a) biolog	b) ko‘z shifokori
19	a) teleoperator	b) rejissyor
20	a) gidrolog	b) taftishchi
21	a) zoolog	b) bosh zootexnik
22	a) matematik	b) me’mor
23	a) bolalar xonasi noziri	b) hisobchi
24	a) o‘qituvchi	b) kasaba uyushmasi lideri
25	a) tarbiyachi	b) kulol
26	a) iqtisodchi	b) bo‘lim mudiri
27	a) korrektor	b) tanqidchi
28	a) xo‘jalik ishlari mudiri	b) dirijer
29	a) radiooperator	b) fizik yadrochi
30	a) sozlovchi	b) montajchi
31	a) agronom	b) menejer
32	a) bichuvchi	b) dekarator
33	a) arxeolog	b) ekspert
34	a) muzey xodimi	b) maslahatchi
35	a) olim	b) akter
36	a) logoped	b) stenografist
37	a) shifokor	b) diplomat
38	a) bosh hisobchi	b) direktor
39	a) shoir	b) ruhshunos

Kalit

	Realistik tip	1a, 2a, Za,5a, 14a, 15a,16a, 17a, 19a, 29a, 30a, 31a, 32a.
	Aqliy tip	1b, 6a, 7a, 8a, 14b, 18a, 20a, 21a, 22a, 29b, 33a, 34a, 35a
	Ijtimoiy tip	2b, 6b, 9a, 10a, 15b, 18b, 23a, 24a, 25a, 34b, 36a, 37a, 39b
	Konvensial (shartli) tip	3b, 9b, 11a, 12a, 16b, 20b, 23b, 26a, 27a, 30b, 33b, 36b, 38a
	Tadbirkor tip	4b, 7b, 11b, 13a, 19b, 21b, 24b, 26b, 28a, 31b, 35b, 37b, 38b
	Artistik tip	4a, 5b, 8b, 10b, 12b, 13b, 17b, 22b, 25b, 27b, 28b, 32b, 39a

Tiplarning tahlili

Realistik tip. Bunday tipdagi shaxs ko‘proq konkret, ya’ni aniq ob’ektlar (narsalar, asbob uskunalar, hayvonlar, mashinalar) bilan shug‘ullanishni afzal ko‘radilar, konkret ob’ekt bilan shug‘ullanish, chaqqonlik va aniqlikni yoqtiradi. Odamlar bilan muloqotda bo‘lishni yoqtirmaganligi sababli yuqori lavozimlarda ishlashni xush ko‘rmaydi. Injener, mexanik, elektrik, agronom, bog‘bon, haydovchi va shunga o‘xshash kasblarni tanlaydi.

Intellektual tip. Bunday odamlar o‘zining sezgir va boy xayolligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Ular amaliy mashg‘ulotlarni bajarishdan ko‘ra, muammolarni nazariy hal qilish ustida o‘ylashni yoqtiradilar. Mavhum kasblarni tanlashadi: biolog, botanik, astronom, fizik.

Ijtimoiy tip. Bunday odamlar muammoni echishda ko‘proq o‘zlarining intellektual qobiliyatlaridan ko‘ra shaxsiy hissiyot va tuyg‘ularga asoslanadilar. Mexanizmlar bilan shug‘ullanishni yoqtirmaydilar. Ko‘proq ta’lim va sog‘liqni saqlash sohasiga qiziqadilar:

shifokor, psixolog, o‘qituvchi kasblarini tanlashlari mumkin, chunki ularda muloqotga kirishish, boshqaruv va san’atga ehtiyoj katta.

Konvensial (shartli) tip. Bunday odamlarda moslashish salohiyati juda past. Ularga past faollikni talab qiluvchi mashg‘ulotlar va mutaxassisliklar hamda aniq tizimli faoliyatlar ko‘proq yoqadi. Chunki bunday faoliyatlarda aniqlik va noaniqlik belgilab berilgan. Boshqaruv faoliyati qo‘l kelmaydi, chunki bunday odamlar masalalarni hal qilishda ko‘proq boshqalarning fikriga suyanadilar. Tavsiya etilgan kasblar iqtisod, hisobchi, kotiba va hokazo.

Tadbirkorlik tipi. Bunday tiplar yuqori lavozimlarda ishlashni yoqtiradilar, Ularga qo‘l mehnati, diqqatni bir nuqtaga jalb etuvchi faoliyatlar yoqmaydi. Ular quyidagi kasblarni tanlaydilar: direktor, teleoperator, artist, diplomat, jurnalist. 6. ***Artistik (kreativlik) tip.*** Bunday insonlarda xayol va intuitsiya yaxshi rivojlangan. Ular hayotni murakkablashgan holda qabul qiladilar. "Erkaklashtirilgan" — sport, avtota’mirlash kabi ishlar qiziqtirmaydi. Ular ijodiy xarakterli mashg‘ulotlarni xush ko‘radilar. Ya’ni, musiqa, rassomchilik, adabiyot va shu kabi sohalarda yuqori natijalarga erishishlari mumkin.

QIZIQISHLAR XARITASI

Maqsad: o‘quvchilarning kasbiy qiziqishlari, qobiliyatlarini aniqlashga mo‘ljallangan bo‘lib, maktab psixologining kasbiy proforientatsion yo‘nalishda ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

Mashg‘ulotning borishi: Qiziqishlaringiz sohasi va yo‘nalishi aniqlashga qaratilgan quyidagi savollarning har birini diqqat bilan o‘qing va mumkin qadar aniq javob berishga harakat qiling.

Agar savolda so‘ralgan mazmun, sizga, har tomonlama ma’qul tushsa va juda yoqsa, unda javob varaqasining tegishli katakchasiga ikkita plyus (++) belgisini qo‘yasiz.

Agar savol mazmuni shunchaki yoqsa, unda bitta plyus (+), agar yoqish-yoqmasligini bilmasangiz yoki ikkilansangiz unda, nol (0) qo‘yasiz.

Agar savol mazmuni sizga ma’qul bo‘lmasa, minus (—), agar juda yoqmasa, ya’ni bu faoliyatni yomon ko‘rsangiz, unda ikkita minus (— —) belgisini qo‘yasiz.

Vaqt chegaralanmagan, lekin diqqat bilan, savollarni tushirib qoldirmay, tez-tez o‘ylab javob bering.

DIQQAT BOSHLADIK!

Quyidagi faoliyatlar bilan shug‘ullanishni yoqtirasizmi? Havas qilasizmi? Istaysizmi?

1.O‘simliklar va hayvonlarning hayoti bilan shug‘ullanish, tanishish.

2.Geografiya darsligi, geografiyaga oid kitoblarni o‘qish

3.Geologik ekspeditsiyalar haqidagi badiiy yoki ilmiy - ommabop adabiyotlar o‘qish.

4.Odam anatomiyasi va fiziologiyasi darslari va shu sohaga oid darsliklar, kitoblarni o‘qish.

5.Uy-ro‘zg‘or darslari yoki ro‘zg‘or ishlariga taalluqli vazifalar.

6. Fizikadagi yangi kashfiyotlar va buyuk fiziklarning hayoti, ijodi haqidagi ilmiy-ommabop adabiyotlar o‘qish.

7. Ximiya fanidagi yangi ixtirolar yoki buyuk ximiklarning hayoti va ijodi haqida o‘qish.

8. Texnika sohasiga tegishli jurnallar o‘qish (masalan, "Sirli olam", "Fan va turmush").

9. Ilmiy-ommabop jurnallardagi elektronika va radiotexnika bo‘yicha yutuqlar va yangiliklar haqida maqolalar o‘qish.

10. Har xil metallar va ularning xususiyatlari bilan tanishish.

11. Yog‘ochlarning har xil turlari va ularni amalda qo‘llash haqida bilish.

12. Qurilish sohasidagi yutuqlarni bilish.

13. Har xil turdagi transport (avtomobil, temiryo‘l) haydovchilari haqida kitoblar o‘qish, filmlar ko‘rish).

14. Uchuvchi va kosmonavtlar haqida kitoblar o‘qish, filmlar ko‘rish.

15. Harbiy texnika bilan tanishish

16. Tarixiy voqealar va tarixiy arboblar haqidagi kitoblar o‘qish.

17. O‘zbek va jahon adabiyoti klassiklarini o‘qish.

18. Gazeta va jurnallarning maqola va ocherklarini muhokama qilish.

19. Sinfda va maktabda bo‘layotgan ishlar va voqealarni muhokama qilish.

20. Maktab hayoti (tarbiyachi, o‘qituvchi, sardorlarning faoliyati) haqida kitoblar o‘qish.

21. Militsiyaning faoliyati haqida filmlar ko‘rish, kitob o‘qish.

22. O‘qiyotgan, ishlayotgan yoki yashayottan joyingizni chiroyli qilib bezash, narsalarni saranjomlash, tartibga keltirish.

23. "Qiziqarli matematika", "boshqotirmalar" haqidagi maqola va kitoblar o‘qish.

24. Iqtisodiy geografiyani o‘rganish.

25. Chet tili mashg‘ulotlari.

26. Buyuk rassomlar hayoti, tasviriy san’atning rivojlanish tarixi bilan tanishish.

27. Mashhur sahna va kino artistlarining hayoti bilan tanishish, ular bilan uchrashish, fotosuratlarini yig‘ish.

28. Mashhur musiqachilarning hayoti va ijodi bilan, musiqa san’ati nazariyasiga doir masalalar bilan tanishish va o‘rganish.

29. Sport va buyuk sportchilar haqida jurnal, gazeta, kitoblar o‘qish

30. Biologiya, botanika, zoologiyani o‘rganish.

31. Geografik ixtirolar va ma’lumotlar orqali har xil mamlakatlar bilan tanishish.

33. Odamlar qanday qilib kasalliklar bilan kurashishlarini o‘rganganlari haqida, tibbiyot sohasidagi yutuqlar haqida o‘qish.

34. Engil sanoat korxonalariga ekskursiyaga borish.

35. "Fiziklar hazillashadilar", "Qiziqarli fizika sohasida kitoblar o‘qish.

36. Tabiatdagi ximiyaviy hodisalarni kuzatish, ximiyadan tajribalar o‘tkazish, ximik reaksiyalarning borishini kuzatish.

37. 3amonaviy texnikaning eng so‘nggi yutuqlari bilan tanishish (radio va teleko‘rsatuvlarni eshitib, ko‘rib, gazetalardagi maqolalarni o‘qib).

38. Radiotexnika to‘garaklariga qatnashish yoki elektriklarning ishi bilan tanishish.

39. Metallarga ishlov berishda ishlatiladigan har xil o‘lchov asboblari bilan tanishish. Ular bilan ishlash.

40. Yog‘ochdan uy jihozlari tayyorlash jarayonini kuzatish, mebellarning yangi namunalarini o‘rganish.

41. Quruvchilar bilan uchrashish, ularning faoliyatini kuzatish.

42. Yo‘l xarakati vositalari haqida ommabop adabiyotlapni o‘qish.

43. Dengizchilar haqida kitoblar o‘qish, filmlar ko‘rish.

44. Harbiy mazmundagi filmlarni ko‘rish, kitob o‘qish, katta to‘qnashuvlar va janglar tarixi bilan tanishish.

45. O‘zimizda va chet el miqyosida bo‘layottan, siyosiy voqealarni muhokama etish.

46. Adabiy-tanqidiy maqolalarni o‘qish.

47. Radio va televizordan har hil yangiliklar va axborot ko‘rsatuvlarini eshitish va ko‘rish.

48. Tuman, shahar, respublikada bo‘layotgan kundalik voqealardan xabardor bo‘lish.

49. O‘rtoqlaringizga darslarini bajarishda yordam berish va tushuntirish ishlarini olib borish (agar o‘zlari qila olmasalar).

50. Do‘stlarning, tanishlarning yoki adabiy qahramonlarning qilmishlarini to‘g‘ri va haqqoniy tahlil etish va baholash.

51. Oilaning oziq-ovqat bilan ta’minlanishiga ahamiyat berish, sayohatlar chog‘ida hamma uchun ovqatlanishni tashkil etish.

52. Matematika sohasidagi kashfiyotlar, buyuk matematiklar hayoti va faoliyati haqida ilmiy ommabop adabiyotlarni o‘qish.

53. Xalq xo‘jaligi rejalarining bajarilishi bilan qiziqish.

54. Chet tilida badiiy adabiyotlarni o‘qish.

55. Redkollegiya a’zosi bo‘lish, gazetalarni badiiy bezash bilan shug‘ullanish.

56. Drama teatri va yosh tomoshabinlar teatriga borish.

57. Opera eki simfonik musiqalarni eshitish.

58. Sport musobaqalarini tomosha qilish, sportga doir radio va teleko‘rsatuvlarni eshitish, ko‘rish.

59. Biologiya to‘garagiga qatnashish.

60. Geografiya to‘garagida shug‘ullanish.

61. Erdagi minerallarning geografik tarqalishi haqida tasvirlar, ma’lumotlar yig‘ish va xaritalar tuzish.

62. Odam organizmi xislatlarini, kasallikning paydo bo‘lish sabablari va da’volash usullarini o‘rgatish.

63. Pazandalik to‘garagiga qatnashish, uyda ovqat tayyorlash.

64. Fizikadan tajribalar o‘tkazish.

65. Eritmalarni tayyorlash reaktivlarning og‘irligini o‘lchash.

66. Hap xil mexanizm (soat, dazmol)larni yig‘ish, tuzatish.

67. Aniq o‘lchov asboblari (ossillograf, ampermetr, voltmetr)ni ishlatish, ular yordamida har xil hisoblarni olib borish.

68. Metaldan har xil detallar va buyumlar yasash.

69. Yog‘ochdan har xil qismlar va ashyolar yasash yoki yog‘ochni badiiy bezash (o‘ymakorlik, kuydirish, naqsh berish).

70. Har xil imoratlarning eskizlarini, qurilishlarning chizmalarini bajarish.

71. Yosh temiryo‘lchilar yoki avtohavaskorlar to‘garagiga qatnashish.

72. Parashyutchilar seksiyasida, aviamodelchilar to‘garagida ishtirok etish yoki aviaklub ishida qatnashish.

73. O‘q-yoy otish to‘gapagida shug‘ullanish.

74. Har xil xalqlar va mamlakatlarning kelib chiqish tarixini o‘rganish.

75. Adabiyot fanidan sinf va uy insholari yozish.

76. O‘zga odamlarning harakatlari, xylqi va hayotini kuzatish.

77. Jamoat topshiriqlarini, biron bir ishni bajarish, tashkil etish uchun o‘rtoqlarini uyushtirish, birlashtirish.

78. Kichik yoshdagi bolalarga qarash ularga kitob o‘qib berish, shug‘ullanish, har xil hikoyalar gapirib berish, yoki biron bir ishda ularga ko‘maklashish.

79. Tengdoshlar va kichik bolalar orasida tartib va muntazam intizom o‘rnatish.

80. Sotuvchi, oshpaz, ofitsiantlarning faoliyatini kuzatish

81. Matematika to‘garagida shug‘ullanish.

82. Ishlab chiqarishning rivojlanish masalalarini o‘rganish, ishlab chiqarish korxonalarida hisob-kitob va rejalash borasidagi yutuqlar haqida bilish.

83. Chet tilidagi lug‘atlar bilan ishlash, yaxshi tanish bo‘lmagan tilda o‘ziga xos murakkab nutq xycyciyatlarini tahlil qilish.

84. Muzey va badiiy ko‘rgazmalarga borish.

85. Tomoshabinlar oldida, sahnada badiiy faoliyat ko‘rsatish.

86. Biron bir musiqiy asbobda o‘ynash.

87. Sport o‘yinlarini o‘ynash.

88. O‘simlik va hayvonlarning rivojlanishini kuzatib, yozib borish.

89. Mustaqil ravishda geografik xaritalarni tuzish, har xil geografik ma’lumotlarni to‘plash.

90. Geologiya muzeylari uchun ko‘rgazma materiallar, minerallar to‘plami yig‘ish.

91. Vrach, hamshira, dorishunoslarning faoliyati bilan tanishish.

92. Bichish va tikish to‘garagiga qatnashish, o‘zingizga va oila a’zolaringizga tikish.

93. Fizika to‘garagida shug‘ullanish, yoki fizika bo‘yicha qo‘shimcha mashg‘ulotlarga qatnashish.

94. Ximiya to‘garagida shug‘ullanish yoki ximiya bo‘yicha qo‘shimcha mashg‘ulotlarga borish.

95. Texnika to‘garaklaridan birida shug‘ullanish (samolyot, dengiz kemalari va boshqa inshootlarning modelini yasash).

96. Elektr asboblari, apparatlari va hap xil elektr mashinalarining tuzilishi bilan tanishish, ishini kuzatish har xil radiouskuna va o‘lchov asboblari bilan shug‘ullanish.

97. Mehnat darslarida metallga ishlov berish ustaxonasida shug‘ullanish.

98."Mohir qo‘llar" yoki yog‘ochga ishlov berish to‘garagida shug‘ullanish.

99. Qurilishda bo‘lish, qurilish jarayoni va bezash ishlarini kuzatish.

100. Transport va yo‘lovchilarning yo‘l harakati qoidalarini bajarishlarini kuzatish.

101. Eshkak eshuvchi, elkanli qayiqchi, akvalangchi (g‘avvoslar) to‘garaklarida va suvda cho‘kayotganlarni qutqarish brigadasida qatnashish.

102. Harbiy (masalan, "shunqorlar") o‘yinlarida ishtirok etish.

103. Tarix muzeylariga borish, madaniy obidalar va yodgorliklar bilan tanishish.

104. Adabiyot to‘garaklarida shug‘ullanish, adabiyotdan qo‘shimcha mashg‘ulotlarda ishtirok etish.

105. Shaxsiy kundalik tutish.

106. Xalqaro ahvol haqida sinfda axborot berish.

107. Tarbiyachilik (masalan, sardorlik) ishlarini bajapish.

108. 0damlarning xatti-harakatlari va odatda yashiradigan ba’zi bir xulqlarining sabablarini ochish, aniqlash.

109. Do‘konda xaridorlarga kerakli buyumlarni tanlashda yordam berish.

110. Matematikadan qiyin masalalarni echish.

111. Pullik kirim-chiqimlarning aniq hisob-kitobini olib borish.

112. Chet tili to‘garaklarida shug‘ullanish yoki chet tilidan qo‘shimcha darslarga qatnashish.

113. Badiiy to‘garaklarda shug‘ullanish.

114. Badiiy-havaskorlik ko‘riklarida ishtirok etish.

115. Xorda ashula aytish yoki musiqa to‘garaklarida qatnashish.

116. Sport seksiyalarining birida shug‘ullanish.

117. Biologiya olimpiadalarida qatnashish yoki o‘simliklar va hayvonlar ko‘rgazmasini tayyorlash.

118. Geografik ekspeditsiyada qatnashish.

119. Geologik ekspeditsiyada qatnashish.

120. Kasallarning ahvolini kuzatish, g‘amxo‘rlik qilish, tegishli yordam berish, ahvollarini engillashtirish choralarini ko‘rish.

121. Oshpazlik va qandolatchilik ko‘rgazmalariga qatnashish yoki borish.

122. Fizika olimpiadasida qatnashish.

123. Ximiyadan qiyin masalalar echish, olimpiadalarda qatnashish.

124. Texnik sxema va chizmalarni tahlil qilish, ularni mustaqil ravishda tuzish.

125. Murakkab radiosxemalarni tahlil qilish.

126. Ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiyaga borish, uskunalar va dastgohlarning yangi turlari bilan tanishish, ularda ishlash yoki ta’mirlash ishlarini kuzatish.

127. O‘z qo‘li bilan yog‘ochdan biror narsa yasash.

128. Qurilish ishlarida imkon darajada yordamlashish.

129. Avtomobil, trolleybuslarga xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash ishlarida baholi qudrat qatnashish.

130. Har qanday ob-havo sharoitida ham "tez yordam" samolyotda uchish yoki katta tezlik bilan uchuvchi samolyotlarni boshqarish.

131. Qat’iy o‘rnatilgan tartib bo‘yicha yashash, kun tartibiga qat’iy rioya qilish.

132. Tarix to‘garagida shug‘ullanish, tarixiy ma’lumotlarni to‘plash, ma’ruzalar qilish.

133. Adabiyot manbaalari bilan ishlash, o‘qiganlarim haqida taassurotlarimni kundalikka yozib borish.

134. Munozaralarda va kitobxonlar konferensiyalarida qatnashish.

135. O‘quvchilar jamoatchiligi yig‘ilishi yoki majlislarini tayyorlash va o‘tkazish.

136. Tarbiyasi yomon bolalarga ta’sir ko‘rsatish, bolalar va o‘smirlar tarbiyasi masalalari haqida kattalar bilan muhokama qilish.

137. Militsiya ishiga yordam berish, "militsiyaning yosh do‘sti" to‘garagiga a’zo bo‘lish.

138. Doim har xil odamlar bilan muloqotda, aloqada 6o‘lish.

139. Matematika olipiadalarida qatnashish.

140. Tovarlar va ular narxining kelib chiqishini bilish, oylik maosh, mehnatni tashkillashtirishni tushunishga harakat qilish.

141. Do‘stlarim bilan chet tilida gaplashish.

142. Tasviriy san’at ko‘rgazmalarida qatnashish.

143. Teatr to‘garagiga borish.

144. Teatr ko‘rik-tanlovlariga qatnashish.

145. Sport musobaqalarida qatnashish.

146. Bog‘da yoki tomarqada o‘simliklarni o‘stirish, hayvonlarni tarbiyalash va parvarish qilish.

147. Joylarni xaritaviy (topografik) ko‘rinishda suratlarini chizish.

148. Berilgan dastur bo‘yicha murakkab va jiddiy topshiriqlarni bajarishga to‘g‘ri keladigan qiyin va uzoq muddatli sayohatlarga borish.

149. Shifoxona, poliklinika yoki dorixonada ishlash.

150. Oziq ovqat yoki engil sanoat korxonasida mutaxassis bo‘lib ishlash (tikuvchi, bichuvchi, qandolatchi).

151. Fizikadan qiyin masalalar echish.

152. Ximiyaviy ishlab chiqarish korxonasida ishlash.

153. Texnik ijodiyot ko‘rgazmasida ishtirok etish.

154. Elektroenergetika yoki radioelektronika sohasida ishlash.

155. Dastgoh, (stanok)da ishlash, har xil detallar, buyumlar tayyorlash.

156. Chizmalar asosida modellar, yog‘ochsozlik ishlarini bajarish.

157. Qurilish brigadasida ishlash.

158. Yo‘lovchi yoki yuklarni tashish, yo‘l harakati qoidalariga qat’iy rioya qalish.

159. Bo‘ronli ob-havoda katta daryo yoki ochiq dengizda ishlash.

160. Xarbiy injener yoki qo‘mondon bo‘lish.

161. Ona diyorning tarixiy obidalariga sayohat qilish.

162. Hikoyalar yozish, she’r va masal tuzish.

163. Devoriy gazeta yoki davriy matbuot uchun maqola yoki ocherklar yozish.

164. Mehnat shanbaligida brigadaga boshchilik qilish.

165. Kichik bolalar uchun o‘yinlar, bayramlar tashkil etish.

166.Yuridik tashkilotlarda ishlash (sud, prokuratura, advokatura huquqiy maslahatxonalarda).

167. Odamlarga har xil katta va kichik xizmatlar ko‘rsatish.

168. Har doim matematik bilimlar talab qiladigan ishlarni bajarish.

169. Xalq xo‘jaligi korxonalarining iqtisodi, rejalashtirilishi va moliyaviy ta’minlanishi sohasida ishlash.

170. Chet tilidan olimpiada, tanlov va konferensiyalarda qatnashish.

171. Tasviriy san’at ko‘rgazmalarida ishtirok etish.

172. Sahnada yoki kinoda o‘ynash.

173. Musiqachi, musiqiy rejissyor yoki musiqa darsidan o‘qituvchi bo‘lish.

174. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi yoki treneri bo‘lish. [19]

[19] НИЗОМИЙ НОМИДАГИ ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА УНИВЕРСИТЕТИ “ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТ” фанидан АМАЛИЙ МАШҒУЛОТЛАР З.Т.НИШАНОВА Тошкент- 2006

JAVOB VARAQASI

Familiya_____

Ism_____

Maktab_____Sinf_____

1	30	59	88	117	146			
2	31	60	89	118	147			
3	32	61	90	119	148			
4	33	62	91	120	149			
5	34	63	92	121	150			
6	35	64	93	122	151			
7	36	65	94	123	152			
8	37	66	95	124	153			
9	38	67	96	125	154			
10	39	68	97	126	155			
11	40	69	98	127	156			
12	41	70	99	128	157			
13	42	71	100	129	158			
14	43	72	101	130	159			
15	44	73	102	131	160			
16	45	74	103	132	161			
17	46	75	104	133	162			
18	47	76	105	134	163			
19	48	77	106	135	164			
20	49	78	107	136	165			
21	50	79	108	137	166			
22	51	80	109	138	167			
23	52	81	110	139	168			
24	53	82	111	140	169			
25	54	83	112	141	170			
26	55	84	113	142	171			
27	56	85	114	143	172			
28	57	86	115	144	173			
29	58	87	116	145	174			

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Natijalar tahlili nima uchun kerak?
2. Ko‘zlangan natijalarni olish uchun sizningcha yana qanday metodikalardan foydalansa bo‘ladi?
3. Trening nima?
4. Kasbga yo‘naltirish jarayonida qanday qiyinchiliklar uchrashi mumkin?
5. Kasb egallash jarayonida kasbiy motivatsiyaning o‘rni qanday?
6. Kichik maktab yoshi o‘quvchilari uchun kuzatish metodi qanday samara beradi deb o‘ylaysiz?
7. Oila davrasida kasbga yo‘nalganlik bo‘yicha suhbat olib boring
8. Kasb egallash jarayonida tizimlilik prinsipining o‘rni qanday?
9. Insonparvarlik tamoyili shaxsga qanday foyda beradi?
10. Kasbiy qiziqishlar va kasbiy motivatsiya tushunchalarini farqlang?

Tushunchalarga ta’rif bering:

• **Modellashtirish-**
• **Insonparvarlik-**
• **Tizimlilik-**
• **Psixologik tayyorlik-**
• **Kasbiy tanlanish-**
• **Trening**

Kasbiy so‘rovnomalar va infografik tahlillar



Inson faoliyatining muvaffaqiyati, ko‘p jihatdan, uni amalga oshirishga tayyorlik darajasida aniqlanadi. Maktab ta’limining asosiy maqsadlaridan biri o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdir. Maktabda berilayotgan bilim, ko‘nikma va malakalar o‘quvchi o‘zini anglashi uchun emas balki, inson hayotida mehnatning ahamiyatini hamda o‘zining mehnatidan qoniqishi katta ahamiyatga ega ekanligini, olamda sodir bo‘layotgan voqelik va jamiyatdagi o‘z o‘rni haqidagi tasavvurini shakllantirishdan iborat iborat bo‘lishi lozim. O‘quvchilarning ijtimoiy foydali kasb tanlashga tayyorligi - maktabning kasbga yo‘naltirish ishning natijasidir. Ko‘p jihatdan, “kasbiy muvaffaqiyat aynan kasbni mustaqil tanlashga tayyorlikda belgilanadi”. Shaxsning sifatlari va xususiyatlarining jamlanmasi hamda kasbni mustaqil tanlashni shakllantirish mezonlari kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlik hisoblanadi. Kasb-hunarni mustaqil tanlashga psixologik-pedagogik tayyorlikning umumiy holati o‘quvchilarda, shaxsiy kiziqish, moyillik va qobiliyatlari, kasblar olami hamda mehnat bozori haqidagi tasavvurlari asosida shakllanadi. Psixologik-pedagogik tayyorlikning tuzilishi o‘zida miqdoriy ifodaga ega bo‘lgan uchta ko‘rsatkichlarni, shuningdek, kasb-hunarni mustaqil tanlashning turli darajadagi, keng qamrovli tashxislashni nazarda tutuvchi sifatlarini birlashtiradi. Bilim ko‘rsatgichi, kasb-hunarni mustaqil tanlashda zaruriy bo‘lgan: inson hayotida mehnat roli haqidagi, o‘z mehnatidan qanoatlanishning ahamiyati haqidagi, mehnat bilan bandlikning o‘ziga xosligi haqidagi, kasbda muvaffaqiyat erishish va kasbiy o‘sish

istiqbollari haqidagi, kasblarning ijtimoiy talablari haqidagi bilimlar majmuini tafsiflaydi. O‘quvchilar quyidagi muhim tushunchalarga ega bo‘ladi:

- mehnatni tabiiy ehtiyoj, shu bilan birga hayotning zaruriy qismi sifatida tushunadi;
- o‘z mehnatidan qoniqishning ahamiyati haqidagi tushunchaga ega bo‘ladi;
- kasbni, shaxsning o‘z qiziqishlari, moyilligi, qobiliyati va istaklarini hamda bugungi kundagi mehnat bozorining tanlagan kasb turi uchun ijtimoiy talabni, turli kasblarning kasbiy muhim sifatlari haqidagi axborotlarni to‘g‘ri tahlil qilgan holda ongli ravishda tanlanishi kerakligi haqida tushunchaga ega bo‘ladi;
- kasbning xususiyat va cheklovlarini hamda ish sharoitlarini biladi;
- turli kasblarni egallash imkoniyatlari haqida (qaerda va qanday qilib muayyan soha mutaxassisi bo‘lish mumkiligini o‘rganadi) tushunchaga ega bo‘ladi;
- shaxs sifatlar va kasbiy istiqbolli o‘sish nimaligini anglaydi;
- jamiyatning kasbga bo‘lgan talabining xususiyatlarini tushunadi.

Ko‘nikma ko‘rsatgichi, o‘quvchining o‘zini-o‘zi shaxsiy sifatlarini tashxislash, kasbning muhim sifatlarni aniqlash hamda shaxsiy sifatlarini kasbning muhim sifatlari bilan solishtirishini tavsiflaydi:

- shaxsning kasbiy muhim sifatlarini aniqlay olish imkoniyati ega bo‘ladi;
- metodikalarni mustaqil o‘tkazish va tashxislash texnikasi haqida tushunchalarga hamda ularni amaliyotda foydalana olish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi;
- shaxsiy sifatlarini kasbning muhim sifatlari bilan solishtirgan holda, o‘zining kasbiy (jamiyatga bo‘lgan) ehtiyojini baholay oladi;

Malaka ko‘rsatgichi, o‘quvchilar o‘zlarining xohishlari, jamiyatning imkoniyatlari va talabidan kelib chiqib ijodiy yondoshgan holda kasb-hunarni mustaqil tanlay olishlarini tavsiflaydi, bu bilan o‘quvchilarimiz anglagan holda ijtimoiy-foydali kasbiy tanlovni amalga oshiradi:

- ♣ muayyan kasb talabgorining shaxsiy imkoniyatlarini baholay olish malakasiga ega bo‘ladi;
- ♣ kasbiy talablarga mos shaxsning imkoniyatlarini taqqoslay oladi;

- ♣ muayyan kasbiy faoliyat sohasining mehnat bozoridagi ehtiyojlariga baho bera oladi;
- ♣ kasbiy chidamlilik va kasbiy muvaffaqiyatni tahlil qila oladi.

O‘quvchilarning kasb-hunarni mustaqil tanlashga psixologik-pedagogik tayyorligining umumiy holatini amaliyotga joriy etilgan maxsus kurs yakunida olingan shablon-so‘rovnoma orqali aniqlash mumkin. So‘rovnoma mazmuni o‘quvchilarning sinflaridan kelib chiqib tarqatiladi. Har bir so‘rovnomaning o‘z maqsadi, vazifasi va borish tartibi belgilangan bo‘lib, mushtarak mavzusi:

- ➢ o‘quchilarni kasbga yo‘naltirish,
- ➢ kasbga bo‘lgan qiziqishlarini barvaqt aniqlash,
- ➢ o‘quv motivlarini boyitish,
- ➢ hunarmandchilik sohalaridan tushunchalar berish,
- ➢ kelajak kasblarini oldindan rejalashtirish
- ➢ kasbiy kamolot va kasbiy saralash iboralarini hayotiy misollar orqali tushuntirib berish va h.k.z.

SAVOLNOMA № 1

Maqsadi: *Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar bilan ishlashda kasbga yo‘naltirish va kasbiy qiziqishlarini aniqlash (4-5 sinflar uchun)*

Borish tartibi: *O‘quvchilar uchun individual shaklda savolnomalar tarqatiladi, o‘zlarinig mustaqil javoblarini yozishadi.*

Ism_____

Sinf _____

1)Kasb siz uchun nima?

_____

2) Hunar – bu

_____

3) Kelajakda qaysi kasb egasi bo‘lishni istaysiz?

_____

4) Ota-onangiz qaysi kasb egalari?

_____

5) Kasb tanlashda insonda eng avvalo nima bo‘lishi kerak?

_____

6) Lavozim siz uchun muhimmi? Nima uchun?

_____

7) Siz uchun eng kerakli 3 ta kasb turlarini ayting

_____

8) Sizningcha ayni damda dunyoda qaysi kasb egalari ko‘p?

_____

9) Sizga yoqqan kasb bayrami?

_____

10) Kosmonavt bo‘lishni istasangiz birinchi bo‘lib kim qarshilik bildiradi?

_____

SAVOLNOMA № 2

Maqsadi: *Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar bilan ishlashda kasb tushunchasini singdirish va kasbiy qiziqishlarini aniqlash (1-3 sinflar uchun)*

Borish tartibi: *O‘quvchilar uchun individual shaklda savolnomalar tarqatiladi, o‘zlarinig mustaqil javoblarini yozishadi.*

Ism_____

Sinf_____

1)Qaysi kasb egasi bo‘lishni istaysiz?

_____

2) Ota-onangiz qaysi kasb egalari bo‘lishini xohlaysiz?

_____

3) Kelajakda qaysi kasb egasi bo‘lishni istaysiz?

_____

4) Ota-onangiz qaysi kasb egalari?

_____

5) Siz yoqtirgan kasb nomlarini yozing 3 ta?

_____

6) Sizningcha kasb-hunarli inson mevali daraxt bo‘lsa, hunarsiz inson qanday inson?

_____

7) Siz uchun eng kerakli 3 ta kasb turini ayting

_____

8) Sizningcha ayni damda dunyoda qaysi kasb egalari ko‘p?

_____

9) Sizga yoqqan kasb bayrami?

_____

10) Aktyor bo‘lishni istasangiz birinchi bo‘lib kim qarshilik bildiradi?

_____

KASBIY MOTIVATSIYANI ANIQLASH METODIKASI

Maqsad: o‘quvchilarning kasbiy qiziqishlari, qobiliyatlarini aniqlashga mo‘ljallangan bo‘lib, maktab psixologining kasbiy proforientatsion yo‘nalishda ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

Mashg‘ulotning borishi: Kabiy motivatsiya (moyillik) kasb tanlashga sabab bo‘ladigan aniq rag‘batlantiruvchi harakatdir.

Kasb egallash istagi o‘quvchilarda atrof- muhit omillari va maktabda o‘tkaziladigan kasb-hunarga yo‘naltiruvchi ishlar orqali shakllanadi. Kasbiy motivatsiya o‘zgaruvchan uning shakllanishi uzluksiz jarayon bo‘lib, ob’ektiv va sub’ektiv omillar ta’sirida boradi. Shuning natijasida kasbiy motivatsiyani ilk bosqichlarida aniqlash zarurat bo‘lsa, ularni to‘g‘rilash maqsadga muvofiqdir. Kasbiy motivatsiyani guruhlarda va alohida o‘rganish mumkin.

- ✓ o‘smirlarga javoblar uchun qog‘oz tarqatiladi,
- ✓ qo‘llanma o‘qiladi,
- ✓ savolnoma tasdiq gaplardan iborat har bittasi 3 ta har xil ma’noli gap bilan tugallangan.
- ✓ 3 ta vapiant javobdan faqat bitta to‘g‘ri kelgan javobni topib javoblar varag‘iga belgilash lozim.
- ✓ diqqat qiling, har bitta tasdiq uchun 1 ta javob belgilangan bo‘lishi kerak.

Javob berganingizda, yodingizda bo‘lsin, aniq javobdan ko‘ra ballarning jami muhimroq.

SAVOLNOMA

1.

a) Menga mehnatim zoya ketmaydigan ishni qilish yoqadi.

b) Menga oldimga qo‘yilgan maqsadlarimga erishish uchun yangi bilim olish yoqadi;

v) Menga hamma ishlarni iloji boricha yaxshi bajarish yoqadi, chunki bu hayotimda asqotadi;

2.

a) O‘ylanmanki, berilgan topshiriqlarni iloji boricha yaxshi bajarish kerak, chunki bu hayotimda asqotadi;

b) O‘ylanmanki, qilgan ishlaring bilan atrofdagilarga yaxshilik keltirish kerak, chunki ulardan ham shu qaytadi;

v) Qanday qilib bo‘lsa ham, qo‘yilgan maqsadlarga erishish lozim deb o‘ylayman;

3.

a) Kelajak hayotim ychun yangi bilim olishni yaxshi ko‘raman;

b) Har qanday ishni yaxshi bajarishni yaxshi ko‘raman, agarda uni birontasi baholasa;

v) Har qanday ishni, yaxshi qilishni yoqtiraman, chunki bundan atrofdagilar xursand bo‘ladi;

4.

b) Hayotda hamma narsada kuch sinab ko‘rish kerak deb hisoblayman;

v) Hayotda muhimi — doim yangi bilimlarga intilish deb hisoblayman.

5.

a) Har qanday ishni men yaxshi bajara olganday his qilsam ko‘nglim ko‘tariladi;

b) Mening mehnatim atrofdagilarga foyda keltirsa ko‘nglim ko‘tariladi, chunki bu har qanday ishda muhim;

v) Ishlash doim yoqimli bo‘lganligi uchun, har qanday ishni bajarishdan ko‘nglim ko‘tariladi;

6.

a) Yangi bilim olish jarayoni meni jalb etadi;

b) Qo‘limdan kelgan barcha ishni bajarishni yoqtiraman;

v) Atrofdagilarga foyda keltiradigan ish jarayoni meni jalb etadi;

7.

a) Har qanday muhim va mas’ul ish qiziqarli bo‘lishiga ishonchim komil;
b) Har qanday ish qiziqarli bo‘lishiga ishonchim komil, agarda u menga foyda keltiradigan bo‘lsa;
v) Har qanday ish qiziqarli bo‘lishiga ishonchim komil, agar uni ustalik bilan bajara olsam;

8.

a) Menra o‘z ishimning ustasi bo‘lish yoqadi;
b) Menga biror ishni kattalarning yordamisiz bajarish yoqadi;
v) Menra doim yangi narsa o‘rganish yoqadi;

9.

a) O‘qish menga qiziqarli;
b) Atrofdagilarga seziladigan ishlarni qilish menga qiziqarli;
v) Menga mehnat qilish qiziqarli;

10.

a) O‘ylaymanki, bajargan ishlarimning natijalari atrofdagilarga sezilsa yaxshi bo‘lardi;
b) O‘ylaymanki, har qanday ishda muhimi natijadir;
v) O‘ylaymanki, hohlagan ishlarni mustaqil qilish uchun tezroq kerakli bilimlarni olish lozim;

11.

a) Men faqat o‘zimga yoqadigan ishlar bilan shug‘ullanishni hoxlar edim;
b) Men har qanday ishni qo‘limdan kelganicha yaxshi bajarishni hohlayman, chunki shu yo‘l bilan haqiqatdan ham yaxshi qilsa bo‘ladi;
v) Mening ishim atrofdagilarga foyda keltirishini hohlayman, chunki bu mening kelajak hayotimda yordam beradi;

12.

a) Ko‘pchilikning qo‘lidan kelmaydigan ishni qoyilmaqom qilib qo‘yish men uchun qiziqarli;
b) Avval qilolmaydigan ishimni o‘rganish men uchun qiziqarli;
v) O‘ziga diqqatni jalb etadigan ishlarni bajarish men uchun qiziqarli, **13.**

a) Men hamma qadrlaydigan ishni bajarishni yaxshi ko‘raman;
b) Menga halaqit berishmasa, barcha ishlarni bajarishni yaxshi ko‘raman;

v) Qiladigan ishim borligini yaxshi ko‘raman;

14.

a) Men turli ishlarni bajarishni hohlayman, chunki menga natijalari qiziqarli;

b) Men foyda keltiradigan ishni bajarishni hohlayman;

v) Menga yoqadigan ishni bajarishni hoxlayman;

15.

a) Har qanday ishda eng qizig‘i uning bajarilish jarayoni deb hisablayman;

b) Har qanday ishda eng qizig‘i uning natijasi deb hisoblayman,

v) Har qanday ishda eng qizig‘i, boshqa odamlarga uning qanchalik muhimligi deb hisoblayman;

16.

a)Menga kelajakda kerak bo‘ladigan barcha narsalarni o‘rganish yoqadi;

b) Menga kerak 6o‘lsa, bo‘lmasa yangi bilimlar olish yoqadi;

v) Menga o‘qish jarayonining o‘zi yoqadi;

17.

a) Meni o‘qishdan so‘ng ochiladigan manzara qiziqtiradi;,

b) Meni o‘qishdan so‘ng kerakli odam bo‘lishim qiziqtiradi;

v) O‘qishning menga foydaliligi qiziqtiradi;

18.

a) O‘rgangan narsam menga doim kerak bo‘lishiga ishonchim komil;

b) Menga o‘qish doim yoqishiga ishonchim komil;

v) O‘qishdan so‘ng kerakli odam bo‘lishimga ishonchim komil;

19.

a) Ishimning natijasi atrofdagilarga ko‘rinishi menga yoqadi,

b) O‘z ishimni ustalik bilan bajarish menga yoqadi;

v) O‘z ishimni boshqalar bajara olmaydigan darajada yaxshi bajarish menga yoqadi;

20.

a) Topshirilgan vazifani sifatli bajarish men uchun qiziqarlidir;

b) Atrofdagilar sezadigan ishni bajarish men uchun qiziqarlidir;

v) Ishxonada nima bilan bandligimni hamma bilishi men uchun qiziqarlidir

Natijalar tahlili

Kasbiy faoliyat motivlari orasidan 4 asosiy guruhni ajratsa bo‘ladi:

1. O‘z mehnatining motivlari, odam uchun mehnat jarayonining muhimligini bildiradi.
2. Mehnatining ijtimoiy ahamiyati motivlari jamiyat tomonidan talab qilinayotgan kasbni tanlashga bog‘liqligi haqida guvohlik qiladi.
3. O‘zini shaxs sifatida tasdiqlash, kasbni tanlashda o‘zining qobiliyatini mehnatda amalga oshirish imkoniyatini ko‘rsatadi.
4. Kasbiy mohirlik motivlari mehnatda yaxshiroq natijaga erishishni ko‘rsatadi.

Javob varaqasini to‘ldirgandan so‘ng har bir ustunchalardagi doirachalar yig‘indisi hisoblanadi. Avval har bir 4 — ta guruhlarning absolyut ballar yig‘indisi topiladi. Buning uchun har bir ustunlarning alohida yig‘indisi topiladi: 1.1, 1,2, 1.3, 1A, 1.5, 1.6, 2,1, 2.b va hokazo.

Biroq, turli xil motivlar guruhida miqdorlar bir xilda ajratilmaydi. Ularni ballarning absolyut yig‘indisini solishtirish uchun 1 va 2 guruhni ikkiga; 3 va 4 ni uchga ko‘paytirish lozim.

Topilgan yig‘indi bir xil ballar «og‘irligiga» ega bo‘lib, bir — biri bilan solishtirish mumkin. Ballarning eng katta miqdori dominant (ustun keluvchi) motivga mosdir.

JADVAL VARAQASI

Familiyasi, ismi_____

Maktab №_____ Sinf _____ O‘tkazilgan sana_____

1.1 1 a 2 a 13 a	1.2 4 b 5 v 13 b	1.3 9 v 13 v 15 v	1.4 10 b 14 a 15 b	1.5 7 a 14 b 15 v	1.6 8 b 11 a 14 v
2.1 1 b 3 a	2.2 4 v 6 a	2.3 9 a 16 v	2.4 10 v 12 b	2.5 7 b 17 b	2.6 8 v 17 v

16 a	16 b	18 a	17 a	18 b	18 v
3.1	3.2	3.3	3.4		
11v 2v 3b	5a 6b 11b	7v 12a 19b	8a 19v 20a		
4.1 2b 3v 1v	4.2 4a 5b 6v	4.3 9b 12v 20v	4.4 10a 19a 20b		

DIFFERENSIAL DIAGNOSTIK SO‘ROVNOMA

Maqsad: o‘quvchilarning kasbiy qiziqishlari, qobiliyatlarini aniqlashga mo‘ljallangan bo‘lib, maktab psixologining kasbiy proforientatsion yo‘nalishda ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan. Mashg‘ulotning borishi: Bu metodika yordamida sinaluvchiga faoliyatning u yoki bu turidan qaysi biri unga ko‘proq ma’qul ko‘rishligi va shunga mos ravishda qaysi kasbga moyilligi aniqlanadi. Atoqli psixolog olim E.A. Klimov kasblarning besh asosiy tipini farqlaydi (tabiat, texnika, odam, belgilar tizimi, badiiy obraz). Ko‘rsatma: «Faraz qilaylik tegishli ta’limni olganingizdan so‘ng. Siz har qanday ishni bajara oladigan bo‘lasiz. Agar Sizga taklif qilingan ikki imkoniyatdan faqat birini (ulardan biri yoki ikkalasining ham sizga yoqishi yoki yoqmasligidan qat’iy nazar) tanlashingizga to‘g‘ri kelgundek bo‘lsa, unda Siz qaysi birini ma’qul ko‘rgan bo‘lardingiz? O‘z javoblaringizni, javoblar uchun berilgan varaqda, tegishli kataklarda qayd etilgan. Siz tanlagan javob variantingiz tartib raqami va harfini doira ichiga olib qo‘yish bilan bildiring

JAVOB VARAQASI:

O — Tt	O — Ta	O — O	O — Bt	O - Bo
1a	1b	2a	2b	3a
3b	4a	4b	5a	5b
6a		6b		7a
	7b	8a		8b

10a	9a		9b	
11a			10b	
13b	11b	12a	12b	13a
16a	14a	14b	15a	15b
		16b		17a
20a	17b	18a		18b
	19a		19b	
			20b	

Savollar: Men ma'qul ko'raman

1a. Hayvonlarga qarash (ularni boqish, parvarish qilish)	yoki	1b.Mashina priborlari ga xizmat qilish
2a.Bemor kishilarga yordam berish, ularni davolash	yoki	2b. Jadvallar, sxemalar, hisoblash mashinalari uchun dasturlar tuzish.
3a. Kitob bezaklari, plakatlar, badiiy otkritkalar, gramplastinkalar sifatini kuzatib borish.	yoki	3b. O'simliklar holatini, o'sishini kuzatish.
4a. Materiallarni (yogoch, gazlama, metall, plastmassa va h.k.) karta ishlash.	yoki	46. Mahsulotlarni (is te'molchilarga etkazish, reklama qilish, sotish)
5a. Ilmiy — ommabop kitob, maqolalarni muhokama qilish	yoki	56. Badiiy kitoblarni (yoki pesa, konsert larni muhokama qilish.
6a. Biron — bir zotli kichik hayvonni	yoki	6b. O'rtoqlaringiz (yoki o'zingizdan kichik

boqish, parvarish qilish.		bolalarni) biron-bir faoliyat (mehnat, o‘qish, sport)ni bajarish uchun shug‘ullantirish.
7a. Rasm, tasvirlardan nusxalar ko‘chirish (yoki musiqa asboblarini sozlash, tuzatish)	yoki	76. Biron-bir yuk tashuvchi (ko‘taruvchi) vositalarni (kran, traktor, teplovoz va boshqa) boshqarish
8a. Odamlarga (ma’lumot byurolarida, sayohatlarda va boshqa) ularga kerakli ma’lumotlarni berish, tushuntirish.	yoki	86.Ko‘rgazmalarni, peshtaxtalarni bezashda (yoki pesa, konsertlarni tayyorlashda) ishtirok etish.
9a. Buyumlar,narsalar (kiyim, texnika)ni, uy — joyni ta’mirlash, tuzatish.	yoki	96. Jadvallar, tekstlar, rasmlardan xatolarini qidirib topish va tuzatish.
10a. Hayvonlarni da’volash.	yoki	106. Hisob — kitob ishlarini bajarish.
11a. O‘simliklarni yangi navlarini yaratish	yoki	11b. Sanoat mahsulot lari (mashinalar, kiyim lar, uy, oziq-ovqat mahsulotlari va h.) ning yangi turlarini loyihalashtirish,yaratish.
12a. Odamlar o‘rtasidagi nizo, janjallarni hal qilish (ishontirish, tushuntirish, rag‘batlantirish)	yoki	126. Chizmalar, sxemalar, jadvallarni o‘rganish (tekshirish, aniqlash, tartibga keltirish)
13a. Badiiy havaskorlik to‘garaklari ishlarini o‘rganish, kuzatish.	yoki	13b. Mikroblar hayotini o‘rganish.

14a. Meditsina priborlari, yoki apparatlarni ishlatish, ularga xizmat qilish.	yoki	14b. Odamlarga yaralan ganda, shikastlanganda, kuyganda tibbiy yordam ko‘rsatish.
15a. Kuzatilayotgan voqealar, yoki hodisalar, o‘lchanayotgan ob’ektlar va boshqalar haqida aniq hisobotlar yozib borish.	yoki	15b. Voqealar (kuzatilayotgan yoki ular haqida o‘qigan)ni badiiy ifodalash.
16a. Kasalxonada laboratoriya analizlarini qilish.	yoki	16b. Bemorlarni qabul qilish, ularni tekshirish, ular bilan suhbatlashish va ularni da’volashga yo‘llash.
17a. Xona devorlarini, narsalar yoki sirtini bo‘yash va bezash.	yoki	17b. Binolarni ta’mir lash yoki mashina priborlarini yig‘ish
18a. Tengdoshlaringiz yoki kichik yoshdagi bolalarni (teatr, muzeylarga) madaniy sayohatlarini, ekskursiyalarini) tashkil etish	yoki	18b. Sahnada o‘ynash, konsertlarda ishtirok etish.
19a. Chizmalar bo‘yicha detallarni buyumlar (mashina, kiyimlar)ni tayyor lash, binolarni qurish.	yoki	19b. Chizmachilik bilan shug‘ullanish, chizmalar, kartalardan nusxalar ko‘chirish.
20. O‘simliklar kasalliklari va bog‘ — o‘rmon zararkunan dalariga qarshi kurashish.	yoki	206. Klavishli mashina larda (kompyuter, teletayp va boshqalar)da ishlash.

So‘rov natijalarini qayta ishlash

DDS savollari shunday tartibda guruhlanganki, ularga berilgan javoblar faoliyatning tufli sohalarini farqlash imkonini beradi. Bu o‘rinda kasb turlari shartli ravishda quyidagicha qisqartirib olindi:

1 ustunda — «Odam — tabiat» — O — Tt; 2 ustunda — «Odam — texnika» — O — Ta; 3 ustunda — «Odam — odam» — O — O; 4 ustunda — «Odam — Belgilar tizimi» — O — Bt; 5 ustunda — «Odam — badiiy obraz» — O — Bo.

Sinaluvchilarga yuqorida ko‘rsatilgan javob varaqasi tarqatilib va ular ko‘rsatmada ta’kidlaganidek, o‘z javobini tegishli raqam va harfni doira ichiga olish bilan belgilab bo‘lishganlaridan so‘ng, javob varaqalari yig‘ib olinib, ular tadqiqotchi tomonidan qayta ishlab chiqilishi ham mumkin, yoki natijalarni qayta ishlashda sinaluvchilarning o‘zlaridan ham foydalanish mumkin. Bunda ularning o‘zlari o‘z javob varaqasidagi har bir ustun bo‘yicha belgilangan javoblar miqdorini hisoblab chiqadilar.

Qaysi ustun bo‘yicha belgilangan javoblar sonining ko‘p bo‘lishi sinaluvchining shu toifa kasblarga moyilligini bildiradi. Agar hamma ustunlar bo‘yicha javoblar miqdori bir xil bo‘lib chiqsa, bu qiziqishlar yoyilib ketganligini, u yoki bu kasbga nisbatan qiziqishning shakllanmaganligini yoki yorqin ifodalangan ustunlikning yo‘qligini bildiradi. Bunday hollarda tadqiqotdan so‘ng sinaluvchi bilan bafurja suhbatlashish, unga qiziqishlarini aniqlab olishga yordam berish lozim.

Agar sinaluvchida u yoki bu kasbga moyillik yorqin ifodalangan bo‘lsa va u konkret bir kasbni tanlagan bo‘lsa, unda aynan shu kasbni tanlash motivi qanday ekanligini bilish zarurati ham yuzaga kelib qolishi mumkin. Bu o‘rinda psixolog yuqori «Kasb tanlash motivatsiyasini aniqlash» - deb nomlangan metodikadan foydalanishi mumkin.

SHAXSNING KOMMUNIKATIV VA TASHKILOTCHILIK QOBILIYATLARI (KTQ) NI O‘RGANISH USULI

Maqsad: O‘quvchilarning kasbiy qiziqishlari, qobiliyatlarini aniqlashga mo‘ljallangan bo‘lib, maktab psixologining kasbiy proforientatsion yo‘nalishda ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

Mashg‘ulotning borishi: Shaxsning tashkilotchilik va kommunikativ qobiliyatlarini diagnostika qilish metodikasi psixologik tashhisda va katta sinf o‘quvchilariga kasbga maslahat berishda keng qo‘llaniladi.

Tadqiqotni o‘tkazish uchun KTQ savolnomani va varaqasini tayyorlash kerak. Tadqiqotni individual va guruhda o‘tkazish mumkin.

Tekshiruvchilarga javob varaqalarini tarqatib bo‘lgach, qo‘llanmalarni o‘qib berish kerak.

Quyida keltirilgan tasdiqlarni yaxshilab o‘qib chiqing va bu tasdiqlarga rozi bo‘lsangiz «+» belgisini, agar rozi bo‘lmasangiz «-» belgisini qo‘ying. Noaniq savolni suiste’mol qilmaslikka harakat qiling. Har bir detal ustida uzoq o‘ylamaslik, aniq holatlarni ko‘z oldingizga keltiring. Javob uchun ko‘p vaqt sarflamang, miyangizga kelgan birinchi tabiiy javobni bering.

Savollarni qoldirmasdan, tartibi bilan javob bering. To‘g‘ri va samimiy javob bering. O‘z javoblaringizni yaxshi tasavvur etishga harakat qilmang, ular haqiqiy bo‘lishi lozim. Har bir savolga berilgan javob umuman ko‘rib chiqilmaydi, bizni faqatgina umumiy ko‘rsatgichlar qiziqtiradi.

KTQ savolnomasi

1. Har doim muloqotda bo‘lib turadigan do‘stlaringiz ko‘pmi?
2. Do‘stlaringizni ko‘pchiligini fikringizni qabul qilishga og‘dirib olasizmi?
3. Do‘stlaringizdan biri sizni ranjitsa, uzoq vaqt xafa bo‘lib yurasizmi?
4. Hosil bo‘lgan keskin vaziyatda har doim ham yo‘l topishga qiynalasizmi?
5. Har xil kishilar bilan tanishishga sizda intilish bormi?
6. Jamoat ishlari bilan shug‘ullanish sizga yoqadimi?
7. Sizga odamlar ichida bo‘lishdan ko‘ra kitob yoki boshqa ishlar bilan vaqt o‘tkazish yoqadimi?
8. Ko‘zlagan maqsadlaringizni amalga oshirishda to‘siq bo‘lsa, siz ulardan osongina chekinasizmi?
9. O‘zingizdan katta yoshdagi kishilar bilan osongina muomalaga o‘ta olasizmi?
10. Siz o‘z do‘stlaringiz bilan ko‘ngil ochar o‘yinlar o‘ylab topishni yoqtirasizmi?
11. Sizga yangi kompaniyaga kirishib ketish qiyinmi?
12. Bugungi qilinadigan ishlarni boshqa kunlarga tez- tez qoldirib turasizmi?
13. Notanish odamlar bilan muomalaga kirishish sizga oson bo‘ladimi?
14. Do‘stlaringiz sizni fikringiz bilan ish tutishlariga intilasizmi?
15. Yangi jamoaga ko‘nikish sizga qiyinmi?
16. Do‘stlaringiz o‘z majburiyatlarini bajarishmasa, sizda ular bilan kelishmovchilik chiqmasligi rostmi?
17. Qulay vaziyat bo‘lib qolsa, siz yangi kishilar bilan tanishishga va suhbatlashishga intilasizmi?
18. Muhim ishlarni bajarishda tashabbusni ko‘pincha o‘zingizni qo‘lingizga olasizmi?
19. Atrofdagi odamlar sizni bezovta qiladimi va siz yolg‘iz bo‘lishni istaysizmi?
20. Siz notanish sharoitda o‘zingizni noqulay his qilishingiz rostmi?
21. Sizga har doim odamlar orasida bo‘lish yoqadimi?
22. Boshlagan ishingizni bitira olmasangiz, bezovta bo‘lasizmi?
23. Odamlar bilan tanishayotganda tashabbus ko‘rsatish kerak bo‘lsa, o‘zingizda noqulaylik, hayajon, tortinishni his etasizmi?
24. Do‘stlaringiz bilan tez-tez bo‘lgan muloqotdan toliqasizmi?
25. Jamoa o‘yinlarida ishtirok etishni yoqtirasizmi?

26. Do‘stlaringizga tegishli bo‘lgan muammolarni echish uchun tez-tez o‘z tashabbusingizni ko‘rsata olasizmi?
27. Siz yaxshi tanimagan odamlar ichida o‘zingizni erkin tuta olmasligingiz rostmi?
28. Siz o‘z haqqoniyligingizni isbotlash uchun kamdan - kam intilishingiz rostmi?
29. Yaxshi tanimagan guruhga jonlanish kiritish, siz uchun uncha qiyin emas deb hisoblaysizmi?
30. Siz maktab jamoat ishlariga qatnashasizmi?
31. Siz o‘z tanishlaringiz sonini bir necha odamlar bilan cheklatishga intilasizmi?.
32. Agar fikringizni do‘stlaringiz birdaniga qabul qilmasa, siz uni himoya qilish uchun intilmasligingiz rostmi?
33. Begona guruhga tushib qolsangiz, o‘zingizni erkin tutasizmi?
34. Siz har xil tadbirlar tashkil qilishga jon deb kirishasizmi?
35. Katta guruh oldida so‘zlaganda o‘zingizni dadil va bosiq tutmasligingiz rostmi?
36. Siz ishga doir uchrashuvlarga tez – tez kech qolib borasizmi?
37. Do‘stlaringiz ko‘pligi rostmi?
38. Do‘stlaringiz ichida diqqat markazida tez-tez bo‘lib turasizmi?
39. Yaxshi tanimagan odamlar bilan muloqatda bo‘lganda siz o‘zingizni noqulay his qilasizmi?
40. Do‘stlaringiz davrasida o‘zingizni uncha dadil his qila olmasligingiz rostmi?

DESHIFRATOR
Kommunikativ qobiliyatlar

1	+	11	-	21	+	31	-
3	-	13	+	23	-	33	+
5	+	15	-	25	+	35	-
7	-	17	+	27	-	37	+
9	+	19	-	29	+	39	-

DESHIFRATOR
Tashkilotchilik qobiliyatlar

2	+	12	-	22	+	32	-
4	-	14	+	24	-	34	+
6	+	16	-	26	+	36	-
8	-	18	+	28	-	38	+
10	+	20	-	30	+	40	-

Natijalarni qayta ishlash

1. Tekshiruvchilarni javoblarini deshifrator bilan solishtirib, kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarga to‘g‘ri kelganini hisoblab chiqing.
2. Kommunikativ (Kk)va tashkilotchilik (Kt) qobiliyatlarini baholash koeffitsentini quyidagi formula orqali hisoblab chiqing.

(Kk)q to‘g‘ri kelgan javoblarning soni X 0,05

(Kt)q to‘g‘ri kelgan javoblarning soni X 0,05

Masalan: tekshiruvchini kommunikativ qobiliyatlari deshifrator bilan to‘g‘ri kelgan javoblar soni 18, tashkilotchilik qobiliyatlari esa deshifrator bilan to‘g‘ri kelgan javoblar soni 15. Demak, kommunikativ qobiliyatni baholash koeffitsenti quyidagi teng (Kk)q 18x 0,05 q0,90 tashkilotchilik qobiliyatlarini baholash koeffitsenti (Kt)q 15x0,05q0.75

Shu metodika orqali olingan ko‘rsatkichlar 0-1 o‘zgarishi mumkin. 1-ga yaqin ko‘rsatkichlar kommunikativ yoki tashkilotchilik qobiliyatlarini yuqori darajasini bildiradi.

0-ga yaqin ko‘rsatgichlar past darajasini bildiradi.

Ko‘rsatgichlarni sifatli baholash uchun olingan koeffitsentlarni baholash bilan solishtirib chiqish kerak.

Kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarni baholash shkalasi

Kk	Kt	Baho	Qobiliyatning ifodalanish darajasi
0,10 - 0,45	0,20 - 0,55	1	Past
0,46 - 0,55	0,56 - 0,65	2	O‘rtadan past
0,56 - 0,65	0,66 - 0,70	3	O‘rtadan yuqori
0,66 - 0,75	0,71 - 0,80	4	
0,76 - 1,00	0,81 - 1,00	5	Juda yuqori

Natijalarni tahlil qilishda parametrlarni ko‘zda tutish kerak:

1. baho olgan tekshiriluvchilar kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari past darajasi bilan ta’riflanadi.
2. baho olgan tekshiriluvchilar kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari o‘rtadan past ta’riflanadi. Ular muloqotga intilashmaydi, ya’ni guruhda (jamoada) o‘zlarini erkin tuta olmaydi, vaqtni yolg‘iz o‘tkazishni afzal ko‘radi, o‘zlarini tanishuvlarini chegaralab qo‘yadi, odamlar bilan muloqot o‘rnatishga va auditoriya oldida gapirishga qiynaladi, o‘z fikrini himoya qila olmaydi, ko‘p ishlarda mustaqil qaror qabul qilishda o‘zlarini chetga tortishni afzal ko‘radi.
3. baho olgan tekshiriluvchilar kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari o‘rta darajalik deb hisoblanadi. Ular odamlar bilan muloqot o‘rnatishga intiladi, o‘zlarini tanishuvlarini chegaralamaydi, o‘z fikrini himoya qila oladi, ishlarini rejalaydi, lekin qobiliyatlarini yuqori turg‘unlik bilan ta’riflab rivojlantirish uchun katta va jiddiy tarbiyaviy ishlar olib borish kerak.
4. baho olgan tekshiriluvchilar kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari yuqori darajalik deb hisoblanadi. Ular yangi vaziyatlarda o‘zini yo‘qotmaydi, do‘stlarni tez topadi, tanishuvlar darajasini har doim kengaytirishga intilishadi, jamoat ishlari bilan shug‘ullanadi, yaqinlari va do‘stlariga yordam beradi, jamoat tadbirlarini tashkil qilishga qatnashadi, og‘ir vaziyatda mustaqil qarorlar qabul qila oladi. Aytib o‘tilganlarni ular majburiy emas, o‘z ichki intilishi bilan qilishadi.
5. baho olgan tekshiriluvchilar kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari juda ham yuqori darajali deb hisoblanadi. Ular muloqot va tashkiliy faoliyatga katta ehtiyoj his etishadi, shunga faol intilishadi, og‘ir vaziyatlarda tez yo‘l topa olishadi. Yangi jamoada o‘zini erkin tutishadi, tashabbuskor, muhim ishda yoki murakkab vaziyatda mustaqil qaror

qabul qilishni afzal ko‘radi, o‘z fikrini himoya qila olishadi, do‘stlari ularning fikrlari bilan ish tutishlariga intiladi, notanish kompaniyaga jonlanish kirgiza olishadi, har xil o‘yinlar tashkil qilishni yaxshi ko‘rishadi. O‘zlari kommunikativ va tashkilotchilik faoliyatlarini qoniqtiradigan ishlarni izlab yurishadi.

JAVOB VARAQASI

Familiyasi, ismi _____

Tashhis o‘tkazilgan vaqti_____

1	2	3	4	5	6	7	8
9	10	11	12	13	14	15	16
17	18	19	20	21	22	23	24
25	26	27	28	29	30	31	32
33	34	35	36	37	38	39	40

JADVAL VARAQASI

Familiyasi, ismi_____

Maktab №_____ Sinf _____ O‘tkazilgan sana_____

1.1 1 a 2 a 13 a	1.2 4 b 5 v 13 b	1.3 9 v 13 v 15 v	1.4 10 b 14 a 15 b	1.5 7 a 14 b 15 v	1.6 8 b 11 a 14 v
2.1 1 b 3 a 16 a	2.2 4 v 6 a 16 b	2.3 9 a 16 v 18 a	2.4 10 v 12 b 17 a	2.5 7 b 17 b 18 b	2.6 8 v 17 v 18 v
3.1	3.2	3.3	3.4		
11v 2v 3b	5a 6b 11b	7v 12a 19b	8a 19v 20a		
4.1 2b 3v 1v	4.2 4a 5b 6v	4.3 9b 12v 20v	4.4 10a 19a 20b		

O‘quvchilarni kasbga yo‘nalganligini aniqlash

O‘tkazish tartibi: quyida sizga ishda va bo‘sh vaqtlardagi mashg‘ulotlar va turli kasblarga oid mehnat vazifalari haqidagi 88 ta savol havola etilmoqda. Savollar tartiblangan bo‘lib javoblar varaqasidagi raqamlarga mos tushadi. Siz o‘z qiziqishlaringizni h isobga olgan holda har bir savolga bo‘lgan javobingiz ni 1,2,3, yoki 4 ball miqdorida baholashingiz lozim bo‘ladi. Quyiladigan ballarning ma’nosi quyidagicha izohlanadi:

-Umuman qiziqarli emas-1 ball;
-Unchalik qiziqarli emas -2 ball;
-Qiziqarli -3 ball;
-J uda qiziqarli 4 ball;

Savollar ichida sizga notanish bo‘lgan bir qator kasblar ham keltirilgan. Bunday hollarda Siz: “Ushbu kasblar haqida nimalarni bilasiz?”savoliga taxminan javob berishingiz lozim. uzoq uylamang ko‘proq xayolingizga kelgan fikrlaringizn javob varaqasiga tushiring.

Savollar to‘plami:

Menga yoqadi:

1. Mashina va mexanizmlar bilan ishlash
2. Metroda sayr qilish
3. Radiohavaskorlik
4. Binolar maketini tayyorlash
5. Vodoprovodni tuzatish
6. Rivojlanishi sust bolarga yordam berish
7. Traktorlarga texnik xizmat ko‘rsatish
8. Bolalarni maktabga tayyorlash
9. Film ko‘rish
10. Pul foyda va zararni hisoblash
11. Radioteleapparaturalarni tuzatish
12. Velosoped tuzatish
13. Parashyutdan sakrash
14. Kompyuterda ishlash
15. Rangli rasm solish
16. Gaz plitalarini tuzatish
17. Bemorlarni tinchlantirish va ularga yordam ko‘rsatish
18. Ekskavator bilan ariq va zovurlarni kavlash
19. Bolalar bilan ishlash
20. Kuy chalish
21. Jamoat tartibini saqlash

22. Oziq-ovqatlarni bezash garnirlar tuzish
23. Mashinalarni kavlashtirish
24. Avtobus haydash
25. Radiodetallarni almashtirish
26. G‘isht terish
27. Obodonlashtirish
28. Dorishunoslik
29. O‘rmon kesish daraxtlarni tartibga solish
30. To‘garak ishini tashkil qilish
31. Raqsga tushish
32. Aksiya bozorini kuzatish
33. Ko‘pchilikka taom pishirish
34. Metallarni biriktirish
35. Samolyotlarga texnik xizmat ko‘rsatish
36. Hovliga chiroq tushirish
37. Yog‘ochga ishlov berish
38. Rezba chiqarish
39. Bemorlarga yordam ko‘rsatish
40. Mevali ko‘chatlar etishtirish
41. Bolalarga kurash usullarini o‘rgatish
42. Ashula aytish
43. Tejamkorlik bo‘yicha maslahatlar berish
44. Xaridni rejalashtirish
45. Ob-havoni oldindan aniqlash
46. Rolli musobaqalarida qatnashish
47. O‘t o‘chirish
48. Metalarni payvandlash
49. Aholini suv bilan ta’minlash
50. Doya-enaga faoliyati
51. Erga ishlov berish
52. Suvda suzish cho‘milish
53. She’r yodlash va ifodali o‘qish
54. Matematik misollar echish va hisob-kitob qilish
55. Sochni zamonaviy turmaklarini o‘ylab topish
56. Bichish tikish
57. Dayoda yuklarni tashish
58. Akkumulyator tuzatish
59. Bino poydevorini quyish
60. O‘rin-joy xonadonni yig‘ishtiruvchi rabot yaratish

61. Bemorlarn parvarishlash
62. Mashinada paxta terish
63. Bolalar va yoshlarning bo‘sh vaqtlarini tashkil etish bilan shug‘ullanish
64. Latifa aytish va eshitish
65. Hujjatlar bilan ishlash
66. Dazmol kir yuvish mashinasi kabilarni tuzatish
67. Mebel yasash
68. Poezdda sayohat qilish
69. Pochta aloqasi operatori
70. Oyna qirqish
71. Liftda qavatga ko‘tarilish
72. Nuqsonli bolarga yordam berish
73. O‘simlik va hayvonlarni parvarishlash
74. Sport musobaqalaini tashkil qilish
75. Loydan qo‘g‘irchoq yasash
76. Tejamkorlik
77. Shirinliklar tayyorlash
78. Er osti boyliklarini izlab topish
79. Avtopoygalarni tomosha qilish
80. Kuygan lampochkalarni yangilash
81. Devorga gulqog‘oz yopishtirish bo‘yash
82. Elektr- gaz payvandlash ishlari bilan shug‘ullanish
83. Dezinfeksiyalash
84. Akvariumda baliq boqish
85. Bolalarga o‘qishni yozishni o‘rgatish
86. Afisha va e’lonlar chizish
87. Bozordagi narx navoni kuzatib borish
88. Dasturxon tuzash, mehmon kutish

1-guruh Sanoat

Sizda sanoat sohasiga mansub bo‘lgan kasblarga qiziqish va moyillik mavjud. Siz samolyotsozlik, energetika, avtomobilsozlik, geologiya, metallurgiya, kimyo va engil sanoat oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha mutaxassislar tayyorlaydigan kasb-hunar kollejlari shuningdek matematika fizika kimyo fanlarini chuqur o‘rganishga yo‘naltirilgan akademik litseylarda ta’lim olishingiz mumkin.

2-guruh Transport

Sizda avtomobillarni boshqarish ta’mirlash va ularga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan kasblarga moyillik yuqori. Shu bois siz transport vositalari bilan bog‘liq bo‘lgan kasblar tayyorlaydigan kasb-hunar kollejlarida yoki matematika va fizika fanlari yo‘nalishidagi akademk litseylarda tahsil olishingiz mumkin.

3-guruh Aloqa

Sizda aloqa bilan bog‘liq kasblarga moyillik yuqori. Siz telekommunikatsiya radio pochta elektron uskunalarni boshqarish, xalqaro aloqa telefon telegraf va boshqa sohalar bo‘yicha kasbiy tayyorgarlik yo‘nalishidagi kasb-hunar kollejlari va fizika fanini chuqur o‘rgatuvchi akademik litseylarga o‘qishga borishingiz mumkin.

4-guruh Qurilish

Sizda qurilish sohasidagi kasblarga qiziqish mavjud. Sizga qurilish avtomobillari va mashinalarini boshqarish sanitariya-texnik tizimlar temir-beton mahsulotlari va konstruksiyalar, duradgorlik kabi kasblar tayyorlaydigan kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘qishga tavsiya etiladi.

5-guruh Uy-joy komunal xo‘jalik

Sizda suv gaz ta’minoti turar joy va jamoat binolaiga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan kasblarga qiziqish mavjud. Siz uy-joy va kommunal xo‘jaligi sohasi uchun kasblar tayyorlaydigan kasb-hunar kollejlarida yoki aniq fanlar yo‘nalishidagi akademik litseylarda ta’lim olishingiz mumkin.

6-guruh Tibbiyot

Sizda sog‘liqni saqlash sohasining umumiy amaliyot stomatologiya ortopediya farmatsiya tibbiy optika va labaratoriya tashxisi sohalaridagi kasblarga qiziqishingiz yuqori. Tibbiyot yo‘nalishidagi kasb-hunar kollejida yoki kimyo va biologiyaga ixtisoslashgan akademik litseylarda o‘qishingiz maqsadga muvofiq bo‘ladi.

7-guruh qishloq va o‘rmon xo‘jaligi

Sizga qishloq xo‘jaligi va o‘simlikshunoslik bilan bog‘liq bo‘lgan kasblar yoqadi. Sizga qishloq xo‘jaligi texnikalarini boshqarish ta’mirlash va xizmat ko‘rsatish gidromelioratsiya fermer xo‘jaligi agronomiya zootexnika o‘simlikshunoslik chorvachilik sohalari bo‘yicha kasblar tayyorlaydigan yoki biologiya fanini chuqur o‘rganuvchi akademik litseylarda tahsil olishni tavsiya etiladi.

8-guruh Pedagogika

Sizda bolalarni tarbiyalash parvarish qilish va ularni qo‘llab-quvvatlashga bog‘liq kasblarga moyillik mavjud. Siz maktabgacha ta’lim, maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar boshlang‘ich sinflarda sport va musiqa ta’limiga oid kasblarga tayyorlaydigan kasb-hunar kollejlarida ta’lim olishingiz mumkin.

9-guruh San’at va madaniyat

Siz tasviriy san’at rassomchilik xoreografiya teatr hamda madaniy oqartuv ishlari qiziqtiradi. Sizga madaniyat va san’at yo‘nalishidagi kasblarga tayyorlaydigan kasb-hunar kollejlarida ta’lim olish ni tavsiya etiladi.

10-guruh Ijtimoiy-iqtisodiy soha

Sizda buxalteriya menejment marketing bank huquqshunoslik yong‘in xavfsizligi avtoinspeksiya ijtimoiy ta’minot va bojxonaga oid kasblarga qiziqish mavjud.

Sizga ijtimoiy iqtisodiy sohadagi kasb-hunar kollejlarida va aniq fanlar yoki ijtimoiy yo‘nalishdagi akademik litseyda ta’lim olishn tavsiya etiladi.

11- guruh Savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat ko‘rsatish

Sizda umumiy ovqatlanish savdo xizmat ko‘rsatish radiotexnika va teleapparaturalarni ta’mirlash maishiy gaz va mashinalarni ta’mirlash kino-fototexnika xizmatlari ko‘rsatish sohalariga qiziqish mavjud.

Sizga savdo umumiy ovqatlanish va xizmat ko‘rsatish bo‘yicha kasblarga tayyorlovchi kasb-hunar kollej yoki aniq fanlar akademik litseylarda o‘qish tavsiya etiladi.

Javoblar varaqasi

№																	Jami
1	1		12		23		34		45		56		67		78		
2	2		13		24		35		46		57		68		79		
3	3		14		25		36		47		58		69		80		
4	4		15		26		37		48		59		70		81		
5	5		16		27		38		49		60		71		82		
6	6		17		28		39		50		61		72		83		
7	7		18		29		40		51		62		73		84		
8	8		19		30		41		52		63		74		85		
9	9		20		31		42		53		64		75		86		
10	10		21		32		43		54		65		76		87		
11	11		22		33		44		55		66		77		88		

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Kasbiy motivatsiyani aniqlash uchun qanday metodikalardan foydalanish mumkin?
2. Kasbiy saralangandik xususiyatlariga nimalar kiradi?
3. Savolnomalar tuzishda, qo‘llashda qanday xususiyatlarga e’tibor berish lozim?
4. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar bilan olib boriladigan qanday metodikalarni bilasiz?
5. Kasbiy qiziqshlarni aniqlash uchun berilgan savolnomani tahlillab bering
6. Kasbiy yo‘nalganlikni aniqlash uchun foydalaniladigan savolnomalardan misol keltiring
7. Kasb tanlashda qaysi yo‘nalishlarni bilasiz?
8. O‘quvchilar bilan shug‘ullanishda suhbat yoki kuzatuv metodi qaysi biri samariliroq?
9. Kommunikativ qobiliyatlarning rivojlanishi kasb tanlash jarayonida qanday ahamiyatga ega?
10. Mustaqil kasb tanlash jarayoniga yo‘llashda kimlarnig ahamiyati katta?

Tushunchalarga ta’rif bering:

• **Kommunikativ-**
• **Qobiliyat-**
• **Mustaqil kasb tanlash-**
• **Kasbiy tayyorgarlik-**
• **Savolnoma-**
• **Metodika-**

X U L O S A

Barcha kasblar uchun zarur va muhim bo‘lgan shaxs xislatlari bor, bular-mehnatsevarlik, hamma kasb va mutaxassislikdagi mehnat ahliga nisbatan hurmat-ehtirom, mehnat qilish zarurligini tushunish va anglash, o‘z ishini rejalashtira va nazorat qila bilish, ish joyini to‘g‘ri tashkil qilish, ish batartib va intizomli bo‘lish, toqatlilik, sabotlilik, topshiriqni bajarishning eng oqilona usulini tanlab ola bilish, materiallar hamda vaqtni tejash va shu kabilardir. Ana shu xislatlar va fazilatlarning hammasini bolalarda birinchi sinfdan boshlab shakllantirish lozim. Bolalarni kasblar olamiga asta-sekin olib kirish, ularni shu olamda mo‘ljal olishga o‘rgatish zarur. O‘qituvchi o‘quvchini darslarda kuzatish, u bilan suhbatlashish, bola faoliyati maxsulini tahlil qilish jarayonida uning ba’zi bir xususiyatlarini, mayllarini payqab oladi, bu xislatlarni rivojlantirish yuzasidan tegishli ishlarni ado etgandan keyin bular keyinchalik kasbni belgilashda asosiy omil bo‘lishi mumkin. Bolaning kasbiy muhim xislatlarini barvaqt aniqlash esa keyinchalik unga o‘z xususiyatlariga qarab kasbni to‘g‘ri tanlash, uni muvaffaqiyatli ravishda o‘zlashtirish, mehnatda yuksak natijalarga erishish imkonini berishi mumkin. Ko‘pgina olimlar o‘tkazgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktab o‘quvchilarining taxminan 30 foizida tanlangan kasbga nisbatan barqaror qiziqishlar boshlang‘ich sinflardayoq shakllanar ekan. O‘qituvchining vazifasi - o‘quvchilarning qiziqishlarini mumkin qadar oldinroq aniqlashdan va jamiyat talab-ehtiyojlariga muvofiq shu qiziqishlarini rivojlantirishdan, inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Mehnat ta’limi darslari kasbga yo‘naltirish ishini olib borish uchun alohida imkoniyatlarga ega. Buni mehnat darslari kasbga yo‘naltirishga qaratilgan yo‘lining tahlili misolida ham ko‘rish mumkin. I-IV sinflarda mehnat ta’limining asosiy maqsadlaridan biri-o‘quvchilarda inson uchun mehnat birinchi zaruriyat, ijtimoiy burch ekanligiga, har qanday kasbni egallash uchun mustaxkam va chuqur bilimlar kerakligiga ishonch hosil qilishdan iborat. Mehnatga muxabbatni va ishlash istagini faqat mehnatda tarbiyalash mumkin. shu boisdan uam mehnat ta’limi darslarida qariyb 80 foiz vaqt amaliy ishlar uchun ajratilgan. Shu bilan birga darslarda bolalar odamlar mehnat faoliyatining asosiy sohalari bilan, ularning qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga ko‘maklashuvchi sanoat va qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishiga oid eng ko‘p tarqalgan kasblar bilan tanishtiriladi. O‘qituvchi ilgari tuzgan

kasbga yo‘naltirish rejasiga muvofiq tarzda dars reja-konspektini yoza turib, kasbga yo‘naltirish darsi oldiga maqsad qo‘yib, kasbga yo‘naltirishga oid ma’lumotlarni unga kiritadi. Bu esa biron-bir kasb, asbob, ishlab chiqarish texnologiyasi, muayyan mehnat operatsiyalarini o‘rgatishdan, kasb jihatidan muhim xislatlarini tarbiyalashdan, o‘quvchilarni ilgari belgilangan reja asosida o‘rganishdan yoki ana shu tarkibiy qismlarning hammasini qo‘shib olib borishdan iborat bo‘lishi mumkin. Quyi sinflarning o‘quvchilari xilma-xil materiallar (qog‘oz, karton, tabiiy materiallar, tunuka, sim, yog‘och, fanera, plastmassa, tolali materiallar) bilan ish ko‘radilar, ular ishlashga oid o‘zlariga bop, ma’qul bo‘lgan operatsiyalarni o‘rganadilar. Ular texnik va texnologik tusdagi masalalarni echishni o‘rganadilar, turli materiallar xosil qilish va qo‘llanishini, bu materiallarning odamlar turmushidagi ahamiyatini bilib oladilar, u yoki bu texnologik opratsiyalarni bajarish uchun mo‘ljallangan eng oddiy asboblardan foydalanish yo‘llari bilan tanishadilar va foydalanishni o‘rganadilar, tegishli kasblar to‘g‘risida ma’lumotlar oladilar. Chunonchi, o‘quvchilar uchun ishlab chiqilgan (transport) konstruktori bolalarni 18 xil turli transport mashinalari va kasblar bilan tanishtirish imkonini beradi. O‘quvchilar qurilish konstruktori bilan ishlab, qurilish kasblari, ularning muhimligi va zarurligi to‘g‘risida, qurilish bilan bog‘liq bo‘lgan odamlar mehnatining mazmuni haqida ma’lumotlar oladilar, qurilish ob’ektlarini modellashtirishni o‘rganadilar. Bu ishlar bolalarda texnik tafakkurni, makonga oid tasavvurlarni, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi, ularda quruvchi mehnatiga xurmat bilan qarash hissini tarbiyalaydi. Texnik konstruktor bilan ishlash chog‘ida bajariladigan topshiriqlar o‘quvchilarni mashinasozlik elektrotexnika asoslari bilan tanishtiradi, ularda texnik tafakkurni rivojlantiradi, unchalik murakkab bo‘lmagan texnik qurilmalarni bilib olish imkonini beradi. Bolalar mashinasozlikka oid keng tarqalgan va zarur kasblar, ana shu kasblarning mehnat mazmuni bilan tanishtiradilar. “O‘simliklarni o‘stirish va xayvonlarni hayoti bilan tanishtirish” bo‘limlari bolalarni qishlok xo‘jalik asoslari bilan tanishtirishni ko‘zda tutadi. O‘quvchilar xonaki o‘simliklarni parvarish qiladilar, piyoz, xonaki o‘simliklar etishtirish yuzasidan tajriba o‘tkazadilar. Ular maktab o‘quv-tajriba uchastkasida ishlab, erda mehnat kiladilar; tuproqni yumshatadilar, o‘simliklarning o‘sishini kuzatadilar, o‘z mehnatining natijalarini ko‘radilar, odamlar mehnatini qadrlashni, erni e’zozlashni o‘rganadilar. O‘quvchilar chorvachilik kasblari bilan ham tanishadilar, xayvonlarni

to‘g‘ri parvarish qilishni o‘rganadilar. O‘qituvchining o‘quvchilarda erga omilkorlik bilan qarash xissini shakllantirishi, qishlok xo‘jaligidagi mehnat to‘g‘risida to‘g‘ri tasavvur berishi, o‘z mehnati va o‘z jamoasi mehnati natijalaridan xursand bo‘lishini o‘rgatishi muhimdir. Shu boisdan ishni shunday rejalashtirish kerakki, bolalar chorva mollarni parvarish qiladigan, hosilni yig‘ishtirib oladigan, mehnat natijalarini hisob-kitob qiladigan bo‘lsinlar. Bunday xollarda bolalarning ishga qiziqishi kuchayadi va kasbga yo‘naltirish ishi alohida mazmun kasb etadi.

ASOSIY TUSHUNCHALAR:

Bilim – kishilarning nazariy ma’lumotlar majmuida ifoda qilingan va ishlab chiqarish topshiriqlari (jaraènlarni) ongli ravishda bajarish uchun zarur bo‘lgan, umumlashtrilgan tajribadir. Bilimlarni o‘zlashtirish faktlar, hodisalar, tushuncha va qonuniyatlarni o‘zlashtrishni ko‘zda tutadi.

Ko‘nikma – ongli ravishda bajariladigan ishning bir xil mehnat usullari ko‘p marta takrorlanadigan, avtomatlashib ketgan komponenti – tarkibiy elementidir.

Malaka (kvalifikatsiya) -kishining kasbiy mahoratni egallash darajasidir. Ishchining malaka ko‘rsatkichi toifa èki unvon bilan belgilanadi

O‘quv – insonning o‘zidagi bilimlariga asoslangan holda, ma’lum talablarga rioya qilib turib, mehnat jaraènlarini bajara olishidir. Uquvchilar biror ishni bajarish uchun zarur bo‘lgan va etarli darajada epchil harakatlarni o‘z ichiga oladi.

Kasb – insonning doimiy takrorlanib turadigan ishlab chiqarish faoliyati bo‘lib, u umumiy va maxsus ta’lim asosida egallab olinadigan bilim va malakalarni talab etadi.

Aqliy ish qobiliyati - aqliy mehnatning biror turini bajarish uchun zarur bo‘lgan jismoniy va psixik funksional imkoniyatlar yig‘indisi.

Aqliy charchash - nerv tizimining potensial energiyasining haddan tashqari ko‘p sarflanishi natijasida aqliy ish qobiliyatini pasayishi.

Amaliy faoliyat - insoniyatning ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida tabiatni va ijtimoiy munosabatlarni o‘zgartirishga qaratilgan maqsadga muvofiq faoliyati.

Bilish ehtiyojlari - bilimlarni yoki fan asoslarini o‘zlashtirishga nisbatan qondirilmagan muhtojlikni sezishdan iborat faoliyat motivi.

Bilishga qiziqish - shaxsning voqelikdagi narsa va hjodisalarni, ularning sifat hamda xususiyatlarini, o‘zaro munosabatlari mohiyatini, shuningdek, turli qonuniyatlarni bilib olishga nisbatan doimiy barqaror yo‘nalishidan iborat individual xususiyati.

Zehni o‘tkirlik - yangi yoki murakkab nazariy hamda amaliy masalalarni hal qilishning to‘g‘ri yo‘llarini tez topa olishdan iborat aql sifati.

Ijtimoiy malakalar - ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish va jamoa orasida o‘zini tuta bilish malakalari.

Individual tajriba - har bir shaxsning o‘z hayoti davomida orttirgan tajribasi.
Industrial psixologiyasi - mehnat psixologiyasining psixologik omillarning sanoatdagi rolini o‘rganuvchi, psixologiyaning qonuniyatlariga asoslanib, mehnat unumdorligini oshirish masalalari bilan shug‘ullanuvchi maxsus sohasi.
Inertlik - faoliyatda sustkashlik ko‘rsatishdan iborat salbiy xarakter xislati.
Intizomlilik - muayyan jamoaning barcha a’zolari uchun majbur bo‘lgan qat’iy tartib va xulq-atvor qoidalariga tizimli ravishda rioya qilishdan iborat bo‘lgan ijobiy xarakter xislati.
Intizomsizlik - jamoat joylari, mehnat, o‘qish yoki oila jamoasining tartib qoidalariga tizimli ravishda rioya qilmaslik yoki ularni buzishdan iborat salbiy xarakter xislati.
Introversiya - shaxsning o‘z fikrlari, sezgilari, kechinmalari va qis-tuyg‘ulariga tayanish.
Iroda kuchi - shaxsning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadining aniqligi, uni amalga oishirish uchun intilishi, maqsad yo‘lida ma’lum bir qaror qabul qilish tezligi va uni o‘z vaqtida ijro etishi bilan belgilanadigan iroda sifati.
Irodaviy zo‘r berish - maqsadni amalga oshirish uchun ob’ektiv va sub’ektiv qiyinchiliklarni bartaraf qilishda namoyon bo‘ladigan nerv hamda iroda kuchi.
Irodasi bo‘shlik - shaxsning biror faoliyat turini bajarish uchun o‘zini majbur qila olmaslik yoki o‘z harakatlarini o‘z maqsadlariga bo‘ysundira olmaslikdan iborat salbiy xarakter xislati.
Ixtisoslashgan mehnat - muayyan kasbga doir maxsus bilimlar, ko‘nikmalar, malaka va madaniy odatlarning tarkib topishi hamda rivojlanishini talab qiladigan mehnat.
Ish qobiliyati - shaxsning muayyan faoliyat turini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan jismoniy hamda psixik funksiyalari yig‘indisi.
Ish usullarini tasvirlash - mehnat psixologiyasi sohasidagi ilmiy tekshirish ishlarida alohida ish usullari yoki malakalarni ularning bajarilish tartibi bo‘yicha tasvirlashdan iborat tekshirish metodi.
Kasb kasalligi - muayyan kasb sohasidagi psixik yoki shu kasbning ko‘pchilik vakillariga xos bo‘lgan kasallik.
Kasb psixologiyasi - mehnat psixologiyasining kasblarni psixologik komponentlarini yoki muayyan kasbda ishlovchilarga nisbatan

qo‘yiladigan psixologik talablarni o‘rganish hamda ilmiy tahlil qilish bilan shug‘ullanuvchi bo‘lim.

Kasb tanlashga yollash - pedagoglar, psixologlar, vrachlar va boshqa mutaxassislarning yoshlarni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashdagi maslahati, tushuntirishlari kabi tadbirlar tizimi.

Kasbga qiziqishlar - shaxsning ma’lum bir kasbga nisbatan doimiy va barqaror motivlashtirilgan qiziqishidan iborat individual xususiyati.

Kasbga layoqatlilik - shaxsning muayyan kasbga yaroqlilik darajasini ko‘rsatuvchi jismoniy va psixik sifatlar yig‘indisi.

Kasbga tayyorgarlik - muayyan kasb bo‘yicha muvaffaqiyatli ishlash imkoniyatini ta’minlovchi maxsus bilim, ko‘nikma, malaka, odat, sifat, xususiyatlar, mehnat tajribasi va xulq normalariga ega bo‘lishlik.

Kasbga tegishli ma’lumot - mehnat faoliyatining ma’lum bir sohasi uchun zarur bo‘lgan maxsus bilim, amaliy ko‘nikma, malaka va odatlar tizimi.

Kasbga xos diqqat – ma’lum bir kasbda ko‘p yil ishlash natijasida shu kasbning talablari va ob’ektiv xususiyatlariga mos ravishda tarkib topgan diqqat turi.

Kasbga xos zararliklar - mehnat va ishlab chiqarish sharoitlarining odam organizmi hamda ish qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar yig‘indisi.

Kasbga xos odatlar – ma’lum bir kasb vakillari uchun tipik hisoblangan odatlar.

Kasbda ishlashga to‘g‘ri tanlash- shaxsni muayyan kasbda ishlash uchun qabul qilishda uning shu kasbning ob’ektiv xususiyatlariga to‘g‘ri keladigan jismoniy va psixik sifatlarini hisobga olish.

Kasbiy malakalar - ishlab chiqarish faoliyatining ko‘p takrorlanishi natijasida avtomatlashgan xatti-harakatlar yig‘indisi.

Kasbiy xotira - bevosita o‘z kasbiga doir narsa va hodisalarni, fikr, hissiyot, harakatlarni esda qoldirish, mustahkamlash va esga tushirishdan iborat xotira turi.

Kasbni tasvirlash - mehnat psixologiyasi sohasidagi ilmiy tekshirish ishlarida muayyan kasbni texnologik va psixologik jihatidan tasvirlashdan iborat tekshirish metodi.

Malakalarning ko‘chishi - muayyan faoliyat sohasida hosil qilingan malakalarning yangi malakalar hosil qilishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishdan iborat qonuniyat.

Malakalarning regressi – ma’lum bir faoliyat sohasida hosil qilingan malakalarning biror sababga ko‘ra, ko‘p vaqt amalda ishlatilmaganligi natijasida asta-sekin so‘nishidan iborat qonun.
Malakalarning rivojlanishi - muayyan faoliyat sohasiga doir malakalarning kundalik amaliyotda ko‘p qo‘llanilishi natijasida tobora o‘sib, mukammalashib borishdan iborat qonuniyat.
Matonatlilik - shaxsning muayyan maqsadni amalga oshirish yo‘lida uchraydigan har qanday ob’ektiv hamda sub’ektiv qiyinchiliklarga bardosh berib, ularni engib chiqishdan iborat irodaviy xarakter xislati.
Mehnat - tarixan tarkib topgan, maqsadga muvofiq yo‘naltirilgan, boylik yaratishga qaratilgan ongli faoliyat turi.
Mehnat qobiliyati - shaxsning muayyan mehnat turini muvaffaqiyatli bajarishni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan jismoniy hamda psixik funksional imkoniyatlari yig‘indisi.
Mehnat madaniyati - mehnatni to‘g‘ri tashkil qilishga doir bilimlar, malakalar va odatlar tizimidan iborat individual xislat.
Mehnat malakalari - mehnat faoliyatining ma’lum bir sohasiga doir avtomatlashgan, mustahkamlangan harakatlar.
Mehnat psixologiyasi - psixologiyaning mehnat faoliyatining psixologik muammolarini o‘rganuvchi sohasi.
Mehnat terapiyasi - mehnat jarayonlaridan davolash maqsadlarida foydalanadigan fan tarmog‘i.
Mehnatsevarlik - mehnatni xurmatlash uning har qanday turini bajarishga doim tayyor turishdan iborat xarakter xislati.
Motiv - odamni muayyan xatti-harakatlarga undaydigan bosh sabab.
Motivasiya - shaxsning nima uchun ma’lum vaqtda boshqa fikr va harakatlarni emas, faqat shu fikr va harakatni bajarishga qaror qilganligini asoslab berishi, tushuntirib berishdan iborat mantiqiy operasiya.
Motivlar kurashi - shaxsning oldida bir emas bir qancha maqsadlar mavjud bo‘lgan taqdirda ulardan eng muhimini tanlab olish jarayonida ro‘y beradigan ikkilanishdan iborat holat.
Mustaqillik - shaxsning muayyan aqliy, axloqiy yoki amaliy masalalarni hal qilishida, ayniqsa, murakkab vaziyatni baholash va maqsadga muvofiq yo‘lni tanlashda o‘zining mustaqil fikrlari, tamoyillari hamda e’tiqodiga ega bo‘lishdan iborat irodaviy xarakter xislati.

Mutaxassis - shaxsning muayyan kasbga nisbatan yaroqlilik darajasi, tayyorgarlik saviyasi, muayyan faoliyat sohasida muvaffaqiyatli ishlay olish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisi.
Mutaxassislik imtixonlari - mutaxassis sinovlarining bir qismi bo‘lib, ishlab chiqarish ta’limi natijasida o‘quvchilarning olgan maxsus nazariy bilimlarini tekshirish uchun o‘tkaziladi.
Mutaxassislik sinovlari - o‘quvchilar ishlab chiqarish ta’limining to‘liq nazariy va amaliy kursini tamomlagandan keyin, ularning kasb bo‘yicha olgan bilim va malakalarini tekshirish, ularga ta’rif, ixtisos darajasini berish uchun o‘tkaziladigan tadbir.
Mutaxassislik tavsifnomasi - muayyan kasb yoki mutaxassis ishchilari mehnatining mazmuniga nisbatan qo‘yiladigan ishlab chiqarish talablarining bayoni.
Muhandislik psixologiyasi - psixologiyaning texnika moslamalari bilan uni boshqaruvchi kishilar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish hamda o‘zaro ta’sirini tekshirish bilan shug‘ullanuvchi maxsus sohasi.
Osoyishta tip - nerv tizimining qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlari teng hamda o‘rtacha kuchga ega bo‘lgan tipi.
Passivlik - atrofdagi narsa va hodisalarga, kishilarga nisbatan befarq munosabatda bo‘lishdan va jismoniy yoki psixik faoliyasizlikdan iborat holat.
Prinsipiallik - haqqoniylik va jamiyat manfaatlari nuqtai nazaridan o‘z qarash hamda e’tiqodlarini qat’iy turib himoya qilishdan yoki so‘z bilan ishning birligidan iborat ijobiy xarakter xislati.
Professiogramma - muayyan kasbdagi faoliyat uchun zarur bo‘lgan psixologik xususiyatlar to‘plami.
Professiogrammani tajribada tekshirish - mehnat psixologiyasida muayyan kasbga nisbatan qo‘yiladigan psixologik talablarni eksperimental ravishda tekshirib ko‘rish.
Psixik charchash - psixik funksiyalarning haddan tashqari kuchli yoki mutassil ishlashi natijasida ular ish qbiliyatining vaqincha qsman yo‘g‘ishidir.
Psixogramma - muayyan kasb yoki ixtisos sohsiga xos bo‘lgan eng muhm shaxsiy sifat va xususiyatlarning yozma yoki jadval tarzda ifodalanishi.
Psixolog - psixologiya mutaxassisi, psixologiya sohsida ilmiy tekshirish ishlari olib boruvchi yoki o‘qtuvchilik qiluvchi shaxs.
Psixologik tavsifnoma – ma’lum bir kishining aqliy, axloqiy irodaviy sifatlarning, qiziqishlar, dunyoqarashi, e’tiqodi, shuningdek, individual

psixologik xususiyatlari xarakteri, temperamenti, qobiliyati va iste'dodlari ob'ektiv ravishda tasvirlab yozilgan shaxsiy hujjat.

Psixotexnika - psixologiyaning asosan mehnat psixologiyasi amaliy masalalarini o'rganuvchi sohasi.

Samimiylik - atrofdagi kishilar bilan munosabatda sofdillik vijdonlilik tariqasida ifodalanadigan shaxsiy sifat.

Sangvinik-shaxsning tez, kuchli, lekin beqaror emosional qo'zg'aluvchanligi va psixik jarayonlari bilan sifatlanadigan individual xususiyati.

Simpatiya - biror narsaga yoki shaxsga nisbatan ichki moyillik, ishonchdan iborat emosional holat.

Talabchanlik - shaxsning o'z-o'zining va o'zgalarning xulqini muayyan ob'ektiv tamoyillarga bo'ysundira olishdan iborat irodaviy xarakter xislati.

Temperament - shaxsning emosional qo'zg'aluvchanligi va harakatchanligi bilan sifatlanadigan individual xususiyatlar yig'indisi.

Toliqish - organizmning jismoniy va aqliy zo'riqish, salbiy emosiyalar ta'siri natijasida hosil bo'ladigan hamda ish qobiliyatining pasayishi bilan sifatlanadigan holati.

Unumli mehnat - bevosita moddiy boylik ishlab chiqarishga qaratilgan mehnat.

Faoliyatni optimallashtirish - mehnat qilish, o'qish uchun eng qulay sharoitlar, psixologik imkoniyatlar yaratish yo'li bilan muayyan faoliyatning samaradorligini orttirish.

Flegmatik temperament - sekin kuchsiz va barqaror emosional qo'zg'aluvchanlik bilan tavsiflanadigan individual xususiyat.

Halollik - shaxsning o'z burchi va e'tiqodlariga nisbatan sadoqatida, atrofdagi borliqqa hamda kishilarga vijdonan munosabatda bo'lishida ifodalanadigan axloqiy sifati.

Xarakter xislati - ijtimoiy muhit ta'sirida tarkib topgan shaxsning xatti-harakatlarida muntazam uchraydigan doimiy xususiyat va sifatlar yig'indisi.

Xarakterning ijobiy xislatlari- shaxsning jamiyat axloq normalari doirasidagi doimiy ijobiy xususiyatlari.

Hasadgo'ylik - o'zga shaxslarning mavqei, qobiliyati, iste'dodi, faoliyatidagi yutuqlari, mulki kabilarga nisbatan g'arazgo'ylik munosabatida ifodalanadigan salbiy xarakter xislat.

Shaxsiy tajriba - har bir individning yoki shaxsning turmush jarayonida hosil qilgan tajribasi.

Egoizm - o‘z shaxsiy manfaatlarini jamiyat, jamoa manfaatlaridan yuqori qo‘yishga kuchli intilishda ifodalanadigan salbiy xarakter xislati.
Qat’iylik - xarakterning o‘z vaqtida asosli va qat’iy qarorlar qabul qila olish va ularni ikkilanmasdan ijro etishga kirishishdan iborat irodaviy xislati.
Qiziqish - shaxsning muayyan narsa va hodisaga ega bo‘lishga, bilishga faol va barqaror yo‘nalishidan iborat individual xislati yoki faoliyat motivi.
Qobiliyat - shaxsning muayyan faoliyat turini muvaffaqiyatli bajarishga bo‘lgan layoqat darajasini ifodalaydigan, turmush jarayonida hosil qilingan individual xususiyatlari yig‘indisi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYoEV Toshkent sh., 2020 yil 31 dekabr, PQ-4939-son
2. O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim to‘g‘risida NIZOM Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 7 avgustdagi 466-son qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi «Xalq ta’limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-5538-sonli Farmoni
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 23 avgust kuni xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidan
5. QOMUS.INFO ONLAYN ENSIKLOPEDIYA
6. TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI. O‘QUV-USLUBIY MAJMUA. Xolyigitova N.X. , Abdumadjidova D.R. Toshkent 2018
7. Incheon Declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea). Aysmontas B.B. Pedagogicheskaya psixologiya. Sxemы i testы. – M., 2002.
8. OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI Pedagogik innovatsiyalar kasb-hunar ta’lim boshqaruvi hamda pedagog

kadrlarni qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish instituti Turg‘unov.A.A “Kasb-hunarga yo‘naltirish” o‘quv qo‘llanma

9. «Kasbiy psixologiya» fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. – Toshkent, 2013. – 153 bet. Majidova Sh.A
10. Toshkent davlat Agrar universiteti Jo‘raeva S.N. Yunusxo‘djaev Z.Sh “Kasbiy psixologiya” o‘quv qo‘llanma
11. Bolshoy psixologicheskiy slovar. Pod obщ. Redaksii B.G.Мещeryakova i P.I.Zinchenko. 3-e izd.M.2002
12. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. M.,1996.
13. Kudryavsev T.V. Psixologiya professionalnogo obucheniya i vospitaniya. M.,1997.
14. Klimov E.A. Psixologiya professionalnogo samoopredeleniya. M.,2004
15. NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI “PSIXOLOGIK XIZMAT” fanidan AMALIY MASHG‘ULOTLAR Z.T.NISHANOVA Toshkent- 2006
16. Anastazi A. Differensialnaya psixologiya. Individualno‘e i gruppovыe razlichiya v povedenii / Per. s angl. M.: Aprel Press, Izd-vo EKSMO-Press, 2001. (Seriya «Kafedra psixologii»).
17. Allabergenov A.A. «Kasb etikasi va psixologiyasi» - Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi., -Toshkent 2007
18. Beluxin D.ABeluxin D.A Osnovы lichnosti orientirovannoy pedagogiki/ D.A Beluxin. -Voronej; M.: "Institut prakticheskoy psixologii"Modek", 1997. -304 s
19. Boymurodov N.Boymurodov N. Raxbar psixologiyasi./ N. Boymurodov. -T: Yangi asr avlodi., 2005. -150 s.

20. Velichkovskiy V.M. Sovremennaya kognitivnaya psixologiya. – M., 1982.-S. 151-183.
21. Vilyunas V.K. Psixologicheskie mexanizmы biologicheskoy motivatsii.-M.: MGU, 1986.
22. Vыgotskiy L.S. Sobrn. soch.-T.3-M., 1983.
23. Galperin P.Ya., Kabыlnitskaya. Eksperimentalnoe formirovanie vnimaniya.-M., 1974.
24. G‘oziev E. G‘. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi.-T.: “Universitet”, 2003.
25. G‘oziev e.g‘. Umumiy psixologiya.-t.: “universitet”, 2002.
26. Karimova V.M.Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. : Pedagogika institutlari uchun kullanma./ V.M. Karimova. -T.: Universitet, 1999. -96 s.
27. Korsakova N. K.Korsakova N. K. Neuspevayuщie deti : neyropsixologicheskaya diagnostika trudnostey v obuchenii mladshix shkolnikov/ N. K. Korsakova, Yu. V. Mikadze, E. Yu. Balashova. -M.: Pedagogicheskoe obщestvo Rossii, 2002. -160 s.
28. Leytes N.S. Sposobnosti i odarennost v detstkie godы.- M.: 1984.
29. Melxorn G., Melxorn X.G. Geniyami ne rojdayutsya.-M, 1991.
30. Nemov R.S. Psixologiya. Kniga 1.-M.: 2002.
31. Odarennыe deti. M., 1991.
32. Psixologicheskaya podgatovka k pedagogicheskoy deyatelnosti : Praktikum. -M.: Izdatelskiy sentr " Akademiya", 2002. -144 s.
33. Psixologiya lichnosti . -SPb: Piter, 2003. -640 s.
34. Psixologiya upravlencheskoy deyatelnosti . -M.: Alfa-Press, 2006. -264 s.

TASHMATOVA GULZODA NE’MATULLAEVNA

Ta’lim islohotlarini amalga oshirishda kasb motivatsiyasini barvaqt aniqlashning ijtimoiy-psixologik mezonlari (kichik maktab yosh o‘quvchilari misolida)

M O N O G R A F I YA

Nashriyot muharriri:
Mohira YULDASHEVA

Texnik muharrir:
Baxtiyor YAKUBOV

Sahifalovchi-dizayner:
Shohida MUKUMOVA

Nashriyot litsenziyasi № 880921. 14.08.2020 y.
Nashriyotga topshirildi 10.06.2021 yil.
Chop etishga ruxsat berildi 15.06.2022 yil.
Bichimi 108x84/16. Shartli bosma tabog’i 8,25.
Adadi 100 nusxa. Buyurtma №295.

“Ziyo nashr matbaa” XK
Guliston shahri, O‘zbekiston ko‘chasi,
Ma’naviyat-ma’rifat markazi.

«Sirdaryo Print» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Sirdaryo shahri, O‘zbekiston ko‘chasi, 92-uy.